During the fMRI scan, participants were asked to perform a series of speech-related tasks, including repeating single words, producing short phrases, and engaging in spontaneous conversation. The fMRI data was then analyzed using standard imaging software to identify brain regions associated with the control of lip muscles during speech production.

The results of the study showed that the primary motor cortex, which is responsible for initiating voluntary movement, was activated during speech production tasks involving the lips. Additionally, the supplementary motor area, which plays a role in the planning and execution of complex movements, was also activated during speech-related tasks. These findings suggest that the part of the brain responsible for controlling the muscles of the lips during speech production involves a complex network of brain regions involved in motor planning and execution.

Provides valuable insight into the neural mechanisms underlying the control of lip muscles during speech production. By understanding the specific brain regions involved in this process, researchers and clinicians may be able to develop more targeted interventions for individuals with speech-related disorders.

Conclusion

In conclusion, the algorithm for the work activities of the part of the brain that controls the muscles of the lips of a person is a complex process that involves several different regions of the brain. Through our analysis and research, we have identified the specific areas of the brain involved in this process, including the primary motor cortex, premotor cortex, supplementary motor area, and basal ganglia.

Furthermore, we have found that the algorithm of work activities involves a sequence of events that include sensory feedback, motor planning, and motor execution. The sensory feedback is received by the brain, which then plans the motor movement based on the information received. Finally, the motor execution involves the activation of the appropriate muscles to produce the desired movement.

This algorithm has significant implications for the study of speech and language disorders, as disruptions in any part of this process can result in communication difficulties. Understanding the algorithm of work activities for speech production may aid in the development of new treatments and interventions for individuals with speech and language disorders.

Study of the algorithm of work activities of the part of the brain that controls the muscles of the lips of a person provides valuable insights into the complex processes involved in speech production. With further research, this knowledge could potentially lead to improvements in the diagnosis, treatment, and management of speech and language disorders.

References:

1. "The Neural Basis of Lip Movements in Speech Production" by D. Abdurahmonov, D. Daminov, and M. Kholmatov. Tashkent Medical Academy Journal, 2(7)
2. "Motor Cortex Activity During Lip Reading" by S. Ataniyazova, S. Urazova, and M. Ruziev. Tashkent Medical Academy conference materials (2020), 1(1), 190-198
3. "Neural Correlates of Lip Movements in Speech Perception" by U. Iskandarov and N. Tursunov. Journal of Tashkent State University of Oriental Studies, issiue 3 volume 1
4. Khakimov, A. A. (2018). The role of the brain in speech formation. Tashkent Medical Academy Journal, 1(1), 45-48.
5. Kholmuminov, Sh., & Kholmuminova, F. (2019). Methods of studying the brain’s speech areas. Tashkent Medical Academy Journal, 2(3), 19-22.
6. Mirzaev, A. (2015). Analysis of the work of the brain during speech formation. Journal of Tashkent State University of Oriental Studies, 3(21), 124-129.
7. Saidova, G. (2016). Neurophysiological mechanisms of speech formation in humans. Science and Education, 4(1), 43-46.
8. "Electrophysiological Correlates of Lip Movements in Speech Production" by F. Khusanov, S. Yakubova, and K. Khudoykulov
9. Sultanova, G. M. (2017). Modern approaches to studying the functional organization of the brain. Bulletin of the Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, 1(23), 93-97.
10. Hickok G, Poeppel D. The cortical organization of speech processing. Nat Rev Neurosci. 2007;8(5):393-402. doi:10.1038/nrn2113
11. Rauschecker JP, Scott SK. Maps and streams in the auditory cortex: nonhuman primates illuminate human speech processing. Nat Neurosci. 2009;12(6):718-724. doi:10.1038/nn.2331
12. "The Role of the Basal Ganglia in Lip Movements and Speech Production" by S. Abdurahmonova and N. Mirzaev. Bulletin of the Tashkent Medical Academy for 2020 (2)

13. Guenther FH, Ghosh SS, Tourville JA. Neural modeling and imaging of the cortical interactions underlying syllable production. Brain Lang. 2006;96(3):280-301. doi:10.1016/j.bandl.2005.06.001

14. Dichter BK, Breshears EM, Leonard MK, et al. Electrocorticographic activation within human auditory cortex during dialog-based language and cognitive testing. Front Neurosci. 2018;12:298. doi:10.3389/fnins.2018.00298

15. Z. A. Hakimov “Creating an algorithm for the data bases to keep confidential information, taken by encephalographer”. ICICST-2022 (Tashkent) materials, 57-64

16. Zohid A. Hakimov, A. Medatov, V. Kotetunov, Y. Kravtsov, A. Abdullaev. “A new algorithm for the providing security of big data” PROCEEDINGS ON ENGINEERING SCIENCES. Faculty of Engineering, University of Kragujevac ISSN: 2620-2832. Volume 5 Number 2, Year – 2023 https://pesjournal.net/

17. Perkell JS, Matthies ML, Lane H, et al. Speech motor control: acoustic goals, saturation effects, auditory feedback and internal models. Philos Trans R Soc Lond B Biol Sci. 2010;365(1551):3789-3800. doi:10.1098/rstb.2010.0279

BUDJETNI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH: JAHON AMALIYOTI VA MAMLAKATIMIZDA YARATILGAN TIZIM

Muslimov Komoliddin G'iyos o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiy xavfsizlik ta'lim yo'nalishi magistranti


"Endilikda, mahalla infratuzilmasi uchun mablag'lar faqatgina tashabbusli budjet orqali aholi istagan loyihalarga ajratiladi"

Sh.M.Mirziyoyev

Davlat budjetining shakllanishi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish jarayonlarida aholining faol ishtiroki, joylardagi dolzarb muammolarni yaqqon namoyon etib, ularni qisqa muddatlarda bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda odamlarni chindan ham o'z ovozining ahamiyatiga ishontira olgan, daxldorlik hissini uyg'otib, ularni bir maqsad yo'lida birlashtira olgan loyiha bu - Tashabbusli budjet loyihasidir.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan 2021 yildan boshlab tashkil etilib, kun sayin ommalashib bormoqda. Xususan, loyiha doirasida 2021 yilda **42,2 ming**dan ortiq takliflar kelib tushgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022 yilga kelib **3 barobarga** ortib, **131 330 ta**ni tashkil etdi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, shu kungacha **12,2 mln** odamni qamrab oldi (ovoz berish jarayonida ishtirok etgan).



Shunga mutanosib ravishda 2022 yilda loyihalar uchun ajratilgan mablag'lar miqdori **4,7 barobarga ortib, 2,5 trln.so'mga** (tuman va shahar budjetlari 5 foizi hisobidan 1,5 trln so'm hamda qo'shimcha mablag'larning kamida 30% qismi hisobidan 555 mlrd so'm)ga yetdi.

Bunda, 2021-2022 yillarda o'tkazilgan Tashabbusli budjet jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini qo'llab-quvvatlash maqsadida, istisno tariqasida respublika budjetidan tuman va shahar budjetlariga qo'shimcha **630,1 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirildi.

Loyihaning samaradorligidan kelib chiqib, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini yanada kengaytirish uchun

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qarori bilan, 2023 yilda tashabbusli budjet jarayonlariga **8 trln.so’mdan ortiq** (2022 yilga nisbatan **3,2 barobar ko’p**) mablag’ yo’naltirilishi rejalashtirildi. Buning e’tiborli jihati shundaki, 2023 yildan boshlab “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo’li bilan aniqlanib, har bir mahalla qiymati **8 mlrd so’mgacha** loyihalar paketi bilan ovoz berish jarayonida ishtirok etish imkoniyati yaratildi.

Budjet mablag’larini hudud va sohalarga taqsimlanishida ustuvor yo’nalishlarni aniqlash, budjet jarayoni ishtirokchilari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda, ushbu masalalar bilan turli darajadagi hokimiyat vakillari, deputatlar shug’ullanadi hamda fuqarolar manfaatlarini ifoda etadi. Biroq, qonun chiqaruvchilar e’tiboridan chetda qoladigan mahalliy muammolar ham mavjud bo’lib, aynan Tashabbusli budjet loyihasi ushbu muammoli holatlarni umumiy muhokamaga olib chiqish, uni hal qilishning maqbul variantini topishga imkon beradi.

Tajriba shuni ko’rsatmoqdaki, har bir joy o’ziga xos xususiyat va ustuvorlikka ega bo’lib, odamlar o’zlarining yashash joylarining aksariyat muammolarini yaxshi bilishadi va fuqarolarning tanlovi ko’pincha hokimiyat qaroridan ko’ra asoslangan hisoblanadi. Faqat ma’lum bir joyda yashabgina, birinchi navbatda qanday masalalarni hal qilish kerakligini "ich-ichidan" tushunish mumkinligi ko’pchilik yaxshi tushunadi.

Tashabbusli budjet loyihasini amalga oshirishning eng muhim natijasi nafaqat infratuzilmani rivojlantirish masalalarini hal qilish, balki aholi punktlarida ijtimoiy va inson kapitalini rivojlantirish hamda fuqarolar mas’uliyatini yanada oshirishning eng muhim shartlaridandir.

Budjet jarayonida bevosita ishtirok etish orqali fuqarolar ijtimoiy o’zgarishlarning ishtirokchisiga aylanadi hamda ijtimoiy kapitalning eng muhim tarkibiy qismlari: ijtimoiy aloqa va o’zaro ishonchni shakllantirishadi. Bunda ishonch nafaqat turli xil fuqarolar o’rtasida, balki fuqarolar va mahalliy hokimlik vakillari o’rtasida ham paydo bo’lib, provardida aholining ehtiyojlarini tarmoqlar kesimida yoki shikoyatlar shaklida emas, balki asosli **konstruktiv takliflar** shaklida ko’rish imkonini beradi.

Albatta bular, Loyihani yaratish tartibining maksimal shaffofligi va uni amalga oshirish jarayonida haqiqiy jamoatchilik nazorati tizimi yo’lga qo’yilishi bilan bog’liq bo’lib, yakunda korrupsiya omillarini minimallashtirish va barcha bosqichlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladi hamda fuqarolarda boqimandalik kayfiyatining pasayishida eng muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Bunda, ijtimoiy o’zgarishlar bilan bir qatorda, loyihalarning iqtisodiy samaradorlik darajasi ham ortib boradi, ya’ni loyihalar qiymatini pasaytirish, budjet mablag’larini sarflash samaradorligini oshiradi hamda jamoatchilik tomonidan

berilgan imkoniyatdan maksimal darajada foydalanish orqali mablag’larni tejamli, ammo samarali sarflashga harakat qilinadi.

Shuningdek, fuqarolarda “Davlatniki - demak hech kimga tegishli emas" degan munosabatdan voz kechilib, mulkiy munosabat bilan almashtiriladi va buzg’unchilikni minimallashtiradi. Misol uchun, jahon tajribasida fuqarolar o’zlari amalga oshirgan loyihalar butligini ta’minlash uchun **jamoat patrulini** tashkil etish holatlari mavjud.

Jahon tajribasida shu kabi tizimli loyihalar, **partisipator budjetlashtirishning** bir shakli sifatida namoyon bo’lib, mahalliy ahamiyatdagi masalalarni budjetni jamoatchilik fikri asosida shakllantirishga asoslangan holda budjet mablag’larini sarflash obyektlarini aniqlash va tanlashda, shuningdek tanlangan loyihalarning amalga oshirilishini bevosita fuqarolar ishtirokida nazorat qilish orqali hal qilishning turli amaliyotlari jamlanmasi bo’lib, aholi punktlarini rivojlantirish yo’llarini belgilashdagi global tendensiyaning bir qismi hisoblanadi.

Har bir mamlakatda fuqarolarni jalb etish turli yo’llar bilan amalga oshiriladi, ammo hamma joyda **asosiy maqsad fuqarolarning budjet mablag’larini sarflash bo’yicha qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishidir**. Shu maqsadda, butun dunyoda bugungi kunda 7 000 dan ortiq turli amaliyotlar mavjud bo’lib, mazkur tajriba dastlab Lotin Amerikasi va Yevropaning yirik **shaharlarida joriy etilgan bo’lsa, Janubi - Sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa qishloq joylariga xos hisoblanadi**.

Bugungi kunda, Rossiya davlati yetakchilar qatoriga kirib, budjet qarorlarining turli-tuman amaliyotlarini birlashtiruvchi brend sifatida “Tashabbusli budjetlashtirish”ni qabul qilgan. Bunda, fuqarolarning budjet qarorlarida ishtirok etishga oid **250 dan** ortiq amaliyotlari joriy etilib, deyarli barcha hududlarda - respublika, o’lka va viloyatlarida amal qiladi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, birgina 2019 yilda umumiy qiymati **24 milliard rubl**dan ortiq **22 mingta** loyiha amalga oshirilib, unda rossiyaliklarning uchdan bir qismi ishtirok etgan.

Yuqorida qayd etilganidek, turli mamlakatlarda amaliyotlar o’ziga xos xususiyatlarga ega. Misol uchun **Italiya** va **Fransiya davlatlarida** alohida munitsipalitetlar va hududlarda mahalliylashtirilgan bo’lib, milliy darajada taqdim etilmagan, ya’ni **Toskana** (Italiya) hududida noyob institutsional muhit shakllanib, qonunchilik bazasi va fuqarolarni ushbu jarayondagi ishtirokini jalb qilishga ko’maklashuvchi **maxsus organ** tashkil etilgan bo’lsa, **Milanda** budjet qarorlariga bilimli fuqarolar (ekspertlar)ni jalb qilish amaliyoti joriy etilgan.

Xuddi shundan, **Xitoy Xalq Respublikasining Chendu provinsiyasi**da fuqarolarni qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga jalb qilish borasidagi tajribasi diqqatga sazovor.

Hududlarda joriy etilgan amaliyotlar kabi, mentalitet, geografik joylashuvlar, fuqarolar qatlami va boshqa omillar hisobiga ularni amalga oshirishda turli mexanizmalardan foydalaniladi. Masalan, mamlakatimizda iqtisodiy va texnik

ekspertizadan o’tgan loyihalar “Ochiq budjet” portaliga joylashtirilib, onlayn ovoz berish yo’li bilan amalga oshirilsa, ba’zi davlatlarda g’oyalarni jamlagan holda ularni amalga oshirilishidan manfaatdor bo’lgan fuqarolar qatlami ko’p to’planadigan joylarda turli aksiyalar (**Bo’ston**) yoki maxsus saylov uchastkalarini tashkil etish (**Polshaning Sopot shahri**), aholi tarqoq joylashgan hududlarda onlayn tartibda (**aksariyat mamlakatlarda**) yoki ko’chma ovoz berish punktlari (**Braziliyaning Belo-Orizonti**)ni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Ya’na bir muhim masala, bu loyihalar uchun budjetdan taqsimlanayotgan mablag’lar qiymati (yoki ulushi) hisoblanadi. Chunki, partisipator budjetlashtirishning asosiy yo’nalishi mahalliy ahamiyatga ega bo’lgan muammolarni hal etishga qaratilganligi sababli, ularning qiymati investitsiya loyihalari qiymatidan sezilarli darajada past.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko’ra, budjetdan bir kishiga ajratiladigan mablag’ miqdori **10 yevroga** teng bo’lganida, fuqarolarni budjet qarorlariga jalb qilish amaliyotining ta’siri barqaror bo’ladi. Jahon amaliyotida ushbu ko’rsatkich **1 yevrodan** (yoki undan past) **150 yevrogacha** o’zgarib turadi.

Misol uchun, bugungi kunda yetakchilar qatoridagi Rossiyada tashabbusli budjetlashtirish loyihalari budjetlarining **60 foizga** yaqini subsidiya shaklida ajratilgan mintaqaviy mablag’lar hisoblanib, mahalliy muammolarni hal qilish uchun ajratilgan federal budjet mablag’lari **15 foizni** tashkil etadi hamda davlat mablag’lari bilan bir qatorda mablag’lar munitsipalitetlardan (loyihalar narxining 15 foizigacha), fuqarolar va korxonalardan (10 foizgacha) jalb qilinadi.

Mamlakatimizda esa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan, 2023 yilda tashabbusli budjet jarayonlari uchun tuman va shahar budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida **6 mlrd.so’m**, “Mening yo’lim” loyihasi uchun tuman va shaharda **1,5 mlrd so’mdan** kam bo’lmagan miqdorda hamda tuman va shahar budjetlari qo’shimcha tarzda viloyat budjeti qo’shimcha mablag’larining **30 foizi**ni yo’naltirish belgilangan.

T/r	**Yo’nalish nomi**	**2022 yil**	**2023 yil loyiha**
JAMI		**2 653**	**8 062**
1	**Tashabbusli budjet jarayoni doirasida**	**2 508**	**3 742**
	Tuman va shahar budjetlarining 5 foizi	1 538	2 046
	Tuman va shahar budjetlari qo’shimcha manbalarining kamida 30 foizi	550	550
	Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjeti qo’shimcha mablag’larining kamida 30 foizi		1146

	1 va 2 mavsumlarda 2 mingtadan ko’p ovoz olib g’olib bo’la olmagan loyihalarni moliyalashtirish uchun qo’shimcha ajratilishi kutilayotgan mablag’lar	420	
2	**"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturi**		**4 000**
3	**"Mening yo’lim" loyihasi doirasida**	**145**	**320**
	Tuman va shahar budjetlarida ichki yo’llarni ta’mirlash uchun ajratilgan mablag’larning kamida 50 foizi	145	320

Bugun shiddat bilan o’zgarib borayotgan jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarida, shuningdek fuqarolar hayotida yangi imkoniyatlar va qadriyatlar shakllanayotgan bir davrda, shu kabi loyihalarning o’rni va ahamiyati juda muhimdir. To’g’ri, mazkur loyiha bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ko’plab baxs va munozaralarga sabab bo’lmoqda. Lekin bu, shu kabi loyihalarni to’xtatish yoki bunday amaliyotlardan voz kechish kerak degani emas, balki uni jahon tajribasi va ichki imkoniyatlar, jumladan hududlar va sohalarning o’ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish kerakligidan darak beradi.

Xususan, **mahalliy yoki tematik** (atrof- muhit muhofazasi, sog’liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, bandlik kabi) **ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan amaliyotlarni kengaytirish** hamda loyihalar uchun ovoz berish jarayonlarining shaffofligini ta’minlagan holda mavjud imkoniyatlar doirasida fuqarolar uchun yanada qulay shakllarini ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, ushbu yo’nalishda aholini qiynab kelayotgan ko’plab savollar, respublikada joriy etilgan amaliyot, mexanizm va shakllar bo’yicha ularga amaliy - uslubik ko’mak ko’rsatish uchun **onlayn rejimda maslahat berish** tizimini kuchaytirish juda muhim.

Joriy yildan boshlab **“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini** jamoatchilik fikri asosida shakllantirish amaliyotini, kelgusida **hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha Hukumat tomonidan** qabul qilinadigan qarorlarga ham joriy etilishi, jamoatchilik nazoratida aholining faol ishtirokini ta’minlab, ularning ehtiyojini **konstruktiv takliflar shaklida ko’rish imkoniyatini yaratadi** hamda islohotlar avvalo inson manfaatlari uchun xizmat ko’rsatishining yorqin dalili sifatida namoyon bo’ladi.

QURILISH TERMINOLOGIYASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

Djumashev Atadjan Ashirbayevich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti sirtqi bo‘limi
O‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari
Djumashev 1976@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tili qurilish terminlarini lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etish hamda o‘zbek tilidagi arxitektura-qurilish terminlarining izohli lug‘atini yaratishning nazariy masalalari haqida so‘z yuritiladi. Mazkur sohaviy terminologiya oldida turgan vazifalar, muammolar va ularning yechimlari, qurilish-arxitektura atamalari lug‘atini yaratishning dolzarbligi haqida metodologik xulosalar beriladi. Bu sohada o‘zbek va rus tilshunosligida amalga oshirilgan ishlar tavsifiga to‘xtalinib, mazkur ishlarning ko‘lami baholanadi.

Kalit so‘zlar: atama, terminologiya, sohaviy terminologiya, qurilish sohasi, arxitektura, leksikografiya, lug‘at, metodologiya.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ISSUES OF CONSTRUCTION TERMINOLOGY RESEARCH

Abstract: The article discusses the theoretical issues of researching Uzbek construction terms from a linguistic point of view and creating an explanatory dictionary of Uzbek architectural-construction terms. Methodological conclusions are given about the tasks, problems and their solutions, the relevance of creating a dictionary of construction-architecture terms. Focusing on the description of the works carried out in Uzbek and Russian linguistics in this field, the scope of these works is evaluated.

Key words: term, terminology, industry terminology, construction industry, architecture, lexicography, dictionary, methodology.

Hozirgi o‘zbek tilining rivojlanishiga ekstralingvistik omillar – ilmiy-texnikaviy inqilobdan keyingi taraqqiyotga xos bo‘lgan ishlab chiqarish, fan va madaniyatdagi o‘zgarishlar katta ta’sir o‘tkazmoqda. Xalq tiliga zamonaviy ilm-fan, texnologiya va arxitektura-qurilish sohasiga oid juda ko‘p atamalar kirib kelmoqda. Bu atamalarni qayta ishlab, o‘zbek adabiy tiliga qabul qilish esa bugungi kunda tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

“Terminologiya maxsus leksikografiyaning muhim bo‘g‘ini hisoblanib, ilmiy atamalarni ishlab chiqadi va sintez qiladi. U til leksik qatlamining eng harakatchan qismi bo‘lib, til lug‘at boyligini boyitishda muhim manba sanaladi” [1, 12]. Barqaror terminologik bazaga bo‘lgan ehtiyoj va atamashunoslik jarayonlarini ongli ravishda boshqarish istagi bugungi axborot texnologiyalari davrida yanada dolzarblik kasb etib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan terminologiya sohasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni tartibga solish va standartlashtirish alohida ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda atama muammosi bir necha yillar davomida muhokama qilinib kelinmoqda. Terminning mohiyatini talqin qilishdagi farqli fikrlarga qaramay, atamani ilmiy-texnik tushunchani bildiruvchi nominativ birlik sifatida tushunish barcha tadqiqotchilar uchun umumiydir.

Terminologik tadqiqotlarda mavjud bo‘lgan atamaning barcha ta’riflarini keltirib o‘tishga hojat yo‘q. Ammo bu boradagi konseptual fikrlarni ta’kiblab o‘tamiz. Rus terminologiya maktabining asoschilaridan biri D. S. Lotte “Terminning asosiy xususiyati uning ilmiy-texnik tushuncha bilan o‘zaro bog‘liqligidir” [2, 79] deydi. V. P. Danilenko, T. L. Kandelaki asarlarida esa “Terminning asosiy belgisi – unda konkret ta’rifning mavjudligi” [3, 19] ekanligi ta’kidlanadi.

Termin va terminologiyaning murakkab tabiatidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tilshunoslar shu paytgacha (tilshunoslik, dialektik mantiq va boshqa fanlar yutuqlari asosida) ilmiy-texnikaviy atamalar, ularning o‘ziga xos semantik xarakteri hamda ilmiy-texnik tushuncha, atama va ta’rif o‘rtasidagi uzviylik masalasini to‘liqroq o‘rganishga harakat qilib kelishgan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijasida rus olimi M. A. Marusenko tomonidan atama tushunchasining mohiyati yangicha talqinda ochib berildi: “Ilmiy-texnikaviy atama tushunchasi ilmiy til leksikasiga mansub bo‘lib, ma’lum bir ilmiy-texnik tushuncha bilan bog‘liq nominativ guruh (ot yoki mazmunli ibora) tarkibiga kiradi hamda faqat shu ilmiy-texnik soha vakillari nutqidagina alohida mazmun kasb etadi, umumxalq tilida qo‘llaniladigan kundalik so‘zlar esa chegaralanmagan konotativ mazmunni o‘ziga singdira oladi va shu tilda so‘zlashuvchilarning barchasiga tushunarli bo‘lgan aloqa vositasi hisoblanadi; atama ilmiy voqelikni bayon etish jarayonida qo‘llaniladi, so‘z esa kundalik tushunchani aks ettiradi; atama, qoida tariqasida, kontekstga bog‘liq emas, so‘zning ma’nosi esa ma’lum kontekstda yuzaga chiqadi; atamalar ilmiy tushunchalar tizimiga mos keladigan holda (terminologiyada) aniq tartibda tasniflanadi, so‘zlar esa bunday aniq tizimlashtirilish xususiyatiga ega emas; atama emotsionallikka ega emas, so‘zning ma’nosi esa hissiyotlar bilan bog‘liq; atama uni ma’lum ilmiy konsepsiya bilan aniq munosabatini ta’minlaydigan ta’rifni talab qiladi, so‘z esa polisemiyada, ma’noni o‘tkazishda hech qanday aniq qoidalarga tayanmaydi” [4, 3].

Agar ilgari terminologiya tilning faqat shakliy aspekti uchun ahamiyatga ega bo‘lsa, endi uning mazmuniy-funksional ahamiyati mavjudligiga ham hech kim shubha

qilmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, terminologik muammolarga doir ishlarning tobora ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. N. Hotamov, B. Sarimsoqov, R. Yarqulov, M. Barakayev, S. Bulatov, M. Ashirova, N. Ibodov, A. A’zamov, F. Shvets, I. Sharifboyev, O. Salimov, H. Rasulov, P. Olimxo‘jayev, F. Is’hoqov, A. Qosimov, M. Nabiyev, M. Abdullayeva, R. Bekjonov, Sh. Kamolxo‘jayev va boshqa o‘zbekistonlik olimlar tomonidan turli sohalarga oid terminlar ustida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, bir qator sohalarga oid terminologiyani tahlil qilishga bo‘lgan ehtiyoj zarracha susaygani yo‘q.

Biz esa mazkur maqolada o‘zbek tilidagi qurilish sohasiga oid atamalarning lingvistik xususiyatlari haqida so‘z yuritamiz. O‘zbek tilida qurilish terminologiyasi o‘z tarkibiga ko‘plab terminologik birliklarni qamrab oladi. Ularda mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan tarmoqlardan biri – qurilish sohasining konseptual tizimi o‘z ifodasini topgan.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot tezlashishi bilan qurilish sohasi ham jadal rivojlana boshladi. Qurilish bo‘yicha bir qator kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu ilmiy-texnikaviy dasturlarda samarali qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari, mashinalar va asbob-uskunalarni yaratish hamda ulardan keng miqyosda foydalanishning ilg‘or texnologiyalari va usullarini ishlab chiqish nazarda tutilgan, bir necha hukumat qarorlarida qurilish muammolariga katta e’tibor qaratilgan. Zamonaviy dunyoda yangi konsepsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda, eskilarini o‘zgartirish zarurati paydo bo‘lmoqda, qurilish terminologiyasi yangi atamalar bilan faol ravishda to‘ldirilmoqda.

Qurilish terminologiyasini hozirgi davr holatida o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Chunki qurilish terminologiyasidagi atama shakllanishining so‘nggi jarayonlari va yangi atamalar majmuasi leksikograflar tomonidan yetarlicha tahlil qilinmagan, qayta ishlanmagan va faoliyat sohasida doirasida o‘rganilmagan.

Ma’lumki, arxitektura va qurilish sohasining rivojlanish tarixi bir necha asrlarni o‘z ichiga oladi. Binobarin, qurilish terminologiyasi jamiyat taraqqiyotining dastlabki davrlari quruvchilari kasbiy lug‘ati shaklida shakllanib, uzoq vaqt davomida rivojlanib kelayotgan o‘ziga xos leksik tizimdir.

Zamonaviy qurilish terminologiyasida vaqt, shakllanish manbalari va nominatsiya tamoyillari bo‘yicha turli tabiatga ega bo‘lgan atamalarni topish mumkin. Bu esa mazkur sohani keng tarixiy asosda o‘rganish, uning shakllanish va tuzilish xususiyatlarini aniqlashning nazariy va amaliy zarurati mavjudligini ko‘rsatadi. Ko‘pgina qurilish atamalari umumiy leksikografiya qoidalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, umumxalq tilida faol qo‘llaniladi. Shuning uchun ham qurilish terminologiyasida kuzatilayotgan jonli o‘zgarishlarni aniqlashga imkon beradigan ilmiy tadqiqotlar bu sohada dolzarb va istiqbolli vazifa sifatida vujudga keldi. Ushbu terminologiyada tarixiy jarayonlar, hozirgi lingvistik va ekstralingvistik vaziyat,

shuningdek, xalq hayotining turli jabhalarida bo‘layotgan o‘zgarishlarni yaxlit tahlil qilish uning rivojlanishdagi asosiy tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Sohaviy terminologiyaning lingvistik tadqiqi arxitektura va qurilishga oid terminologik lug‘atning o‘zbek tili tizimidagi o‘rnini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bunda biz maxsus lug‘atni keng va ko‘p qirrali o‘rganishning o‘ziga xos muammolarining dolzarbligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilshunosligida qurilish terminologiyasi deyarli tadqiq etilmagan soha hisoblansa-da, rus tilshunosligida bu borada amalga oshirilgan qator ishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Rus tilshunosligida G. O. Vinokur va D. S. Lottelarning qimmatli ilmiy asarlaridan boshlab atamashunoslik masalalari doimo tilshunoslar nazarida bo‘lib kelmoqda. Olib borilgan ilmiy ishlar orasida tadqiqot obyekti qurilish atamalari bo‘lgan ishlar ham talaygina. Arkadyeva, V. A. Egorov, N. I. Shashkinalar qurilish tizimida qo‘llanilgan atamalarning leksik va semantik xususiyatlari, R. R. Masharipov bir asosli terminlar tavsifi, S. V. Grinev esa Kanada va Rossiya qurilish tarmoqlarida qo‘llaniladgan atamalar orqali qurilish va me’morchilik bo‘yicha ingliz va rus qurilish terminologiyasining qiyosiy tahlili bo‘yicha atroflicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O‘zbekistonda esa T. A. Otaqo‘ziyev, R. O. Mirzayevlarning “Qurilish materiallariga oid ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” kitobi, R. O‘. Shukurov, K. X. Omonov, M. R. Tojixo‘jayevalarning “Qurilish mashinalar fanidan glossariy” o‘quv qo‘llanmasi, M. B. Allanyazovning “Arxitektura-qurilish mutaxassislari uchun inglizcha-ruscha-o‘zbekcha atamalar lug‘ati” uslubiy qo‘llanmasi nashr etilgan va bu boradagi ishlar orasida o‘z ahamiyatiga ega. Shuningdek, M. A. Kuchiboyevning mazkur yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlari ham diqqatga sazovordir.

Bizningcha, o‘zbek tili qurilish terminologiyasini uning tarixiy evolutsiyasi va hozirgi holati nuqtayi nazaridan yaxlit o‘rganish ayni paytda juda dolzarbdir. Shu paytgacha yaratilgan adabiyotlarda qurilish atamalarining qo‘llanilish sohasiga ko‘ra tasnif etish masalasi tadqiqotchilarning e’tiborini tortmadi, biroq ixtisoslashgan adabiyotlarda atamalar va umuman terminologiyaning o‘ziga xosligi haqida qimmatli fikrlar aytib o‘tildi.

O‘z navbatida o‘zbek tilidagi qurilish terminologiyasini tadqiq va tasnif etish jarayonida biz quyidagi muhim jihatlarga e’tiborimizni qaratishimiz lozim:

1) qurilish terminologiyasining shakllanish tarixini o‘rganish, qurilish terminlarining shakllanish manbalari va usullarini aniqlash;

2) qurilish terminologiyasidagi atamalarning asosiy strukturaviy-semantik turlarini, qurilish tushunchalarini ifodalovchi til vositalarini aniqlash;

3) qurilish terminologiyasining funksional xususiyatlarini aniqlash;

4) qurilish terminologiyasida atamalarning shakllanishi jarayonida hozirgi zamon talablarining ta’sirini tahlil etish;

5) qurilish terminologiyasi nominatsiyasi vositalarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini aniqlash.

Qurilish atamalarini o‘rganishni tarixiy taraqqiyot jarayoni asosida tadqiq etish vazifasi bizdan XVIII asr boshidan hozirgi kungacha qurilishga oid maxsus adabiyotlarga murojaat qilishni taqozo etdi. Bunda qurilishga oid qo‘llanmalardan atamalar tanlab olinadi va maxsus kartoteka tuziladi. Ushbu tadqiqot davomida birinchi xronologik manba sifatida Yakov Barotsiy Devignolning 1709-yilda chop etilgan rus tilidagi “Arxitekturaning besh muhim qoidasi” kitobidan foydalanish mumkin. Shuningdek, bizga qurilish bo‘yicha rus tilidagi tarjima va original asarlar, maxsus jurnallarning materiallari ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Materialni tanlash va tahlil qilishda (ayniqsa, diaxronik aspektda) biz tarixchi va arxeologlar, xususan, I. Y. Zabelin, V. V. Danilevskiy kabi olimlarning xulosalari va kuzatishlariga tayanishimiz mumkin, chunki, F.P.Sorokoletov yozganidek, “muayyan bir jamiyat boshidan kechurgan real tarixiy voqelikni hisobga olmasdan turib, lug‘at tizimini, uning qonuniyatlari va chegaralarini tushunish va tushuntirishni aqlga sig‘dirib bo‘lmaydi” [5, 123]. Shu bılan bir qatorda, 1982-1983-yillardagi sovet gazeta va jurnallari materiallari asosida tuzilgan atamalar va ulardan foydalanish kartotekasi qurilish terminologiyasi rivojlanishining tirik jarayonlari va hozirgi tendensiyalarini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qurilish terminologiyasini o‘rganishning uslubiy asosi voqelik, tafakkur va til o‘rtasidagi dialektik aloqaning mavjudligi haqidagi zamonaviy fikrlash nazariyasi qoidalariga tayanadi. Bu boradagi tadqiqotlarda asosiy usul sifatida lingvistik tasvirlash usulidan foydalana olamiz. Terminologiyani tahlil qilish sinxron-diaxronik aspektda amalga oshiriladi. Ma’lum ketma-ketlikda xronologik ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish usulini ham qo‘llashimiz mumkin. Shu bilan birga, bu sohada boshqa bir qator murakkab usullar ham ishlatiladi, chunki haqiqiy materialni tahlil qilishda shakliy va semantik yondashuvlarning o‘zaro ta’siri muhim rol o‘ynaydi. Rasmiy yondashuvga muvofiq atamalar tarkibiy turlarga ajratiladi, semantik yondashuv esa umumiy adabiy tilda turli so‘z turkumlarini semantik qayta ko‘rib chiqish kabi atamalarni hosil qilish usullarini aniqlashga imkon beradi.

Qurilish terminologiyasini tadqiq etishda atama masalasi prinsipial jihatdan muhimdir. Rus tilshunoslari terminologiyani o‘rganishga, uning asosiy masalalarini (rus tilining leksik tizimidagi terminologiyaning o‘rni, atamaning lingvistik birlik sifatidagi mohiyati) hal qilishga katta hissa qo‘shdilar. Biroq bu sohadagi ko‘plab masalalar hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan va munozarali bo‘lib qolmoqda. Zero, “atamalarni yaratish va ularni ta’riflashda muayyan fan yoki soha tushunchalari tizimining rivoji bilan bog‘liq ikkita nuqtayi nazar o‘rtaga chiqadi: strukturaviy-lingvistik va konseptual-semantik” [3, 17].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan o‘zbek tili leksikasidagi arxitektura-qurilish sohasiga oid terminlar shakliy va mazmuniy tomondan yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu esa terminologiya sohasida mavjud konseptual muammolar bilan bog‘liq. XXI asrda adabiy til me’yorlari va xalq kundalik hayotidagi zamonaviy soha va yo‘nalishlar leksikasi o‘zaro muvofiqlashtirilmas ekan o‘zbek tilidagi ilmiy-texnik adabiyotlarni yaratish ham murakkab masalasi sifatida qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatı:

1. Прохорова В.Н. Лексико-семантическое образование русской терминологии. Автореф. дис. докт. фил. наук, Москва, 1983, 30 с.

2. Шукуров Р. У., Омонов К. Х., Таджиходжаева М. Р. Қурилиш машиналари фанидан глоссарий (ўқув қўлланма). Тошкент, 2019. 183 б.

3. Даниленко В.П., Скворцов Л.И. Теоретические и практические аспекты нормализации научной терминологии. Мовознавство, 1980, В 6, с. 16-21.

4. Марусенко М.А. Об основном понятии терминоведения научно-техническом термине. Научно-техническая информация, серия 2, 1981, Ш 8, с. 1-5.

8. Сороколетов Ф.П. История военной лексики в русском языке. JI, Наука, 1970 , 383 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK YONDASHUV

Mirdjalalova Lobar Rustamovna
Yangi asr universiteti Pedagogika kafedrasi prof.v.b.
Pedagogika fanlari nomzodi

Annatatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga oid pedagogik g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritiladi.

Tayanch so'z: pedagogik axloq, ijtimoiy yondashuv, ehtiyoj, muloqot, amaliy ko'nikma, tafakkur, xulq-atvor, intellektual, interpretasiya, motiv.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: Педагогические представления о развитии дошкольников, мнения об организации дошкольного воспитания.

Ключевые слова: педагогическая этика, социальный подход, потребность, общение, практические навыки, мышление, поведение, интеллект, интерпретация, мотив.

PEDAGOGICAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: Pedagogical ideas on the development of preschool children, opinions on the organization of preschool education.

Key words: pedagogical ethics, social approach, need, communication, practical skills, thinking, behavior, intellectual, interpretation, motive.

Yangi O'zbekistonda 2016 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamalakatimiz o'z oldiga ulug' maqsadlardan biri sifatida sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-son qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish hamda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etish bo'yicha vazifalar bel-gilangan. Shuningdek,

globallashuv davrida maktabgacha ta’lim sohasidagi muhim vazifa-larni quyidagicha talqin qilish mumkin:

rivojlangan davlatlar darajasidagi ta’limni joriy etish;

ta’lim muassasalari va ta’limiy xizmat iste’molchilari o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

iste’molchi va ta’lim muassasasi o’rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchay-tirish;

bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash-ning samarali yo’llarini aniqlash;

bola tarbiyasiga ijtimoiy jamoatchi-likni jalb etish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarning mantiqiy davomi sifatida O’zbekiston Respub-likasi Prezidentining 2019 yil 8- maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi» da maktabgacha ta’lim muassa-salari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang’ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutilgan. Maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash yo’lida jadal ravishda amaliy faoliyat olib borilmoqda. Binobarin, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga oid ilmiy-metodik asoslar ishlab chiqildi, jahon standarti darajasida yangi mazmun va yo’nalishda faoliyat yurituvchi mak-tabgacha ta’lim tizimi takomillashtirildi. Biroq bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash borasida aniq tizimlashtirilgan jarayon tashkil etilmagan.

Bolalarni maktab ta’limiga har tomonlama tayyor-lashda tarbiyachilardan pedagogik bilim-donlik va mahorat talab etiladi. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi-pedagoglar Sharq va G’arb olimlarining pedagogik g’oyalaridan foydalanishlari maqsadga muvo-fiqdir. Chunki ular tomonidan yaratilgan nazariyalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga oid batafsil ma’lumotlar yoritib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bola-larning psixik rivojlanishiga doir manba-larni o’rganib, tahlil qilib tarixda yaratil-gan pedagogik-psixologik nazariyalar bugungi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmaganligiga amin bo’ldik. Darhaqiqat, qadimgi Yunonistonda buyuk faylasuflar tomonidan bola psixikasi va rivojlanishi bo’yicha ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Taniqli faylasuf Geraklit bola qalbi dastlab «nam va ho’l» bo’ladi, asta-sekin «olov»ga aylana boradi, degan fikrni bildiradi. Bola ta’lim-tarbiya ta’sirida fikrlash, mulohaza qilishga o’rganadi va unda tafakkur qilish layoqati paydo bo’ladi. Geraklit ilk bora bolada nafaqat qalb rivojla-nishi haqida fikr bildiradi, u rivojla-nishni tafakkur bilan bog’laydi, psixik rivojlanish bilan intellektual rivojla-nishni solishtirib ularni tenglashtiradi. Psixik rivojlanish nazariyasiga ko’ra bola shaxsining shakllanishi hissiy va irodaviy sifatlar hamda intellektning rivojlanishi natijasida ro’y beradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarga aqliy tarbiya berish bilan birga ularni irodaviy-hissiy jihatdan ham maktab ta’limiga tayyorlash lozim. Bolalar maktab ta’limiga qadam tashlar ekanlar, ularda shaxsiy sifatlar, o’z-o’zini anglash va o’z-o’zini bosh-qarish ko’nikmalari ham shakllantirilib boriladi. Bola shaxsining rivojlanishi hamda unda axloqiy, ijtimoiy xulq shaklla-nishi yunon olimi Protagor tomonidan asos-langan. Uning fikricha, jamiyatda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va johillik tushunchasi mav-jud. Shuning uchun bola shaxsiga ta’sir ko’rsatish, muloqotni axloqiy mazmunda olib borish, hayotiy qiyinchiliklarni yenga olish ko’nikma va malakalarini shakllantirish lozim. Bunday ta’sirdan maqsad, uning fikricha, nafaqat insonda axloqiy meyorlarni takomillashtirish, balki u yashayotgan ijtimoiy sharoitlarga moslashishiga yordam berishdan iborat. Uning qarashicha, bola ruhiyatining tabiiy rivojlanishi uchun maq-sadsiz yo’naltirilgan ijtimoiy ta’sir uning ijtimoiylashuviga yordam bermaydi. Mana shu davrda qadimgi Yunonistonda

«Bolaning ijtimoiy faol va moslashuvchan bo’lib shakl-lanishiga qanday qulay sharoitlar zarur?» degan savol qo’yilgan edi. Protagor ijtimoiy moslashuv uchun tashqi ta’sir zarurligini, ya’ni bolaga ta’lim berishda boshqalar tomo-nidan ta’sir ko’rsatish usulini ma’qullaydi. Yunonistonda bolaga ta’sir ko’rsatishning eng qulay usuli notiqlik san’ati hisoblangan. Odamlarga so’z orqali ta’sir ko’rsatish, ularni qiziqtirish va o’z fikriga ishontirish mumkin. Protagor bola tarbiyasida notiqlik san’ati orqali o’qitish asosiy o’rinda turadi, deydi. Rim va Yunoniston olimlari so’z va nutq boyligiga ega insonlar jamiyatda o’z o’rnini topishi oson bo’lishini ilgari sura-dilar. Notiqliq san’ati iqtidor mezonlari bilan bog’liq ekanligini asoslaydilar. Protagor o’qish va mashq orqali inson axloqiy jihatdan takomillashadi va jamiyatga loyiq fuqaro bo’la oladi. degan g’oyani asoslaydi.

Darhaqiqat, maktabgacha yoshdagi bolalar-ning rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablarining «Nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari» sohasida ham bolada nutq va tilni rivojlantirish bo’yicha ko’rsatkichlar berilgan. Mazkur soha bo’yicha o’quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so’ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o’z nutqida to’g’ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiya-laridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o’rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo’yicha dastlabki bilimlarini ko’rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so’zning lug’aviy, bo’g’inli va fonetik tuzilishi to’g’risida tasavvurga ega bo’ladi;
- turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so’zlab berishni biladi, yozishning dastlabki malakalari va vositala-ridan foydalanishni biladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiya-lashda yunon olimlari tomonidan keltirilgan pedagogik g'oyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Demokrit bilish jarayonini ikki pog'ona – sezgi va tafakkurdan iborat, deydi. Ular bir vaqtda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Shuning uchun tafakkur orqali ko'proq ma'lumotga ega bo'lamiz. Biz sezgi orqali atomlarni ko'ra olmaymiz, lekin fikrlash yo'llari orqali ular haqida xulosa chiqaramiz. Demokritning fikricha, tarbiya insonga uch narsani berishi kerak: yaxshi fikrlash; yaxshi so'zlash; yaxshi bajarish. Yunonistondagi yetakchi olimlarning barchasi ma'naviy rivojlanish bola-ning psixik rivojlanishining asosi ekanli-gini tasdiqlaydilar, jumladan, Demokrit ham. Olim axloqiy tamoyillar insonga tug'ilishidan berilmaydi, balki tarbiya nati-jasi ekanligi haqida fikr bildiradi.

Taniqli arab olimi Ibn Rushdning fikricha, organizm va sezgi, hislar, fikrlash o'rtasida bog'liqlik bo'lib, inson qalbidagi o'ziga xos odatdagi jarayonlarni o'z boshidan o'tkazadi. Shifokor sifatida Ibn Rushd inson tanasi va sezgi a'zolarini o'rganib, atrof-olamni idrok etish bevosita asab tizimi xususiyatiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Fransuz psixologi va faylasufi Rene Dekart inson ongi mazmunini o'rganib, quyi-dagi xulosaga keladi. G'oyalar mavjudligiga ko'ra uchta turga bo'linadi: natija va oqibatga ko'ra paydo bo'ladigan; tayyor g'oyalar; tug'ma va tabiiy g'oyalar. Natija va oqibatga ko'ra paydo bo'ladigan g'oyalar hissiy tajribalar bilan bog'liq bo'lib, sezgi a'zolarimizning umumiy holatidan kelib chiqadi. Bu g'oyalarni bola mustaqil ravishda o'z tajribalarini tahlil qilishi natijasida oladi. Bu g'oyalar alohida narsa va buyumlar, hodisalar haqida bilim beradi, lekin atrof-olam haqidagi obyektiv qoidalarni anglashiga yordam bermaydi. Tug'ma va tabiiy g'oyalar insonga atrof-olam, borliq hamda uning rivojlanish qonuniyatlari haqi-dagi bilimlarni beradi.

B.Spinoza insonning yaxlitligi o'zaro ma'-naviy va jismoniy jihatdan bog'liq emas, atrof-olamni anglash asosi bo'lib xizmat qiladi. degan g'oyani bildiradi. Dekart va Spinoza voqelikni bilishni bevosita haqiqatga erishish bilan amalga oshiriluvchi alo-hida usul va aqliy sezgirlik yetakchi hisob-lanishini ilgari suradi. Intiusiya buyumlar-ning mavjud holati, xususiyati va vaziyatlarni anglash kabi umumiy tushunchaga olib keladi. Inson o'zini anglasa, atrof-olamni ham anglaydi, qalb va ruhiyat, inson tanasidagi qoidalar bir xil kechadi.

Spinoza bilish jarayonini tahlil qilib, uni quyidagi pog'onaga ajratadi:

1. Qarashlar, fikr va mulohaza yuritish subyektning hissiy tajribalari asosida buyum va narsalar haqidagi bilimlari.

2. Aql va zakovat-mantiqiy fikrlash aso-sida paydo bo'ladigan umumiy tushunchalar.

Dj.Lokk fikricha, bola psixikasi faqat hayoti davomida shakllanadi. U tarbiyaga alohida ahamiyat qaratadi. Katta odamlardagi bilim va g'oyalar tayyor holda

ularga berilma-gan, u tarbiyaning natijasi bo'lib, bolaga katta odamlarning intellektual va ma'naviy munosabati natijasida shakllanadi. Lokk insondagi barcha bilimlar hissiy tajriba asosida yig'iladi, degan xulosaga keladi. U hissiy tajribani ikkita turga bo'ladi: ref-leksiya va sezgi. Ikkala jarayon ham tashqi olam haqidagi bilimlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Sezgi nafaqat anglashning birinchi bosqichi emas, tashqi olam haqidagi bilimlarni kashf qilishning yagona yo'li, inson bilan bog'lanuvchi yagona kanal hisob-lanadi. Insonning sezgi a'zolari narsa va buyumlar, atrofimizdagi odamlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Lokk asosladiki, narsa va buyumlar turlari haqidagi bilim-lar, tabiatning umumiy qoidalari axloqiy-lik, mantiqiy operatsiyalar natijasi hisob-lanadi, tajribalar orqali yetkaziladigan bilimlarni umumlashtirishdir.

David Gartli ingliz psixologi psixika-ning hayot davomida shakllanishida tarbiya-ning imkoniyatlari, bolaning psixik rivoj-lanish jarayoniga ta'sir ko'rsatish haqiqatan ham chegaralanmagan, deb hisoblaydi. Inson psixikasi rivojlanishi va xulq-atvori shakllanishi bilimlarni o'xshatish orqali o'zlashtirishdan bola tarbiyasida foydalanish lozim. Chunki ularning kelajagi atrofdagilar bolaga nimalar haqida yetkazayotganligiga bog'liq. Shuning uchun bolaning qanday o'sishi, qanday fikrlashi va hatti-harakati faqatgina kattalarga bog'liqdir.

Jan-Jak Russo bolaning psixik tabiati haqida «Emil yoki tarbiya haqida» nomli buyuk asarida ilmiy qarashlarini ifoda-laydi. Insonning ichki olamini har tomon-lama yetuk va tabiiy holda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. U psixik rivojla-nishni davrlarga ajratib berdi.

Birinchi davr - tug'ilgandan 2 yoshgacha, bu davrda bolaning jismoniy rivojlanishini ta'minlash lozimligini aytadi. Bu yoshda nutq xali rivojlanmagan bo'ladi, shuning uchun unga qarshi bo'ladi.

Ikkinchi davr - 2 yoshdan 12 yoshgacha, bolani sensor rivojlantirish zarurligini asos-laydi. Uning fikricha, sezgining rivojla-nishi tafakkur rivojlanishiga asos bo'ladi. Tizimli o'qitish 12 yoshdan boshlanishi kerak, degan g'oyani ilgari suradi.

Uchinchi davr - 12-15 yosh, maqsadga yo'nal-tirilgan ta'lim beriladi. Bu yoshda bolalar taklif etilayotgan bilimlarni to'g'ri o'zlash-tiradi. Bu yoshda beriladigan bilimlar tabiiy va aniq fanlar bilan bog'liq bo'lishi zarur. Ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi keyinroq amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

To'rtinchi davr - 15 yoshdan balog'atga yet-gunga qadar. Aniq hayotiy tajribalar yig'il-ganda hissiyotlarning rivojlanishi ro'y beradi. Bu yoshda bolalar ehtirosli bo'ladilar. Ularda ijobiy hislar, irodaviy sifatlarni shakllantirish lozim.

Quyidagicha xulosa qilinadi:

1. Bolaning rivojlanish jarayonida atro-fidagi predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishishga yo'naltirish.

2. Bolalarda aynan mana shu davrda mehnat va madaniy malakalarni shakllantirish, nutq va muloqotni rivojlantirish, ijtimoiy axloq va estetik tuyg'ularning dastlabki kur-taklarini hosil qilish.

3. Bolalarning psixik rivojlanishida qiziqishning roli katta ekanligini inobatga olgan holda, ularni biror faoliyatga undash, vaholanki qiziqish bu ehtiyoj kabidir.

4. Bolalarni o'yin faoliyati orqali amaliy harakatlar bajarishini ta'minlash hamda ko'nikmalarni shakllantirish.

5. 3-7 yoshdagi bolalarning psixik rivoj-lanishida badiiy-ijodiy faoliyat turlari-dan biri bo'lgan musiqaviy ta'limni samarali tashkil etish.

. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafak-kurni rivojlantirish va natijada mustaqil fikrlash, o'z-o'zini anglash malakalarini shakllantirish.

7. Bolalarda ma'naviy hissiyotlar o'rtoq-lik, do'stlik va jamoachilik hislarini tar-biyalash.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8 maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiya-sini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-sonli qarori.

2. «Ilk qadam» Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan. - T., 2018. -59-b.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son qarori.

4. Sadriddinov S.R. Deviant xulq-atvorli ega shaxs psixologiyasi., "Ta'lim fidoyisi" Respublika ilmiy-uslubiy jurnal 2023 yil 1-son, 1-jild dekabr 2022 2-qism.

5. D.R. Turayeva, Sadriddinov S.R. Psixokonsultatsiya va psixokorreksiya (o'quv qo'llanma), O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 25 noyabrdagi 388-sonli buyurug'iga asosan.

6. R.Samarov, S.R.Sadriddinov, Jangovar ruhiy ta'minot – hal qiluvchi kuch. O'zbekiston Armiyasi 2022, iyun 2-son {30}.

7. Sodikova SH., Maktabgacha pedagogika darligi., Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti T.2017y.

ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ УСТАНОВОК С ИСПОЛБЗОВАНИЕМ МЕМБРАННОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОЧИСТКИ ПИТЬЕВЫХ ВОД
OPERATING EFFICIENCY OF INSTALLATIONS USING MEMBRANE TECHNOLOGY FOR DRINKING WATER TREATMENT

Сабирова Д.А
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет
Мавланова Ю.И
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет
Хамраев Ф.О
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

O’g’il bolalar va qizlar rivojlanish tempidagi o’zgarishlar saqlanib qoladi. Qiz bolalar hamma tomondan rivojlanishda o’g’il bolalardan oldinga o’tib oladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o’qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o’rni nihoyatda katta. Bu davrda axlokiy xatti-harakat koidalari o’zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo’nalishi tarkib topa boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning axlokiy onglari I va IV sinfdagi o’qish mobaynida muhim o’zgarishlarga uchraydi va axlokiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi.

Bola o’quv faoliyatida o’qituvchi rahbarligida insoniy an’analar asosida harakat qilishga o’rganadi, o’z irodasini o’quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O’quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Kichik maktab davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o’tish davridir. Bola faol ravishda o’zini o’zi boshqarishga, qo’yilgan maqsadlarga ko’ra o’zining faoliyatini tashkil etishga o’rganish davridir. Kichik maktab davrida xatti-harakatlarning yangi shakllarini paydo bo’lishi bevosita o’quv faoliyati bilan bog’liqdir. Hech bir o’qituvchi maktabga birinchi bor kelgan boladan o’zi o’rgatmagan arifmetik misol va masalalarni yechishni talab etmaydi, lekin afsuski, juda ko’p o’qituvchilar ulardan qunt bilan o’qishni, uyushqoqlikni, ma’suliyatlilikni, tartibga aniq rioya etishni talab etadilar. Vaholanki, ushbu ko’nikmalar o’qituvchi tomonidan ma’lum odat va malakalarga o’rgatilinganidan so’nggina paydo bo’ladi.

Ixtiyoriy ravishda harakat qilish layoqati butun kichik maktab davri davomida shakllanadi. Psixik faoliyatning oliy shakli singari ixtiyoriy xatti-harakatlar ularning shakllanishini asosiy qonuniga bo’ysunadi. Unga ko’ra yangi xatti-harakatlar avvalo

kattalar bilan bo’lgan umumiy faoliyatda yuzaga kelib, bola shunday xatti-harakatlarni tashkil etish imkoniyatlarini o’rganadi va shundan keyingina u bolaning individual xatti-harakat usuliga aylanadi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o’z vaqtlarini to’g’ri taqsimlash borasida yaxshi o’qish, o’ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug’ullanish qoidalariga o’rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o’rinni egallaydi. Kichik maktab davri bu ijobiy o’zgarishlar va yangilanishlar davridir. SHuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir bola erishgan muvafaqqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi.Agar shu yoshda bola bilish, o’rganish quvonchini his etmasa,o’qish malakalarini egallay olmasa, do’stlashishni bilmasa, o’ziga nisbatan, o’z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan ishonchli bo’la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo’lib, boladan yuqori ruhiy va jismoniy zo’riqishni talab etadi.

Xulosa.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarini aqliy, axloqiy va tafakkurini rivojlantirishda birinchi navbatta bolaning o`zi va ota onasi o`rtasidagi aloqalarni o`rganish, taxlil qilish va shunga asoslanib bolaga psixologik tasir qilish muxim axamyatga ega. Kichik yoshdagi bolalarda o`quv jaraytoni boshlanganda uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil tushunchalar uyg`onadi. Bularning xammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshka bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jixatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o’zgarishlari, ularning o’z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffakiyat va muvaffakiyatsizliklarini anglash, o’zini-o’zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi xisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davaletshin M.G. Zamonaviy maktab -o’qituvchisi psixologiyasi. - Toshkent 1998.
2. Psixologiya. qisqacha izogli lugat .Toshkent, 1998.
3. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
4. Umumiy psixologiya.P.I,.Ivanov.
5. Psixologiyadan ma’ruzalar matni. Toshkent.1999y
6. Umumiy psixologiya M.V.Voxidov. Toshkent 1992 yil.
7. Umumiy psixologiya A.V.Petrovskiy. Moskva1976 g

QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MODDIY RESURSLAR MAZMUNINING NAZARIY YONDASHUVLARI

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich
NamMTI “Menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
baxtiyordedajanov@gmail.com
Xusanboev Boburmirzo Isoqjon o’g’li
NamMTI “Menejment” mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Shoxboburmirzo97@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada moddiy resurslar atamasiga bo’lgan ilmiy yondashuvlar mazmuni, ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushunchalarning shakllanishi yoritib o’tilgan. SHuningdek, moddiy resurslarni mezonlar bo’yicha turkumlanishi ifodalangan. Mavzu doirasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: ishlab chiqarish resurslari, moddiy resurslar, tovar-moddiy zahiralar, resurs chiqindilari, guruhlash mezonlari

THEORETICAL APPROACHES TO THE CONTENT OF MATERIAL RESOURCES IN PROCESSING ENTERPRISES

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich
NamITI Associate Professor of the Department of “Management”
baxtiyordedajanov@gmail.com
Husanboyev Boburmirzo Isoqjon ugli
NamITI Master of the 2nd course in specialties “Management”
Shoxboburmirzo97@mail.ru

Abstract: The content of scientific approaches to the term of material resources, the formation of concepts based on their characteristics are highlighted in the article. Also, the classification of material resources according to criteria is expressed. Relevant recommendations have been developed within the topic.

Key words: production resources, material resources, inventory, resource waste, grouping criteria.

Kirish

Tashqi muhitning tez o’zgaruvchanlik sharoitida har qanday korxona asosiy maqsadiga erishish uchun, ishlab chiqarish xarajatlarini jumladan, mehnat predmetlaridan tejab-tergab foydalanishga alohida e’tibor beradi. Asosiy maqsad korxona o’z foydasini ko’paytirish, provard natijada foydalilik darajasini oshirishga

erishishdir. Mahsulot ishlab chiqarishda mehnat predmetlarining ahamiyati ulkan. Ularsiz ayrim hollarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklanadi ayrim hollarda esa umuman mumkin emas. Mamlakatimizda mahsulot ishlab chiqarish va uning tannarxini kamaytirish borasida ko'plab me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan yurtboshimiz o'zlarining ko'plab ma'ruzalarida tannarxni kamaytirish va import o'rnini bosish bo'yicha amaliy ishlarni qilish lozimligi haqida ta'kidlab o'tganlar[1].

Korxonaning moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojining o'sishi ekstensiv (ko'proq materiallar va energiya sotib olish yoki ishlab chiqarish) yoki intensiv (ishlab chiqarish jarayonida mavjud zaxiralardan tejamkorroq foydalanish) qondirilishi mumkin. Korxonaning foydasi, uning rentabelligi va raqobatlasha olishi uchun uning oldingi faoliyat davrida o'z resurslarni qanday tasarruf qilganiga bog'liq.

Bu qulay mehnat sharoitlarini yaratish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini, uni tashkil etish va boshqarishni nazarda tutadi. Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish sohasining aksariyat tarmoqlarida joriy ishlab chiqarish xarajatlarida eng katta ulushga ega. Korxona faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlari - ishlab chiqarish hajmi, uning rentabelligi, shuningdek moliyaviy ahvoli va likvidligi, korxonaning moddiy-texnik ta'minot jarayonini qanday amalga oshirayotganini nazorat qilishiga bog'liq. Korxona ishini moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish jarayonida moddiy xarajatlarni kamaytirish va shu asosda ishlab chiqarish hajmi va yakuniy natijalarni oshirish uchun zaxiralar izlanadi. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni moddiy resurslarni tayyor mahsulotga aylantirishni nazarda tutadi. Qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan jalb qilingan moddiy resurslarning tarkibi, sifati va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Moddiy resurslarni ishlab chiqarishda oqilona iste'mol qilish faqat korxonada moddiy oqimlar harakatlanadigan bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirish orqali amalga oshishi mumkin. Bu moddiy ta'minot va materiallar sarfini yagona jarayon sifatida samarali boshqarishni tashkil etishni taqozo etadi.

Asosiy qism

Uzluksiz ishlab chiqarishning asosiy komponenti moddiy resurslar bo'lib, ulardan oqilona foydalanish korxonaning iqtisodiy o'sish imkoniyatini ta'minlaydi.

Sub'ektiv yondashuvdan kelib chiqqan holda olimlar va mutaxassislar tomonidan moddiy resurslarni aniqlashning turli xil talqinlari mavjud va ko'pincha ishlab chiqarish resurslari (ishlab chiqarish zahiralari) (IR (IZ)) moddiy resurslar (moddiy zaxiralar) (MR (MZ)) bilan izohlanadi.

Quyidagi jadval yordamida moddiy resurslarga nisbatan olimlarning o’z yondashuvlarida bergan ta’riflarini mazmun – mohiyatini yoritib o’tamiz [2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13].

1-jadval

Moddiy resurslarning mazmun-mohiyatini ta’riflovchi yondashuvlar

Mualliflar	**Ta’riflanishi**
Ladutko N.I.	Ishlab chiqarish zahiralari (IZ) - tovar-moddiy boyliklar - tayyor mahsulot olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko’rsatish) uchun inson mehnati yo’naltirilgan ob’ektlar (xom ashyo, materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, tuzilmalar, ehtiyot qismlar, yoqilg’i va boshqalar) dir.
Bazyleva M.N.	Ishlab chiqarish zahiralari (IZ) - ishlab chiqarish jarayoniga hali kirmagan, lekin ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun ma’lum miqdorda korxonalar omborlarida bo’lgan mehnat ob’ektlari.
Chuev I.N.	Moddiy resurslar (MR) – bu xo’jalik yurituvchi sub’ekt mahsulot ishlab chiqarish va xo’jalik faoliyatida foydalanish uchun sotib oladigan turli xil xom ashyo, materiallar, yoqilg’i, energiya, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar.
Babuk I.M.	Tovar-moddiy zaxiralar(MZ) - bu korxona omborlarida xomashyo ko’rinishida bo’lgan va ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo’ljallangan aylanma mablag’larning bir qismi. Moddiy resurslar (MR) mehnat predmetlari bo’lib, ular quyidagilardan iborat: xom ashyo, asosiy materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, yordamchi materiallar, yoqilg’i, ehtiyot qismlar.
Saxnov S.N.	Ishlab chiqarish resurslari (IR) - tabiiy, mehnat va moddiy resurslar majmui.
Gorelov N.A.	Moddiy resurslar (MR) - har bir ishlab chiqarish tsiklida to’liq iste’mol qilinadigan va shu bilan birga

	o’z qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariga to’liq o’tkazadigan mehnat predmetlari.
Volkov V.P., Ilin A.I. Pereverzev M.P.	Moddiy resurslar (MR) - bu asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar, texnologik ehtiyojlar uchun yoqilg’i va energiyani o’z ichiga olgan ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinadigan mehnat predmetlari.
Sherbakov V.V.	Moddiy zahiralar (MZ) - ishlab chiqarish va aylanish sohasida saqlanadigan moddiy resurslar massasi bo’lib, takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligining zaruriy sharti hisoblanadi. Ishlab chiqarish zahiralari(IZ)- bu korxonalarning omborlarida saqlanadigan va sanoat iste’moli uchun mo’ljallangan moddiy resurslar.
Gilyarovskaya L.T.	Ishlab chiqarish zahiralari(IZ) - tashkilotga allaqachon kirgan, ammo hali qayta ishlanmagan yoki foydalanilmagan moddiy resurslar
Pyastolov S.M.	Ishlab chiqarish zahiralari(IZ)- korxonaga allaqachon kelgan, ammo hali qayta ishlanmagan yoki foydalanilmagan moddiy resurslar
Hasanov R.	Moddiy resurslar - iqtisodiyot taraqqiyoti va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo’lgan moddiy-ashyoviy ne’matlar yig’indisi, moddiy-ashyoviy shakldagi iqtisodiy resurslar.

Umuman olganda, yuqoridagi ta’riflarning xilma-xilligi tovar-moddiy zaxiralarning individual xususiyatlaridan kelib chiqadi, shu bilan birgalikda ular quyidagilarga e’tibor qaratadi:

birinchidan, tashkilotga allaqachon kirib kelgan, lekin hali qayta ishlanmagan moddiy resurslar sifatida;

ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayoni uchun mo’ljallangan mehnat ob’ektlari sifatida;

uchinchidan, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko’rsatishda yoki boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mulk turi sifatida;

to’rtinchidan, mablag’lar harakatsiz bo’lgan aylanma mablag’larning butun hajmining yig’indisi sifatida.

SHuni e’tirof etish kerakki, yuqoridagi atamalar va ularning ta’riflari bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshilikda emas, balki faqat iqtisodiy jihatdan asoslangan holda bir-birini to’ldiradi, kengaytiradi va rivojlantiradi, iqtisodiy kategoriya sifatida moddiy resurslarning u yoki bu xossalarini aks ettiradi. Yuqoridagi yondashuvlarning har biri o’zining afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklariga ega.

“Moddiy ishlab chiqarish zahiralari”, “ishlab chiqarish zahiralari” kabi atamalar ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokni ko’rsatadi. “Moddiy resurslar”, “moddiy zaxiralar”, “mehnat predmetlari”, “moddiy aylanma mablag’lar” tushunchalari ushbu turdagi mulk (aktivlar) mehnat predmeti sifatida ishlatilishini, shuningdek, ko’rib chiqilayotgan mulk turining shakli moddiy (jismoniy) mavjudligini ko’rsatadi.

Ta’riflarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, tovar-moddiy zaxiralarning tarkibi iqtisodchilar o’rtasida bahs-munozaralarga sabab bo’lmaydi. Zaxiralar - bu tayyor mahsulot ishlab chiqarishda, yetkazib beriladigan xom ashyoni qayta ishlash bo’yicha xizmatlar ko’rsatishda va tashkilotning boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xom ashyo va boshqa mehnat ob’ektlari zaxiralari.

An’anaviy toifalarni o’rganib chiqib, mualliflar o’zlarining yarim tayyor mahsulotlarini, ekspluatatsiya resurslarini, resurs chiqindilarini moddiy resurslar tarkibiga kiritishni taklif qilishadi[14].

Korxona ishlab chiqarish jarayonida yarim tayyor mahsulotlardan foydalanish va ularni sotish jarayonidagi kapitalning aylanma muddatini qisqartiradi. Chunki yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlashning barcha bosqichlaridan o’tishiga hojat yo’q. SHu sababli, qayta ishlashning barcha bosqichlaridan o’tgan tayyor mahsulotlar va o’z ishlab chiqarish muddati qisqaroq bo’lgan va keyinchalik qayta ishlash uchun mo’ljallangan moddiy resurslar sifatida qaralishi kerak bo’lgan yarim tayyor mahsulotlar to’g’risidagi ma’lumotlarni farqlash maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo’ladigan resurs chiqindilari guruhiga quyidagilar kiradi:

- foydali chiqindilar (ularni qayta ishlashga qo’shimcha investitsiyalarsiz ishlab chiqarishda qayta foydalaniladi);

- shartli foydali chiqindilar (ishlab chiqarishni qayta tiklash uchun qayta ishlash uchun qo’shimcha xarajatlar talab etuvchi);

- qisman foydali chiqindilar (pul kompensatsiyasini olish uchun sotiladi);

- foydasiz chiqindilar (hech qanday iqtisodiy foyda keltirmaydigan).

“Resurs” tushunchasi frantsuzcha “ressource” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, tom ma’noda “vosita” degan ma’noni anglatadi. Demak, resurslarni biron bir maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vosita deb atash mumkin.

Moddiy resurslar - mehnat vositalari bilan bir qatorda butun ishlab chiqarish jarayonini ta’minlovchi va bu jarayonda bir marta foydalaniladigan mehnat ob’ektlari bo’lib, korxonada ishlab chiqarish va uni tashkil etish uchun materiallar bilan ta’minlash muhim jarayondir.

“Moddiy resurslar” tushunchasi bo’yicha o’rganilgan ta’riflarni tahlil qilishimiz shuni ko’rsatadiki, mualliflar ushbu tushunchaga quyidagicha talqin berishadi: moddiy resurslar - mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan tabiiy-moddiy ob’ektlar, shu jumladan: xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, o’z va sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, yoqilg’i-energetika resurslari, ehtiyot qismlar, ekspluatatsiya resurslari; resurs chiqindilari.

Moddiy resurslar tushunchasiga tasniflash yondashuvini kengaytirish va ularning tuzilishini batafsil bayon qilish uchun mualliflarning an’anaviy ta’riflarini to’ldirgan holda quyidagi turkumlaymiz:

1. Maqsadi bo’yicha: yagona (aniq mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan); bilvosita (ishlab chiqarilgan mahsulotlarning butun hajmiga taqsimlangan).

2. O’rnini bosish darajasi bo’yicha: import o’rnini bosuvchi (o’z korxonasi yoki o’z mamlakati hududidagi boshqa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan, chetdan yetkazib beriladigan moddiy resurslar); an’anaviy (mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan moddiy resurslar).

3. Yangilik darajasi bo’yicha: innovatsion (mamlakat uchun yangi); o’tish davri (korxona uchun yangi); asosiy (yangi bo’lmagan moddiy resurslar).

4. Funktsional belgilari bo’yicha: xom ashyo; asosiy materiallar; yordamchi materiallar; sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar; o’z yarim tayyor mahsulotlar; butlovchi; ehtiyot qismlar; yoqilg’i-energetika resurslari; ekspluatatsiya (ishlatiladigan) resurslar; resurs chiqindilari.

5. Qayta foydalanish bo’yicha: foydali; shartli foydali; qisman foydali; foydasiz.

6. Iste’mol darajasi bo’yicha: kamyob (sotib olish va foydalanish jarayonida moddiy resurslarga taklifdan ortiqcha talab holati yuzaga keladi); ortiqcha (sotib olish va foydalanish paytida ortiqcha taklif holati mavjud); barqaror (moddiy resurslarga bo’lgan talab va taklif bozor va iste’moldagi muvozanat holatiga mos keladi yoki unga yaqin).

7. Shakllanish joyi bo’yicha: o’z (korxonaning o’zi ishlab chiqaradi); tashqi (o’z mamlakati hududidagi boshqa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan); xorijiy (mamlakatdan tashqaridagi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladi).

8. Talab dinamikasi bo’yicha: jamg’ariluvchi (moddiy resurslarga narxlar yuqori sur’atlarda o’sib bormoqda, korxona resurslarni tejash va kelajakda uzluksiz ishlab chiqarishni ta’minlash uchun ushbu turdagi resurslar zahiralarini shakllantiradi); barqaror (korxona kelasi davr uchun narxning sezilarli o’sishi prognoz qilinmagan moddiy resurslarga zaxiralarni muddatidan oldin shakllantirmaydi).

9. Ishlab chiqarishdagi ahamiyati bo’yicha: qimmatli (ishlab chiqarilgan mahsulot rentabelligi dinamikasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadigan); o’rtacha (mahsulot rentabelligi dinamikasiga o’rtacha ta’sir ko’rsatadigan).

Yuqoridagi taklif etilayotgan turkumlash barcha turdagi moddiy resurslarning batafsil va to’liq hisobini ta’minlaydi, ularni tahlil maqsadlari va sanoat ob’ekti faoliyatining ustuvor yo’nalishlaridan kelib chiqqan holda tanlangan belgilar bo’yicha guruhlarga ajratadi.

Ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslar turlarining batafsil turkumlanishi sub’ekt uchun quyidagi yo’nalishlar bo’yicha axborot bazasini tashkil qiladi: moddiy resurslarga buyurtmalarni shakllantirish; moddiy resurslar iste’molini me’yorlash; moddiy resurslardan oqilona foydalanish; moddiy resurslarni almashtirishda xarajatlarni minimallashtirish.

Korxonalarda moddiy resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlash bevosita korxonaning eksport salohiyatini oshirishga va qo’shimcha daromadni shakllanishiga turtki bo’ladi [15].

Xulosa va takliflar

Qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarda moddiy resurslar bo’yicha olib borgan tadqiqotlarimizga asoslanib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Qayta ishlash korxonasining moddiy resurslari bu uzluksiz mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko’rsatish va ishlarni bajarish uchun zarur bo’lgan moddiy ne’matlar yig’indisi.
2. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi - ishlab chiqarish muddatini va butun operatsion tsiklni qisqartirish, ularni saqlashning joriy xarajatlarini kamaytirishdan iborat.
3. Korxonalarda moddiy resurslar boshqaruvi samaradorligini oshirishda moddiy resurslarni tejash asosiy o’rinda bo’lib, resurslarni tejash tizimi kompleks o’rganishni talab etadi.

Qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarda moddiy resurslar boshqaruvi samaradorligini oshirish bo’yicha quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Moddiy resurslarni boshqarish usullarini uning mavjud yo’nalishlari bilan bog’lash lozim. O’z navbatida, resurslarni boshqarish yo’nalishlari korxonaning moddiy resurslaridan foydalanish omillariga va ushbu resurslardan foydalanish sohalariga bog’liq bo’lishi kerak.
2. Moddiy resurslarni boshqarish sohalariga qarab, resurslarni tejash uchun asosiy maqsadlarni ajratib ko’rsatish va guruhlash lozim.
3. Moddiy resurslarni boshqarishning belgilangan yo’nalishlari asosida korxonada moddiy resurslarni yo’qotishning asosiy sabablari ya’ni - qoniqarsiz loyihalash; samarasiz texnologiyalardan foydalanish; yetkazib berish va saqlash

vaqtidagi yo’qotishlar; nuqsondan yo’qotishlar; sifatsiz ta’mirlash kabi manbalarni aniqlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Шавкат Мирзиёев «растаможка»ни 2 баравар қисқартириш вазифасини қўйди.14.02.2022 й. https://www.xabar.uz/avtomobil/shavkat-mirziyoyev-rastamojkani-2-baravar-qisqartish
2. Ладутько Н.И. Учет, контроль и анализ материальных ресурсов.– Минск: Белорусская наука, 1997. – 215 с.
3. Базылев Н.И., Базылева М.Н. Экономическая теория. Минск: Современная школа, 2008. 640 с. 2012. 646 ñ.
4. Чуев И.Н., Чуева Л.Н. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М.: Дашков и К, 2006. 368 с.
5. Бабук И.М. Экономика предприятия. Минск: Информационно-вычислительный центр Министерства финансов, 2008. 326 с.
6. Сахнов С.Н. Оценка и эффективность использования потенциала региональной экономики // Инженерный вестник Дона, 2012, №4 (2) URL:ivdon.ru/ru/magazine/archive/n4p2y2012/1433.
7. Горелов Н.А. Экономика предприятия. Минск: Высшая школа,2005. 207 с.
8. Волков В.П., Ильин А.И., Станкевич В.И. Экономика предприятия. М.: Новое знание, 2003. 677 с.
9. Переверзев М.П., Лунева А.М. Бухгалтерский учет. 2-е изд. М.:НИЦ ИНФРА-М, 2013. 221 с.
10. Щербаков, В.В. Основы логистики. СПб.: Питер, 2009. 432 с.
11. Гиляровская Л.Т. Экономический анализ. 2-е изд. Минск:ЮНИТИ-ДАНА, 2004. 615 с.
12. Пястолов С.М. Экономический анализ деятельности предприятий. М.: Академический Проект, 2004. 576 с.
13. Ҳасанов Р. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.2000 й.
14. Климук В.В., Кузнецова Ю.А. Материальные ресурсы: детализация состава, расширение классификации и факторы экономии. Инженерный вестник Дона, №3 (2015) ivdon.ru/ru/magazine/archive/n3y2015/3208. ©Электронный научный журнал.
15. Nabijanovich, D. B. (2019). Issues of support and stimulation of exporting enterprises and ways of their elimination. American Journal of Economics and Business Management, 2(3), 44-56.

KORXONALARDA ICHKI VA TASHQI MUHIT OMILLARINING QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA'SIRI

Ubaydullaev Lutfulloxon Xabibullaevich
NamMTI "Menejment"kafedrasi dotsenti i.f.n.
ubaydullayev1948@gmail.com
Nosirov Muzaffar Tolib o'g'li
NamMTI "Menejment" mutaxassisligi 2-kurs magistranti
muzaffarnosirov1992@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada samarali qaror qabul qilish va amalga oshirishning dolzarbligi, "qaror qabul qilish" jarayonining mamun –mohiyati yoritib o'tilgan. SHuningdek, korxonalarda qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, guruhlarga ajratilgan. Sohadagi mavjud muammolar va taklif sifatida tegishli yechimlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: qaror, qaror qabul qilish, qaror qabul qilish maqsadi, qaror qabul qilishning ichki omillari, qaror qabul qilishining tashqi omillari, yaqin halqa, uzoq halqa omillari.

INFLUENCE OF FACTORS OF THE EXTERNAL AND INTERNAL ENVIRONMENT ON THE DECISION-MAKING PROCESS AT ENTERPRISES

Ubaidullaev Lutfullokhon Habibullaevich
NamITI Associate Professor of the Department of "Management"
ubaydullayev1948@gmail.com
Nosirov Muzaffar Tolib ugli
NamITI Master of the 2nd course in specialties "Management"
muzaffarnosirov1992@gmail.com

Annotation: The article highlights the relevance of effective decision-making and the essence of the "decision-making" process. The factors influencing the decision-making process in enterprises were also studied and divided into groups. Furthermore, the article proposes current problems and related solutions in this area.

Key words: decision, decision-making, purpose of decision-making, internal decision-making factors, external decision-making factors, closed cycle, long-cycle factors.

Kirish

Zamonaviy boshqaruvda qarorlarni to’g’ri ishlab chiqish va qabul qilish ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy hayotning barcha sohalarida boshqaruv samaradorligiga erishish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni yuqori malaka va amaliy ish tajribani talab qiluvchi mehnat faoliyatining alohida turidir. Odatda, boshqaruv qarorlari qabul qilish biron-bir maqsadga yo’naltirilgan bo’lib, ma’lum qoida, aniq harakatlar doirasida amalga oshiriladi.

Islohotlarni samarali amalga oshirishda dunyo fanlarining yutuqlari, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi bilan bir qatorda milliy boshqaruv an’analaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Puxta o’ylangan, har tomonlama tahlildan o’tgan qarorlar ko’zlangan natijaga erishishning yarmi, ya’ni to’g’ri qaror qabul qilish maqsadga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Bu borada yurtboshimiz ta’kidlab o’tganlaridek, “Har bir fuqaro qabul qilinayotgan qarorlarimizning real foyda berayotganini sezishi kerak” degan fikrlari puxta o’ylangan qarorlar ko’zlangan natijaga erishishga olib kelishi zarurligiga urg’u berib o’tganliklarini ko’rishimiz mumkin [1].

Insoniyat paydo bo’libdiki, insonlarni boshqarishga bo’lgan ehtiyoj ibtidoiy jamoa davridanoq o’z aksini topgan. Ya’ni insonlar guruh va jamoalarda birlashar ekanlar, ularga albatta bir sardor zarur bo’lgan. Ana shu sardorning jamoani boshqarishdagi omilkorligi u chiqarayotgan qarorlarning insonlar turmush tarziga yengilliklar va naf olib kelishi bilan o’lchangan. Zamonaviy boshqaruv haqida so’z ketar ekan, rahbarning korxona oldidagi burchi bu uning o’zi boshqarayotgan korxonaning rivojlanishida turli vaziyatlarda korxona tashqi omillarini korxona ichki omillariga, ya’ni xodimlar, texnologiyalar, masalalar, vazifalar va ayniqsa qaror qabul qilish jarayoniga ta’sirini erta anglay bilishi va shu asnoda oqilona qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi.

Tashkilotni boshqarishning asosiy jihatlaridan biri, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ular ijrosini ta’minlashdir. Boshqaruv qarori tashkilotdagi biron ob’ektni ko’zlangan maqsadga muvofiq ravishda bir holatdan, ikkinchi holatga keltirish bilan ifodalanadi. SHuning uchun ham boshqaruv qarorlari tashkilotning istiqbolini, taraqqiyotini belgilovchi asosiy ijtimoiy, iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. SHundan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy fan yo’nalishlarida boshqaruvda qaror qabul qilish va uni tadbiq etish, qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari ilmiy tadqiq etilmoqda.

Qaror qabul qilish va uni amalga oshirish jarayoni boshqaruvchi yoki ijrochining faoliyatini takomillashtirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbar va xodimga qo’yiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va qaror qabul qilish faoliyatida maqbul yo’lni tanlashni amalga oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy va shaxs xususiyatlarini o’rganish zarurati tug’iladi. Demak,

korxonalar faoliyatini boshqarishda samarali qaror qabul qilish va amalga oshirish korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy shartidir.

Asosiy qism

Boshqaruv qarori boshqariladigan tizim faoliyatining ob’ektiv qonuniyatlarini bilish va uning holati to’g’risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish asosida dolzarb muammoni samarali hal qilish bo’yicha jamoaning faoliyati dasturini belgilovchi boshqaruv sub’ektining ijodiy akti. Qaror- bu rahbar o’z lavozimidagi mas’uliyatni bajarish uchun qilishi kerak bo’lgan tanlovdir.

Qaror qabul qilish nazariyasida “qaror qabul qiluvchi” atamasi keng qo’llaniladi. Bu umumlashtirilgan tushunchadir. Bu bitta - individual qaror qabul qiluvchi shaxs yoki jamoaviy qarorni ishlab chiquvchi bir guruh odamlar - qaror qabul qiluvchi guruh bo’lishi mumkin. Qaror qabul qilish jarayonidagi xatolar katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki qaror faqat bitta shaxsga taalluqli emas, balki ko’pincha butun bir bo’linma yoki tashkilotga tegishlidir. Shuning uchun boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishda qarorni shakllanishi va tanlashga ilmiy yondashuvni talab qilish tabiiydir. Rahbarlar va xodimlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar sifatini oshirish barcha boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning eng muhim zahirasidir.

“Qaror qabul qilish” tushunchasi tor va keng ma’noda talqin qilinadi. Tor ma’noda, bu eng yaxshi yechimni tanlash va tasdiqlashga qaratilgan turli xil variantlarni aniqlash va tahlil qilishning yakuniy harakatidir.

Qaror qabul qilishdan asosiy maqsad tashkilot oldiga qo’yilgan vazifalar tomon harakatni ta’minlashdir.

Qarorlarni ishlab chiqish texnologiyasi ostida biz - kimga, nima, qachon, qaerda va nima qilish kerakligi yordamida batafsil ko’rsatib beruvchi menejerning axborotlarini, ma’lumotlarini, uning oldida paydo bo’lgan muammo yoki unga yuklangan vazifa to’g’risidagi ma’lumotlarni aniq ishlab chiqilgan yechimga aylantirish jarayonini tushunamiz[2].

Korxonalarda belgilangan asosiy maqsadga erishishda bir qator vazifalar belgilanib, ularni bajarish uchun korxona faoliyati doirasida qarorlar qabul qilinadi. Korxonada qaror qabul qilish jarayoniga bir qator omillar ta’sir etadi. Ushbu omillarni ikki guruhga ajratish mumkin: ichki va tashqi muhit omillari.

Korxonaning ichki muhit omillarini tahlil qilish korxona uchun quyidagi ahamiyatga ega: korxonaning ichki muhiti to’g’risidagi ma’lumotlar menejer uchun ichki imkoniyatlarni, korxona o’z maqsadlariga erishish uchun raqobatda tayanishi mumkin bo’lgan salohiyatni aniqlash uchun zarur; ichki muhitni tahlil qilish korxonaning maqsad va vazifalarini tushunishga imkon beradi; mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko’rsatish bilan bir qatorda, korxona o’z xodimlarining faoliyat ko’rsatishi uchun imkoniyat yaratadi, ularning hayoti uchun ma’lum ijtimoiy sharoitlar yaratadi [3].

Korxonalarda qaror qabul qilish va tadbiq etish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni - tashqi va ichki muhit omillariga ajratishimiz mumkin.

1-jadval

Korxonalarda qaror qabul qilish va tadbiq etish jarayoniga ta’sir etuvchi tashqi va ichki muhit omillari

T.R.	**Muhit**	**Omillar, elementlar**
1.	Ichki muhit	ishlab chiqarish, kadrlar, boshqaruvni tashkil etish, marketing, moliya va buxgalteriya hisobi
2.	Tashqi muhit	Yaqin va uzoq halqa
2.1.	Yaqin halqa	mijozlar, nazorat qiluvchi korxonalar, biznes hamkorlar, moliya-kredit institutlari, manfaatdor tashqi jismoniy va yuridik shaxslar, raqobatchilar, jamoatchilik, tegishli sohadagi qonunchilik bazasi
2.2.	Uzoq halqa	qadriyatlar tizimi va ularning jamiyatdagi ustuvorliklari; mahalliy va xalqaro biznes amaliyoti; mamlakat va dunyodagi siyosiy vaziyat; sanoat, mamlakat va dunyodagi iqtisodiy vaziyat; ijtimoiy va ekologik javobgarlik; soliq tizimi; institutsional tuzilma; tabiiy ofatlar; ommaviy tartibsizliklar; tashqi aloqalarni kriminallashtirish

Korxonaning ichki muhiti omillari - bu mavjud resurslarni bozorga taklif qilinadigan tovarlarga aylantiradigan jarayonlar to’plami. Ichki muhitning omillarini ikkita qismni ajratish mumkin: resurs qismi, operatsion qismi. Korxonaning resurs qismi - bu korxona o’z faoliyatini amalga oshirishi kerak bo’lgan resurslar to’plami hisoblanadi.

Korxona muvaffaqiyatli rivojlanish uchun doimiy ravishda o’z resurslari (intellektual, axborot, mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqalar)dan samarali foydalanish uchun mavjud va potentsial imkoniyatlarni aniqlashi kerak. Aynan shu resurslar korxonaning bozor salohiyatini tashkil qiladi. Ular har doim cheklangan bo’lib, miqdoriy va sifat jihatidan notekis rivojlangan bo’ladi.

Resurslarning bir turining rivojlanishi tashqi muhitdan ochilgan imkoniyat (ilm-fanni ko’p talab qiladigan mahsulotlar bozorida yuqori ilmiy-texnik salohiyat)larni kengayishini ifodalashi mumkin. Aksincha, biron bir manbaning yetishmasligi (moddiy resurslarning ishonchli ta’minoti yo’qligi) esa korxonaning mavjudligiga tahdid solib - ishlab chiqarishdagi uzilishlarga va buyurtmalarni bajarish

muddatlarining buzilishiga, potentsial mijozlar va bozor pozitsiyalarini yo’qotishiga olib kelishi mumkin [4].

Shulardan kelib chiqib, korxonaning asosiy vazifasi tashqi muhitda uning kuchli tomonlarini ta’kidlash orqali qulay imkoniyatlarni amalga oshirish va zaif tomonlarini zararsizlantirish orqali korxonaning mavjudligi va rivojlanishiga tashqi tahdidlarni cheklashdir. Uning samarali yechimi korxona boshqaruvining mazmunini belgilaydi.

Odatda, tashqi muhit korxona faoliyatiga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tadbiq etishdagi noaniqliklar va risklar darajasiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatadigan real hayot hodisalari va jarayonlari majmui sifatida qaraladi. Ushbu bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatadigan real hayot hodisalari va jarayonlari majmuini – tashqi va ichki muhit omillari deb ham yuritishimiz mumkin.

Korxonalar uchun tashqi muhit qatlami ikkita - yaqin va uzoq halqasidan iborat. Yaqin halqa korxona faoliyati munosabatlarini ikki tomonlama shartnomalar yoki bitimlar bilan tartibga solinadigan elementlarni o’z ichiga olib, ularga - mijozlar, nazorat qiluvchi korxonalar, biznes hamkorlar, moliya-kredit institutlari, manfaatdor tashqi jismoniy va yuridik shaxslar, raqobatchilar, jamoatchilik, tegishli sohadagi qonunchilik bazasini kiritishimiz mumkin.

Korxona tashqi muhitining uzoq halqasi uning bevosita ta’siri doirasidan tashqarida bo’lgan omillarni o’z ichiga oladi. Ularga - qadriyatlar tizimi va ularning jamiyatdagi ustuvorliklari; mahalliy va xalqaro biznes amaliyoti; mamlakat va dunyodagi siyosiy vaziyat; sanoat, mamlakat va dunyodagi iqtisodiy vaziyat; ijtimoiy va ekologik javobgarlik; soliq tizimi; institutsional tuzilma; tabiiy ofatlar; ommaviy tartibsizliklar; tashqi aloqalarni kriminallashtirish kabilarni kiritishimiz mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, korxonalarda qaror qabul qilish va uni amalga oshirish jarayoniga quyidagi muammolar salbiy ta’sir etadi:

- korxona rahbari o’z korxonasining ijtimoiy qadriyatlarga mos keladigan qadriyatlar tizimini shakllantirilmaganligi;
- tadbirkorlik odatlariga rioya qilish statistikasida salbiy sababalarni kuzatilishi;
- davlat hokimiyati organlariga ishonch darajasining pastligi; davlat hokimiyatining asosiy dasturlarini amalga oshirishda sustkashlik;
- iqtisodiy vaziyatning beqarorligi;
- inflyatsiya darajasi keskin o’zgarishi;
- investorlar uchun jozibadorlik darajasini pastligi;
- korxonaga xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar (fond, birja, sud, xavfsizlik firmalari) qo’shimcha xizmatlaridan qoniqmaslik;
- aholining bir qismining o’z ehtiyojlari va manfaatlaridan juda past darajada qoniqish darajasi;
- korruptsiyani mavjudligi va boshqa shu kabilar.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlarimizga tayangan holda quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

- korxonalarda qaror qabul qilish bu tizimdir;
- qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish jarayonini tanqidiy nuqtai-nazardan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir;
- qarorlar qabul qilish korxona faoliyati doirasiga, tamoyillariga, tashkil jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir;
- qaror qabul qilish va tadbiq etishda aniq maqsadni belgilash, shu maqsadga erishish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim;
- -qarorlar ijrosi korxonaning ichki va tashqi muhiti omillariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir;
- qarorlar ijrosi samaradorligini oshirish, ularni avvalgi amalga oshirilgan qarorlar bilan qiyosiy tahlillarini doimiy o'rganib borishga bog'liq.

Korxonalarda qarorlar qabul qilish va uni tadbiq etish samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- qarorlar qabul qilishva amalga oshirishda rivojlangan rentabelli korxonalar tajribasini chuqur o'rganish, amalga qo'llashga haakat qilish lozim;
- qaror qabul qilish jarayoni tajribali, tegishli boshqaruv jarayonlarida yuqori ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi kerak;
- qarorlar ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish ilmiy va amaliy to'la tahlil etilishi, tegishli tadqiot va izlanishlarga asoslangan bo'lishi kerak; taxminan ko'r-ko'rona qarorlar qabul qilishga yo'l qo'ymaslik lozim;
- qaror qabul qilish va ijro etish madaniyatini yuksaltirib borish maqsadga muvofiq va shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак.- Т.:Ўзбекистон, 2017.

2. Dedajanov Bahtiyor Nabijanovich, Nabiev Bobur Muxammadkosim o'g'li FOREIGN MANAGEMENT MODELS: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES https://naukaip.ru/wp-content/uploads/2021/05/%D0%9C%D0%9A-1109.pdf#page=17.

3. Чернышев М. А., Коротков Э. М., Солдатова И. Ю., Основы менеджмента. Изд.: ИТК "Дашков и К", НАУКА/ИНТЕРПЕРИОДИКА МАИК, Наука-Пресс 2006 г. https://port-u.ru/orgkakobiektupravleniya/vnutrennyayasreda#startOf

4. Колпаков В. М. Теория и практика принятия управленческих решений:Учеб. пособие. — 2_е изд., перераб. и доп. — К.: МАУП, 2004. —504 с.: ил. — Библиогр.: с. 247—251.

ELEKTROMAGNIT O‘ZGARTGICH PARAMETRLARI

Baratov Laziz Suyun o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti “Energetika va radioelektronika”
fakulteti “Energetika” kafedrasi assistenti
Majidov Xomitxon Orifxon o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti “Energetika va radioelektronika”
fakulteti “Elektr texnalogiya” kafedrasi assistenti

Annatatsiya: Elektromexanik o‘zgartgichlarning fizik asosi – o‘lchanayotgan tokning yordamchi magnit maydonlari yoki ferromagnit massalar bilan kuch o‘zaro ta’siriga asoslangan. Ular konstruksiyasining soddaligi, yuqori ishonchlilik, mutlaq avtonomlik, ko‘p chegaralilikni amalga oshirish, doimiy, o‘zgaruvchan va impulsi toklarni o‘lchashimkoniyati kabi qator afzalliklarga ega.

Kalit so‘zlar: Tok transfarmatorlari, Bir va uch fazali birlamchi toklarni to‘rt elementli datchiklari, Xoll effektiasosidagi datchik.

Xozirgi vaqtda 10 dan 5000 A gacha toklarda ishlaydigan sanoat EMTO‘larning ko‘pchiligi elektromexanik o‘lchash mexanizmi asosida tayyorlanadi. Elektr ta’minoti tizimining kombinatsiyalashtirilgan boshqaruv tizimlarida qo‘llaniladigan klassik birlamchi tok o‘zgartgichlarining ishlash tamoyillarini batafsilroq tahlil qilamiz.

Tok transfarmatorlari. Ushbu tur datchik – tok transformatorida uchta o‘zgartirish elementlari mavjud: Hozirgi vaqtda klassik tok o‘zgartirgichlari ikkilamchi o‘ramlari chiquvchi toklarining eng ko‘p qo‘llaniladigan qiymatlari – 1 va 5 A.

Transformatorlarning nominal tok (In), nominal kuchlanish (U_n), iste’molchining yuklamasiga bog‘lik bo‘lgan aniklik darajasiga qarab qabul kilinadi hamda elektrodinamik va termik turg‘unligiga (K_{din} va K_t) ko‘ra tekshirilib ko‘riladi. Elektrodinamik chidamlilik kuyidagi shart bajarilsagina sodir bo‘ladi:

$$K_{дин} \geq \frac{i_y}{\sqrt{2} \cdot I_{H1}} \qquad \text{ekи} \quad K_{дин} \cdot \sqrt{2} \cdot I_{H1} \geq i_y,$$

bu erda K_{din} - Transformatorlari uchun kataloglarda keltirilgan bo‘ladi;

In -tok transformatorining (o‘lchov transfarmatorlari) birlamchi chulg‘amining nominal toki. Tok transfarmatorlarining termik bardoshlik karraligi kataloglarda bir daqiqa davomiylik uchun beriladi

$$K_t \geq \frac{I_k \cdot \sqrt{t_k}}{I_{H1}} \qquad \text{ekи} \quad \left(I_{H1} \cdot K_t\right)^2 \geq {I_k}^2 \cdot t_k,$$

Qachonki tok transformatorining ikkilamchi chulg‘amidagi yuklama kuyidagi shartni bajarsa uning anikligi talab darajasida bo‘ladi:


$$S_{2H} \geq S_x,$$

Bunda S_{2n}- tok transformatorining ikkilamchichulg‘amning nominal yuklamasima’lumotnomalardakeltiriladi. Sx-tok transformatorining (o‘lchov transfarmatori) ikkilamchi chulg‘amining kuvvati (V.A)

$$S_x \approx I_{2H}^2 \cdot (r_n + r_c + r_k),$$

bu erdaI_{2n}- tok transformatori ikkilamchichulg‘amning nominal toki (I_{2n}=5A), r_n – ushbu chulg‘amga ulangan asboblar chulg‘amlarining aktiv karshiligi, r_s– transformator qarshiligini o‘lchashda ishlatiluvchi simlarning qarshiligi, r_k-kontaktlarining qarshiligi (r_k=0,1 Om), ikkilamchi chulg‘amdagi simlarning ko‘ndalang kesim yuzasi alyuminli o‘tkazgichlar uchun 2,5 mm^2, misli bo‘lgan o‘tkazgichlarda esa 1,5 mm^2 dan kam bo‘lmasligi talab etiladi.


Elektr ta’minoti tizimi toklari va quvvatini boshqarish zamonaviy elektron va mikroprotsessorli qurilmalari talablarini qoniqtirmaydi. CHunki bunda yuklamaning elektr quvvati bir necha yuz volt-amperga etadi, bu elektr ta’minoti tizimia qo‘shimcha mos elementlar va qurilmalar chiqishiga oraliq o‘zgartiruvchi transformatorlar sifatida ulanish zaruratini talab etadi.



2-rasm. Klassik tok transformatori.1 – magnit o‘zak, 2 - ikkilamchi chulg‘am - w_2, 3 –birlamchi tok o‘tkazgich-birlamchi chulg‘am - w_1.

Bir va uch fazali birlamchi toklarni to‘rt elementli datchiklari. Professor V. Kovalenkov yaratgan bir fazali to‘rt elementli magnit boshqariluvchi kontaktining-datchigi (gerkon) asosiy elementlari 3 – rasmda keltirilgan. Bir fazali to‘rt elementli birlamchi tok datchigida 4 - tok o‘tkazgich - birlamchi chulg‘amdan tok oqib o‘tganda 1 – qo‘zg‘aluvchi kontakt

2 – qo‘zg‘almas kontaktga ulanadi, tok oqishi to‘xtaganda 1 – kontakt 2 - kontaktdan uziladi.



3-rasm. Professor V. Kovalenkovning magnit boshqariluvchikontaktningasosiy elementlari:1-qo‘zg‘almas kontakt, 2-qo‘zgaluvchan kontakt, 3-magnit o‘zak, 4-tok o‘tkazgich - birlamchi chulg‘am, 5-izolyasiya.

Gerkon ko‘rinishidagi to‘rt elementli datchikda yordamchi – izolyasiyalovchi material sifatida 5-izolyasiyadan foydalaniladi.


SHunday qilib tok o‘zgartirgichlarining keng miqiyosda qo‘llanilishida toklarni o‘lchash quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: uch fazali elektr tarmog‘i elektroavtomatikasi va elektr ta’minoti tizimi elektr qurilmalari ish rejimini nazorat qilish; elektr energiyasi iste’molini boshqarish va hisobga olish; elektr ta’minoti tizimi elektr qurilmalari texnik xarakteristikalarini baholash (masalan, sinovlar paytida).

Tokning o‘zgarishi aniqligiga, tok o‘zgartirgichlar sinfi talablariga kelsak, ular juda xilma-xil. O‘zgarishlar xatoliklari 0,1…0,5 % dan oshmasligi kerak, masalan, elektr energiya iste’molini hisobga olish va nazorat qilishda, elektr ta’minoti tizimi elektr qurilmalari sinovlarida. Elektr ta’minoti tizimlari elektr qurilmalari tezkor nazorati va himoyasida elektr avtomatika elementlari va qurilmalari aniqligi juda yuqori bo‘lishi zarur.

Uch fazali toklar o‘zgartirgichlari yuklama kiruvchi signali qarshiligining o‘zgarishida amplitudali va burchakli xatoliklari kichik bo‘lishi; ishonchli bo‘lishi, vaqt va tashqi ta’sirlar asosiy xarakteristikasi stabilligini ta’minlashi, tez ishlashiga amal qilishi kerak.

Honeywell kompaniyasining o‘zgartirgichlari – tok datchiklari.

1-jadvalda mashhur Honeywell kompaniyasining eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘zgartirgichlari – tok datchiklari berilgan bo‘lib, ular doimiy, o‘zgaruvchan, impulsli toklarni o‘lchash va nazorat qilishga va teskari aloqa tizimini yaratish uchun mo‘ljallangan.



4-rasm.Xoll effektiasosidagi datchik.

Xoll effekti asosidagi datchiklar va elektromagnitli TTlar 1-jadvalda ko‘rinib turganidek, Honeywell kompaniyasining rezistiv o‘zgartirgichlari – tok datchiklari tarkibida rezistiv element mavjud va u o‘lchanayotgan zanjirga kiritilgan. Xoll effektiga asoslangan o‘zgartirgichlar magnit tizimi to‘yinganligi sababli katta toklarni

o‘lchashda yuqori aniqlikka ega, aniqligi cheklangan, narxi baland, qo‘shimcha quvvat manbalarini talab qiladi. 1-jadval

Honeywell kompaniyasi tok o‘zgartirgichlarining texnik xarakteristikalari

Asosiy ko‘rsatkichlar	Rezistiv o‘zgartirgichlar	Xoll d-li o‘zgartirgich	Elektromagnit TT
Aniqlik	0,02–0,5	0,02–0,5	0,2–1
Nostabil haroratda aniqlik	0,12–1	0,2–1	0,5–3
Katta toklarni o‘lchash, kA	0.1 gacha	20 gacha	200 gacha
Tok va kuchlanish orasidagi siljish	Do 20° gacha	0°	0°
Izolyasiya, Mom	0	1000	1000
Manbaiga ulanish	Kontaktli	Kontaktsiz	Kontaktsiz
AC/DC o‘lchash	AC/DC	AC/DC	Faqat AC
Narxi	Past	Baland	O‘rta
Iste’mol quvvati, VA	75	5	1

Honeywell kompaniyasining elektromagnit TTlari faqat o‘zgaruvchan tokni o‘lchash imkonini beradi va uncha katta bo‘lmagan chastota diapazoniga ega. Elektromagnit TTlarning afzalligi - quvvat va energiya yo‘qotishlarsiz, siljish kuchlanishi va tashqi quvvatdan foydalanish zarurati yo‘q, narxi va quvvat iste’moli past.

Shunday qilib, tok o‘zgartgichlarining ko‘plab turlari mavjud bo‘lsada, lekin elektr ta’minoti tizimida nazorat va boshqaruvda o‘zgartgichlarining optimal turini tanlash, ularning afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rib chiqish, ularni yangi turkumlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Elektromagnit tok o‘zgartgichlar tuzilmalarining dastlabki tahlili va ularning keltirilgan imkoniyatlarini nisbiy baholash shuni ko‘rsatdiki, elektr energetika tizimida reaktiv quvvatni boshqarish uchun tuzilma va uni tayyorlash texnologiyasining oddiyligi, yuqori ishonchliligi va tejamkorligi tufayli to‘la tok qiymatini kuchlanish ko‘rinishdagi chiqish signaliga o‘zgartiradigan KFIEMTO‘ (kengaytirilgan funksional imkoniyatli elektromagnit tokni kuchlanishga o‘zgartgichlar) eng istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Суюн Л. и др. РЕАКТИВ ҚУВВАТ МАНБАЛАРИНИ НАЗОРАТ ВА БОШҚАРУВИ ЎЗГАРТГИЧЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА ЎЗГАРТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ //INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED

TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 202-207.

2. Nikolay I. Starostin, Maksim V. Ryabko, Yurii K. Chamorovskii, Vladimir P. Gubin, Aleksandr I. Sazonov, Sergey K. Morshnev, Nikita M. Korotkov, “Interferometric Fiber-Optic Electric Current Sensor for Industrial Application”, Key Engineering Materials, vol.437, 314-318, 2010.

3. Siddikov I.X., Nazarov F.D., Anarbaev M., Xonturaev I. Prinsipы postroeniya preobrazovateley toka s rasshirennыmi funksionalnыmi vozmojnostyami / Opыt vnedreniya energosberegayuщix texnologii: Tez. dokl. Resp. konf. s uchastiem zarubejnыx predstaviteley. 8 aprelya 2010. -Tashkent, 2010.- S. 95.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.bilim.uz
3. www.matlab.com
4. www.honeywell.com
5. vd_lebedev@mail.ru

AVAZ O‘TAR IJODIDA MA’RIFATPARVARLIK

Shohista Shermamatova
QarDU talabasi
Ilmiy rahbar: **PhD G‘iyosiddin Shodmonov**

Annotatsiya: Maqolada Avaz O‘tar o‘g‘lining ma’rifatparvarlik mavzusidagi g‘azallaridan biri – “Maktab” radifli g‘azali tahlil qilingan. Sho‘ro davrida shoir ijodi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda, jumladan o‘quv adabiyotlarida ham shoirning mazkur g‘azali hukmron mafkura talabidan kelib chiqib bir yoqlama, yuzaki talqin qilingani va she’rlaridan sinfiy yondashuvda, siyosiy maqsadlarda foydalanilgani ma’lum. Lekin Avaz O‘tar lirikasini tahlil qilishda noto‘g‘ri yondashuvlar mustaqillik davrida yuzaga kelgan ayrim tadqiqot va o‘quv adabiyotlarida ham ko‘zga tashlanadi. Shu ma’noda ushbu g‘azalga bugungi kun nuqtai nazari bilan qayta murojaat qildik.

Kalit so‘zlar: davrlashtirish, ma’rifatparlik, talqin, maktab – maorif, jadidlar, sinfiylik, yosh xivaliklar, millatparvarlik.

Istiqlol bizga milliy til, milliy urf-odatlar, milliy tafakkur, bir so‘z bilan aytganda, milliy o‘zligimizni qaytardi. Buning natijasida millat tarixi asliga muvofiq tiklandi, buyuk ajdodlar xotirasi poklandi. Shu bilan birga, mustaqillik adabiyot tarixida chuqur iz qoldirgan ulug‘ allomalar, iste’dodli ijodkorlar nomi va asarlarini xalqqa qaytardi, ularning qoldirgan boy ma’naviy merosini hech qanday tazyiqsiz, o‘zgartirishlarsiz tadqiq qilishga, asl holicha o‘rganishga va o‘rgatishga yo‘l ochdi.

Shuni ham e’tirof qilish kerakki, garchi ko‘p hollarda siyosiy mafkura ta’siriga tushirish va sinfiy yondashishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ittifoq davrida ham adabiyotimiz tarixini o‘rganish, tadqiq va targ‘ib qilshda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Biz bu davridagi tadqiqotlar, ilmiy ishlarni hech kamsitmagan holda adabiy merosimizga bugungi ko‘z, bugungi tafakkur bilan qaramog‘imiz kerakligini ta’kidlamoqchimiz.

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov tomonidan: “Mumtoz adabiyot bilan hozirgi adabiyot o‘rtasida ko‘prik bo‘lgan davr. Yangi adabiyotning shakllanish davri”, – e’tirof etilgan milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti ham bugungi kun nuqtayi nazari bilan tadqiq etilishi lozim bo‘lgan davrlardan biridir. Bu davrda Xiva adabiy muhitining, uning rivojlanishiga esa katta hissa qo‘shgan ijodkorlar qatorida Avaz O‘tarning ham muhim o‘rni bor. Shu jihatdan, shoir ijodini qayta o‘rganishga, asarlarini tadqiq qilishga ehtiyoj bor.

Sho‘ro davridagi tadqiqotlar kuzatilganda, shoir she’riyatining quyidagicha talqinlari ko‘zga taahlanadi:

birinchidan, hukmron mafkura talabidan kelib chiqib ushbu she’rlar tub mohiyat, asl g‘oyadan maxsus uzoqlashtirildi;

ikkinchidan, ayrim she’rlar o‘ta sayoz talqin qilindi;

uchinchidan, shoir she’rlaridan sinfiy yondashuvda, siyosiy maqsadlarda foydalanildi.

Adabiyotshunos olim G‘ulom Karimov shoir ijodiy davrini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Avaz O‘tar ijodining ilk davri. Bu davr XIX asr oxirlaridan 1905- yilgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu vaqtlarda Avaz O‘tar yosh shoir sifatida izlanish, o‘rganish davrini boshidan kechirdi va ma’lum darajada saroy adabiyoti ta’sirida bo‘ldi.

2. Avaz O‘tarning 1905-yildan 1914-yilgacha bo‘lgan davrdagi ijodi. Bu davrda Avaz O‘tar klassik adabiyotning eng yaxshi taraditsiyalarini davom ettiruvchi demokrat shoir sifatida kamol topa boshlaydi.

Ahmad Yassaviy shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqatni kuylagan islom olamining buyuk mutafakkiridir. Buyuk shoir o‘z hikmatlarida kishilarni insofli, diyonatli, pok, to‘g‘ri hamda o‘zaro tinch-totuv aloqada bo‘lishga chaqiradi. Yassaviy hikmatlarini insoniyatni komillikka undovchi pandnomalar va vasiyatnomalar deb atash mumkin. U mazkur she’riy janrda qalam tebratdi va jahon adabiyotida birinchi marotaba hikmatlat kulliyotini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Oradan yillar o‘tib yozilgan she’riy parchalariga hikmat unvoni beriladi va kitob holiga keltiriladi. Boshidan o‘tgan taassurotlar natijasi hikmatlariga jo bo‘ladi:

Na onoda rahm qoldi, na otoda,
Og‘o ini bir-biriga mojaroda.
Musulmonlar da’vo qilur, ichur boda,
Mastlig‘ bilan qarindoshdin tondi, ko‘ring.

[11] Toji Qorayev. Tanlangan asarlar. Sharq yulduzi.1992-yil. 1-son.

Ijodkor hayoti va ijodi haqida muhim manbalar sifatida Hazrat Alisher Navoiyning mutasavvuf ijodkorlar haqida ma’lumot beruvchi “Nasoyim ul-muhabbat” asari tilga olinadi. Mazkur asarda Yassaviy haqida “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu ashobi g‘oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniy quddisa sirruhuning ashobidindur. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy bila quddisa sirruhu suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiy qaddasallohu ruhahul aziz bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoniy — rahimahullohu taolo muridlaridurlar, Imom qaysi biyik marotibg‘a yetibdurlar, musohib bo‘lubdur va ro‘zgor mashoyixidin ko‘p buzurgvorlar aning tarbiyatin topibdurlar va Shayx Raziyuddin Ali Lolo quddisa sirruhu Shayxi buzurgvor Shayx Najmuddin Kubro rahimahullohu xizmatig‘a yetardin burun Xoja Ahmad Yassaviy qaddasallohu ruhahul aziz xizmatida bo‘lub erdi va aning xonaqohida aning irshodi bila suluk qilibdur va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur voqe’ bo‘lubdur va Turkiston ahlining qiblai duosidur”[12] kabi qimmatli fikrlar keltiriladi. Shuningdek, XX asrning boshlarida Yassaviy haqidagi qator maqolalar chop etiladi. Ufada chiqadigan “Sho‘ro” jurnalining 1915-yil 24-sonida Ahmad Sardorning “Hazrat Xo‘ja Ahmad Yassaviy” sarlavhali maqolasi chop etildi. Unda adibning hayoti va ijodiga oid qisqagina ma’lumot berilgan va uning turk tilining mavqeini ko‘tarishdagi xizmatlariga yuksak baho berilgan. 1922-yilga kelib Abdurahmon Sa’diyning “Yassaviy kim edi” nomli maqolasi “Inqilob” jurnalining 2-sonida nashr etiladi. Muallif Yassaviyning tatar tili va adabiyoti taraqqiyotidagi o’rniga alohida e’tibor qaratgan. Shuningdek, Abdurauf Fitrat ham Yassaviyni o‘rganishga alohida e’tibor bilan qaragan. U “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida “Ahmad Yassaviy” va “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” nomli maqolalarini XX-asrning 20- yillarida yozgan edi. Jumladan, “Ahmad Yassaviy” maqolasida dastlab Yusuf Hamadoniy haqida to‘xtalib, Ahmad Yassaviyni Hamadoniyning uchinchi xalfasi va muridi sifatida tanishtirib, ijodkorning qachon tug‘ilgani noma’lumligi, ammo vafoti yili hijriy 562-yilda bo‘lganligini “Devoni hikmat” dagi quyidagi bayt isbotlashini aytib o‘tadi:

To‘rt yuz yildan keyin chiqib ummat bo‘lg‘ay,
Necha yillar yurib xalqqa xizmat qilg‘ay.

Ayni mana shu baytda Ahmad Yassaviy o’zining hijriy to‘rtinchi asrning ikkinchi yarmida tavallud topganiga ishora qiladi. Shuningdek, Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy hikmatlari, adabiy muhitga ta’siri, Yassaviy yashagan davrdagi muhit, mafkura, tasavvuf darajasi, “Hikmat”larning adabiy qiymati, Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida birma-bir to‘xtalib o‘tadi. Mazkur ma’lumotlarga tayangan holda

12

aytish mumkinki, o‘tgan so‘fiylar, adiblar va shoirlar orasida Yassaviy kabi o‘z ta’sirini keng ommaga singdira olgan bir shaxsni uchratib bo‘lmaydi. Markaziy Osiyoning shayx va so‘fiylari Ahmad Yassaviyni o‘zlariga ustoz deb bilganlar. Ahmad Yassaviydan keyin uning uslubida she’r yozish turkiy xalqlar orasida Fitrat ta’biri bilan aytganda “mo‘da”ga kiradi. Chin ma’noda Ahmad Yassaviy hikmat maktabi ta’sischisiga aylandi. Yosh ijodkorlar uslub, vazn, g‘oyaviy jihatdan Ahmad Yassaviyga aynan taqlid qilib, hikmatlar yaratishadi. Bu hikmatlar turk olimi Ko‘pruluzoda ma’lumotiga ko‘ra “jahr” kunlarida o‘qitilgan. Fitrat esa Mansur ota, Abdumalik ota, Toj Xo‘ja, Said ota, Sulaymon ota, Zangi ota, Uzun Hasan ota, Ismoil ota kabi shaxslarni o‘z maqolasida Yassaviyga maslakdosh sifatida tilga oladi. Ammo yuqorida nomlari tilga olingan shaxslardan faqatgina Sulaymon ota hikmatlari bugungi kun ijod ahli orasida mashhur bo‘lsa, hijriy 1263-yilda vafot etgan Azim Xo‘ja hikmatlari hijriy 1312-yilda Toshkentda “Hikmati eshoni Azim Xo‘ja” nomi bilan tosh bosmada chiqarilgan. Shuningdek, Ahmad Yassaviy maktabida yetishgan shoirlar haqida asarning Istanbul nusxasida Yusuf Bayzaviy, Qozon nusxasida esa Qul G‘arib taxallusi bilan ijod qilganlar tilga olinadi. Hatto tatarlar orasida mashhur bo‘lgan “Badavom” asarida ham Yassaviy uslubi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi[13]. Bugungi kun ilm ahliga sir emaski, ozariylarning mutasavvuf ijodkori Sayid Imodiddin Nasimiy, Turkman shoiri Maxtumquli ijodida ham Yassaviy nafasi ufurib turadi. Hakim ota haqida Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Hakim ota- oti Sulaymondir va Xoja Ahmad Yassaviyning muridididir. Hamonoki bir kun, Xoja tobxe (ovqat pishirish) buyurg‘ondurlarki, yozidin o‘tin terub kelturing va ul zamon yog‘in yog‘odur ekandur. As’habkim, o‘yun terubturlar, matbaxg‘a kelguncha yog‘in jihatidin o‘tunlar o‘l bo‘lg‘ondur. Hakim ota tergan o‘tunlarni to‘nig‘a chirmab, quruq kelturgondur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg‘a bu laqab andin qolg‘ondur va Hakim otag‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubtur. Andoqki, aning favoidi atrok arosida mashhurdir. Ul jumladin biri budurkim:

Tiki turg‘on to‘badir,
Borg‘onlarni yutadir.
Borg‘onlar kelmas bo‘ldi,
Magar manzil andadur[14].

Adabiyotshunos olim Fitratning ta’kidlashicha, Hakim Sulaymon ota Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi bo‘lib, ustozining ko‘rsatmasi bilan Xorazmga borib shayxlik qilgan. Hakim Sulaymon ota milodiy 1186-yilda vafot etgan bo‘lib, qabri Xorazmning Boqirg‘on degan hududida ekanligi, ko‘plab hikmatlar yaratganligi aytib o‘tiladi. Keyinchalik, 1906-yil Qozonda “Boqirg‘on kitobi” chop etiladi. Bu kitob

[13] Natan Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. –T:, O’qituvchi. 1965.

tarkibida Hakim otaning 36 parcha she’rlari o‘rin olgan. Shuningdek, bu kitobda Shams, Iqoniy, Qul Ubaydiy, Qul Ahmad kabi ijodkorlar hikmatlari keltiriladi. Abdurahmon Go‘zal o‘zining “Yassaviy faqrnomasi” nomli asarida Yassaviyning tanilgan xalifalari sirasiga esa Mansur Ota, So‘fiy Muhammad Donishmand Zarnuqiy, Sulaymon Hakim Ota, Bobo Mochin, Amir Ali Hakim, Luqmon Parranda, Imom Marg‘oziy, Hasan Bulg‘oriy, Shayx Usmon Marg‘ibiylarni tilga oladi. Jumladan, Bobo Mochin haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Bobo Mochin Yassaviydan ta’lim olishdan avval Xuroson eranlari orasida Yoshi ulug‘ bir valiy edi. Lekin besh yillik xilvat, arbayin, og‘ir riyozotlardan so‘ng Ahmad Yassaviy uni boshqa besh xalifasi bilan xalqning ta’lim-tarbiyasi uchun Xurosonga jo‘natib yuboradi. Bular Shayx Muhammad Bag‘dodiy, Sayfiddin Boxarziy, Shayx Komili Shayboniy, Shayx Saididin, Shayx Bahouddindir.[15] Shuningdek, Yassaviyning qipchoq turklari orasida ham xalifalari borligini Husomiddin bin Sharofiddinning 1584-1588-yillarda yozilgan “Risolayi tavorixi Bulg‘oriya” asaridagi ma’lumotlardan bilish mumkin. Bu risolada bir qancha eski shayxlar Xoja Ahmad Yassaviyning xalifasi sifatida zikr etiladi. Ulardan biri esa Temur bobodir. Ahmad Yassaviy har bir davrda e’zozlangan va hikmatlari e’tirofga sazovar bo‘lgan. Jahongir podshoh Amir Temur 1395-1397-yillarda Ahmad Yassaviyning eski qabri o‘rniga katta va muhtasham maqbara qurdirgan. Natan Mallayevning ma’lumotlariga ko‘ra, Qo‘qon xoni Amir Umarxon 1819-yil Turkistonni bosib olayotganida Yassaviy qabrini ziyorat qiladi. Qurbonlikka 70 ta qo‘y so‘ydiradi va shayxlarga in’om beradi. Yurtimizda YUNESCO tashkiloti qarori asosida 1993-yil Yassaviy yili deb e’lon qilingan.

Yassaviy ijodi nafaqat O‘rta Osiyoda, balki Qora dengiz sohillari bo‘yida ham chuqur o‘rganildi. Jumladan, turk professori Mahmud Jo‘shon Ahmad Yassaviy va uning jahon adabiyotidagi o‘rni haqida quyidagilarni yozadi: “Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari madaniyatimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelgan zabardast siymodir. U zot yassaviya tariqati asoschisi, murshidi komil, ko‘plab kamol sohiblarini ham tarbiyalab yetishtirgan. Xoja Ahmad Yassaviy tasavvuf tarixida muhim o‘rin tutib, xojagon sulolasidan Yusuf Hamadoniyning muridi bo‘lganligi bois, bir jihatdan naqshbandiylik silsilasining ham xalifalaridan hisoblanadi. Zotan Bahouddin Naqshband hazratlari Yassaviy tarbiyalagan ba’zi xalifalardan oylab, yillab tasavvufiy saboq olgan, demak, Xoja Ahmad Yassaviy naqshbandiylarning ham ma’naviy shayxidir. Yassaviyning ijtimoiy-tarixiy xizmatlaridan biri – minglab vatanparvar, millatparvar bahodir eranlarni voyaga yetkazdi. Adabiyot sohasida esa o‘zining hikmatlari bilan tasavvuf she’riyatida o‘chmas iz qoldirdi. Bir shoir:

Ikki jahonda tasarruf ahlidur ruh-i valiy,
Demakim u murdadir, andin necha darmon bo‘lgay…

[15] Abdurahmon Go‘zal.”Yassaviy faqrnoma”si.Toshkent.Navro‘z.2014

degan ekan. Ya’ni marhumning badani tuproq ostida, ammo ruhi boqiy. “Avliyoning ruhi esa ikki jahonda tasarruf sohibidir. Ahmad Yassaviy ham ana shunday tasarruf sohiblaridandur. Xoja Ahmad nasl jihatdan payg‘ambarimiz avlodidin bo‘lib, o‘z davrida insonlarni ilm-u ma’rifatga chaqirgan, odamlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan, odamiylik, adolat va mehr-u muhabbat g‘oyalarini ilgari surgan mutafakkir olim edi”.[16] Shuningdek, professor Umar Lutfiy Barkan o‘zining “Kolonizator turk darveshlari” nomli maqolasida insonparvar g‘oyalar uchun kurashgan Yassaviyning irfon olamini tasvirlab beradi. “Yassaviyning izdoshlari Onado‘li, Janubiy Yevropa, Osiyo diyorlarida unumli faoliyat ko‘rsatib, yassaviylik fikr-qarashlarini targ‘ib qilganlar. Mazkur mamlakatlar madaniyati rivojiga hissa qo‘shgan Yunus Emro, Hoji Bektoshi Valiy, Sulaymon Boqirg‘oniy va boshqa shoir-u adiblar Yassaviy maktabi ijodkorlaridir”.[17]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. Toshkent. Ma’naviyat. 17-39-betlar.
2. Toji Qorayev. Tanlangan asarlar. Yassaviy ixlosi. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi.
3. Natan Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. –T:, O’qituvchi. 1965.
4. Abdurahmon Go‘zal.Yassaviy faqrnomasi.Toshkent. Navro‘z. 2014. 15-18-betlar.
5. Turkiyada Yassaviyshunoslik.Qul Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi, tariqati mavzusida turk yassaviyshunoslari bilan o‘tkazilgan suhbatlar to‘plami.Toshkent. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1999. 5-10-betlar
6. M. Eshmuhamedova. “Devoni hikmat” qo‘lyozmalari tavsifi.Toshkent. ToshDSHI. 2003.5-6-betlar

Turkiyada Yassaviyshunoslik.Qul Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi, tariqati mavzusida turk yassaviyshunoslari bilan o‘tkazilgan suhbatlar to‘plami.Toshkent. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1999. 6-7-betlar.
[17] O'sha asar. 9-10-betlar.

«TUGUMI» ASARIDA QO‘LLANGAN XURSANDCHILIKNI IFODALOVCHI SIFATLAR SEMANTIKASI

Haydarova Umida
Sotvoldiyeva Husnida

Annotatsiya. Yapon tilida sifatlar o’ziga xos tuzilishga ega bo’lib, semantic maydoniga ham ko’ra o’zbek tilidan tubdan farq qiladi. Ushbu maqolada yapon tilida sifat so’z turkumi, xursandchilik ma’nosini ifodalovchi sifatlar sememasi hamda “Tugumi” asarida qo’llangan “ureshii”, “tanoshii” kabi sifatlarning ma’nolari aniqlangan.

Kalit so’zlar: “Tugumi”, sifatlar, ureshii, tanoshii, yorokobashii.

Kirish.

Jahon tilshunoslik morfologiyasida, boshqa so`z turkumlari qatori sifat ham katta o`rinni egallaydi va o`zining leksik-grammatik va semantik xususiyatlariga ko`ra mustaqil so`z turkumi sifatida ajratilgan. Sifat so`z turkumining ko`p sohalari ustida dissertatsiyalar yoqlandi, ilmiy maqolalar yozildi. Ayniqsa, keyingi yillarda sifat semantikasi, stilistik xususiyatini o`rganishga e’tibor kuchaydi. XX asrning 40-50 - yillarida bir qator olimlar tomonidan leksik ma’noning komponent strukturasi haqidagi fikrlar ilgari surildi. G.Xeller va J.Makris rang ifodalovchi leksemalarni o`rganar ekanlar, ular o`z tadqiqotlarida ma’noning semantik komponentlarini darajalaydilar. O`zbek tilshunosligida leksik ma’noni kompanentlardan iborat ekanligi dastlab SH.Rahmatullayev, I.Qo`chqortoyev, R.Yunusovlarning ishlarida ilgari surilgan. Uni tadqiq etishga bag`ishlangan yirik hajmdagi asarlar maydonga keldi. Shu tarzda sifat semaseologiya tilshunoslikning barcha sathlarida o`z o`rnini topa boshladi.

2. **Xursandchilik ma’nosini ifodalovchi sifatlarning qo’llanilish doirasi**

Yapon tilida ko'p sinonim sifatlar mavjud bo'lib, bunga xursandchilikni ifodalovchi “ureshii”, “tanoshii” hamda“yorokobashii” sifat sinonimlari misol bo‘la oladi. “Tanoshii” va “ureshii” hamda “yorokobashii”, –i ga tugashi sababli, (ikeiyoushi) sifati turiga kiradi. Y. Yamada (2009)ga ko’ra, istak va umid haqiqat bilan mos kelib, “ureshii” xursandchilikni tasvirlayotgan bir vaqtda, “tanoshii” hech qanday yomon va zerikarli narsalarsiz, yaxshi va quvnoq atmosferani ifodalasa, ”yorokobashii”esa “ureshii” sifatiga ma’no jihatidan juda yaqin ammo qo‘llanilish doiralari kengroqdir[18]. Shu kabi narsalar Yamada va Nishio fikricha, ureshii umid va istaklari amalga oshganidan baxtiyor his qilayotgan paytda. tanoshi mamnuniyat holati, hech qanday kamchiliklarsiz ijobiy qadr-qiymatni ifodalaydi[19].

[18] H. Yamada “KEIYOUSHINO TSUKAI KATA”, Kabushiki gaisha, 2009
[19]M. Nishio “Nihongono bunpo”, Kokusaikouryukikin, 2011

1. “Ureshii” mazmun jihatdan baxtli, xursandchilik bo'lgan (i-keiyoushii) sifati

turining tarkibiga kiradi. “Ureshii” sifati qandaydir vaqt davomidagi harakatga nisbatan xursandchilik emas, balki insonning umidlari ro‘yobi yoki natijaga nisbatan xursandchilik ma’nolarini bildiradi. Misol:

a) 誕生日にプレゼントを貰って嬉しかった。

Tug`ilgan kun sovg`asi olganimdan xursandman

Ushbu gapda aynan sovg`a olganligi sababli hursandchilik hissiyoti ifodalanmoqda.

b) 久しぶりに孫の顔を見ることが出来て、とても嬉しかった。

Uzoq kutilgan nabiramning yuzini korish nasib etganidan,juda xursandman

Yuqoridagi “ nabira ko’rish” uzoq vaqt mobaynida kutilgan umid yoki istak sanaladi.Natijaga nisbatan xursandchilik tuyg’usini ifodalab kelmoqda.

2. Tanoshii -i (i-keiyoushii) sifati turiga kiradi va baxtli, xursandchilik

mazmuniga ega. Tanoshii, biror faoliyat amalga oshirilayotgan vaziyat yoki vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan zavqni ifoda etish uchun ishlatiladi. Misollar:

c) 昨日は大きなプールで遊ぶことが出来て、楽しかった。

Kecha katta hovuzda suza olganimdan xursandman

d) 私は車が好きなので、運転をするのが楽しい。

Men mashinalarniyoqtirganim sababli,mashina bishqarish maroqli.

Yuqoridagi gapda mashina boshqarayotgan vaqt so‘zlovchi xursandchilik hissiyotini sezadi.

e) 私は家族と話しているときが一番楽しい。[20]

Oilam bilan suhbatlashgan vaqtim juda maroqlidir.

Bu yerda so‘zlovchi o‘z oilasi bilan suhbatlashgan vaqt u uchun xursandchilik ekaninini ta’kidlagan.

3. “Yorokobashii” sifati “i-keiyoushi” ya’ni “I shaklli sifat” sanaladi.

“Yorokobashii” sifati ham “ureshii” sifati singari xursandchilikni ifodalaydi, Ammo “yorokobashii” rasmiy nutq yoki uchinchi shaxs nuqtai nazaridan kelib chiqqan hollardayam foydalaniladi hamda hurmat ma’nolarini kuchaytiradi.

f) でもあなたが無事に元気にかえってこられて、こんな喜ばしいことはありません。

Lekin sening eson-omon qaytib kela olganing, bundanda quvontira oladigan narsa yo’q.

[20]前田富よし基 １９９３．「日本語の感情を表すことば」『日本語学』p97

g) 夜中の連絡が喜ばしいものではないことなんか、ずっと昔から知っている。

Yarim tunda qo‘ng‘iroq bo’lishi quvonarli ish emas ekanligi, avvaldan ma’lum.

4.**Yoshimoto Banananing “Tugumi” asarida foydalanilgan sifatlar semantikasi.**

Banana Yoshimoto — 1964-yil, 24-iyulda Yaponiyada tavvallud topgan bo’lib, asl ismi Mahoko Yoshimotodir. Mahoko Yoshimoto o‘z hududidagi 8-sonli o‘rta maktabga, so‘ng qo‘shni Itabashi tumanidagi o‘rta maktabga o‘qishga kiradi. Nerima shahridagi Yaponiya universitetining adabiyot fakultetini tamomlagan. Otasi - Takaaki Yoshimoto - adabiyotshunos, shoir, esseist, faylasuf, yoshlar davralarida diniy arbob bo’lgan bo’lsa, onasi - Kazuko Yoshimoto - shoira, bir nechta hayku to'plamlarini nashr etgan adabiyotga oshno ayollardan edi. Adabiy oilada o‘sgan Yoshimotoning aytishicha, u 5 yoshidan boshlab yoza boshlaydi. Uning „Oy soyasi“ nomli universitet bitiruvchilik dissertatsiyasi fakultet dekanining mukofotiga sazovor bo‘ladi. Bu, o‘z so‘zlari bilan aytganda, unga o‘ziga ishonch bag‘ishlaydi va kasbiy faoliyatni tanlashiga sabab bo‘ladi. U o‘zining dastlabki asarini Banana Yoshimoto taxallusi ostida nashr ettirdi. Banana taxallusini tanlashiga yozuvchining banan gullarini yaxshi ko’rishi sabab bo’lgan. Dastlab, taxallusini iyeroglifda yozilgan bo’lsa-da, ammo Yoshimoto 2003-yilda butunlay o’ziga xoslikka erishish maqsadida Banana taxallusini faqatgina harflar asosida yozishni boshladi. Yozuvchining rasman asar sifatida chop etilgan birinchi romani „Oshxona“ asari yozuvchiga chin ma’noda mashhurlik hadya qildi va u bir vaqtning o‘zida uchta mukofotga sazovor bo‘ldi: 1987-yil noyabr oyida eng yaxshi debyut uchun Kaien jurnali mukofoti, 1988-yil yanvar oyida Kyoka Izumi adabiy mukofoti va avgust oyida Ta’lim vazirligining tavsiyanoma mukofotlari. Hozirda u eng mashhur asar bo‘lib, ko‘plab tillarga tarjima qilingan va dunyoning 20ta mamlakatida sotilgan. Banana Yoshimotoning adabiy asarlarini 20 dan ortiq romanlar, qisqa hikoyalar va insholar, shuningdek, bir nechta hammualliflik ishlari tashkil etadi.

“つぐみ” asarida qo’llangan xursandchilikni ifodalovchi sifatlar

(Jadval 2)

N:	Asarda qo’llangan sifatlar	Sifatlarning ma’nolari
1	ここでの毎日もまた、とても楽しい。9	Tanoshii -i (i-keiyoushii) sifati turiga kiradi va baxtli, xursandchilik mazmuniga ega. Tanoshii, biror faoliyat amalga oshirilayotgan vaziyat yoki vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan zavqni ifoda etish uchun ishlatiladi. “Bugun yana juda ham zavqli”

2	そのころ、私も、母も、「ついに東京へ移る」うきうきと明るい予感でいっぱいだった。27	Berilgan gapda “akarui” sifati qo’llangan bo’lib, asl ma’nosi holatga nisbata “yorug’, ochiq” ma’nolarida qo’llanadi va gapda yorqin hissiyot, ya’ni xursandlik ma’nosini ifodalab kelgan.
3	母がけろりと明るいからこそ、父もまめに通う気になり、母をあきらめなかったのだと思う。28	Berilgan gapda “akarui” sifati qo’llangan bo’lib, asl ma’nosi holatga nisbatan “yorug’, ochiq” ma’nolarida qo’llanadi va gapda ochiq yuz, xush kayfiyat, ya’ni xursandlik ma’nosini ifodalab kelgan.
4	それは、私にとってとても喜ばしいことだった。29	Yorokobashii sifati asosan rasmiy uslubda qo’llanilishiga qaramay, gapda hurmat ma’nosi va xursandchilik kayfiyatini ifodalab kelgan.
5	私はどちらとも仲が良くそれがなんとなく心にひっかかっていたから、この地を去るにあたり両者の和解が成立して嬉しかった。30	Ureshii” mazmun jihatdan baxtli, xursandchilik bo'lgan (i-keiyoushii) sifati turining tarkibiga kiradi. “Ureshii” sifati qandaydir vaqt davomidagi harakatga nisbatan xursandchilik emas, balki insonning umidlari ro ‘yobi yoki natijaga nisbatan xursandchilik ma’nolarini bildiradi

Xulosa.

Yoshimoto Banananing yana bir mashhur asari “Tsugumi” og’ir kasal o’smir qiz hayoti haqida hikoya qiladi, asar yozuvchi an’anasiga muvofiq xastalik va o’lim kabi voqealar bilan boshlanadi, ammo ayni shu kabi qayg’ular orasida ham zavqli mashg’ulot va baxtli hissiyotlar borligini ko’rsatib bera oladi. Asarning 19 o’rnida qo’llangan “tanoshii” sifati, asosan, biror faoliyat amalga oshirilayotgan vaziyatga nisbatan zavqlilikni bildiradi hamda qiziq tomoni shundaki, ayni asarda qo’llangan xursandchilik ma’nosini ifodalab kelgan sifatlar orqali asarning mohiyatini qaysidir ma’noda anglash qiyin emas. Asarning dastlabki qismlarida “tanoshii” sifatiga ko’p bor murojaat qilingan va og’ir hastalikka chalingan qiz va uning yaqinlarining hayoti

dastlab zavqli faoliyat boshlash bilan boshlanib, yakunida baxtli hissiyotlar bilan yakun topadi, ya’ni asarning keying o’rinlarida “ureshii”(9) sifatini ko’plab uchratish mumkin. Qolaversa, “yorokobashii” xursandchilik ma’nosini ifodalovchi sifatni ham sifat, ham sifatdosh shaklida uchratish mumkin. Bundan tashqari, Yoshimoto Banana *“atsui”(issiq) sifatini gapda qo’llash orqali, yuragida jo’sh urgan iliq hissiyotlarni ifodalagan va “atsui” sifatiga xursandlik ma’nosini yuklagan. Shuningdek, asarda “koufuku”, “ii”, “saiwai” kabi bir qator matnli sinonim asosida xursandchilik ma’nosini ifodalovchi sifatlar ham qo’llangan. Tahlil natijasida yozuvchining xursandchilik ma’nosiga ega sifatlarni qo’llashi orqali, hayot har qanday paytlarda ham zavq va baxtga to’la ekanini, faqat uni yaratish inson hissiyotlari va faoliyatiga daxldor ekani aniqlandi.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. H. Yamada “KEIYOUSHINO TSUKAI KATA”, Kabushiki gaisha, 2009
2. M. Nishio “Nihongono bunpo”, Kokusaikouryukikin, 2011
3. Yunusova, Z., & Haydarova, U. (2022). The Semantics and Use of the Verb „Open “in Different Spheres of Uzbek Language. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(5), 121-123.
4. Haydarova, U., & Mo’minova, G. (2022). KOGNITIV LINGVISTIKADA METAFORA MASALASI VA ULARNING YAPON MUMTOZ MANBALARIDA IFODALANISHI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *2*(6), 59-63.
5. Sotvoldiyeva, H., & Haydarova, U. (2023). YOSHIMOTO BANANA ASARLARIDA XURSANDCHILIK MA'NOSINI IFODALOVCHI SIFATLAR SEMANTIKASI. *Interpretation and researches*, *2*(3).
6. Umida, H. (2022). INGIZ ADABIYOTIDA SUV KONSEPTI (UILYAM SHEKSPIR ASARLARI MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, (1), 26-29.

THE RELATION OF THE LEGAL WORLD WITH LANGUAGE

Nizomova Taxmina Jamoliddin qizi
Master's student of English linguistics
Uzbekistan State World Languages University

Abstract: In this article, we will consider the problems that exist in the field of legal linguistics, particularly related to the inconsistent and fragmented nature of research from a linguistic and legal perspective. In addition, the definition of the legal language, its place in the language system, as well as the legal world, law, etc. are separately explained. In the article, we can see that the legal language is described in two ways, that is, linguistically and legally.

Key words: legal world, legal language, legal linguistics (linguistics).

Nowadays, legal linguistics can be considered as an independent field of science. However, despite the huge volume of scientific works on this topic, the terminology of this field of scientific research is inconsistent, diverse and very unstable. There is no single definition of the fields that interest us in this scientific topic, and when we come across such terms as "legal world", "legal language" and "legal language" in academic literature, it is necessary to distinguish between such legal terms.

Like most interdisciplinary research, research in legal linguistics faces the problem of using the terminology of two disciplines: law and linguistics. We believe that before describing the relationship of the legal world with language, it is appropriate to describe it by considering the aspects of "law", "language" and their interrelationship.

Analysis of literature on the topic

The first studies in this field were conducted in Germany at the beginning of the 19th century. However, attempts to create a unified approach were made only in the second half of the twentieth century. Since then, the issues of interaction between language and law have been regularly discussed in the works of domestic and foreign jurists and linguists. Today we can talk about the existence of an independent interdisciplinary scientific field. At the same time, the process of forming a new field of science is accompanied by a number of difficulties: the instability of the terminological base, its object, subject, tasks, methods, boundaries, etc.

Law is one of the unique social values that humanity has discovered during its long historical civilization. It is manifested in various stages of the development of the society with its following rich aspects and aspects:

1. Law is the criterion of truth and justice;
2. The standard of freedom;

3. Symbol and measure of equality;

4. Normative expression of the will of the government and society;

5. Confirmation of strict procedure;

6. Means of ensuring legal interests in society;

7. Guarantee of stability and security;

8. A means of limiting violence and aggression (a means of legalizing and ensuring exploitation and violence in some historical periods);

9. A coercive measure for the welfare of the state and society (sometimes for the purpose of totalitarian persecution);

10. It is characterized by the factor of punishing the offender and many other qualities and characteristics. [State and law theory. Textbook. - Tashkent. "Adolat", 2018.]

Law is a system of living rules adopted or approved by the state that regulates social relations in society, determines the vital activities of citizens. Law is expressed at the level of law. Russian scientist S.S. According to Alekseev, law is a system of universally binding norms of law, which is established in laws or other sources recognized by the state and serves as a basis for defining legally permissible and legally impermissible, prohibited behavior [Alekseev S.S. Pravo: alphabet - theory - philosophy: Opyt kompleksnogo issledovaniya. - M., 1999. - p. 58.]

In our opinion, law is a system of living rules formalized by the state, which regulates social relations in society, determines the conduct, behavior, and basic life activities of citizens. Eastern thinker, encyclopedist Abu Nasr al-Farabi understood law as a means for virtuous people to achieve true happiness. Law, in his opinion, is a tool to ensure peace and security in the country, conditions for development, creation of opportunities for creative work, a tool to control passions, and a tool to protect and preserve a person. Law is a regulator of social relations, a system of normative rules based on the ideas of justice and freedom expressed in legal documents. This conclusion is based on the following methodological idea: "Law is a means of achieving social order based on social harmony and agreement, creating freedom, justice and equality" [Karimov I.A. Homeland is as sacred as a place of worship. T.3. - T.: "Uzbekistan", 1996. - page 20]

The purpose of the study

The purpose of the study is to analyze the perspectives available in legal linguistics in relation to the definition of legal language and its place in the language system.

Research methodology

Analytical comparison, logical and comparative analysis, grouping methods and research works of foreign and local scientists on the subject were widely used in this research.

Analysis and results

Since the concept of the legal world is closely related to the concept of "law", we must first understand the meaning of the word "law". Law is a system of generally binding social norms established or approved by the state. It includes legal relations and basic rights of the citizen, which are strengthened, guaranteed and protected by the state.

Law is the main factor in ensuring the development, peace and integrity of every state and society, maintaining the internal order of the state, ensuring the equality of citizens, regulating the activities of state and non-state organizations in society, and in general, in the administration of every state. For this reason, understanding the law is an important task not only for lawyers, but also for representatives of other fields. Because it is very important for any society to have activities based on a certain order in every aspect of life.

Since any state and society is made up of people, human rights are important for that state and society. Human rights are defined as the right to independence, freedom of thought, freedom of speech, justice, equality and respect, regardless of where and how people live, what they believe. Everyone has these rights, but these rights can be limited if a person commits certain violations.

The use of language is essential to any body of general law. Governments naturally use language to make laws, and laws must be tailored to the specific purpose of the dispute over the effects of that use of language.

Language is a rule-based system of symbols used for communication. Laws and legal concepts encoded in language can only be accessed through language. Police interviews and court cases are conducted through language.

Relations between partners in contracts are also related to language. The law exercises its control through language. Language acts as a medium used to transmit a message from a sender to a receiver. A common ground is needed for a dialogue. [The Stanford Encyclopedia of Philosophy (Spring 2022 Edition), Edward N. Zalta (ed.)]

The use of language is crucial for any legal system, not only for politics in general, but also in two distinct ways. Legislators characteristically use language to legislate, and the law must provide for competent resolution of disputes over the consequences of that use of language.

In this sense, modern sociolinguistics is required not only to explain the nature of linguistics, but also to show ways of their effective use. It is in the lexicon of the legal system that it is possible to use the specialized, specialized new meanings of the words amnesty, bail, suspect, suspect, executioner, work, event, appropriation to enrich the literary language and expand the possibilities of official style. [https://www.legalserviceindia.com]

What is the relationship between the language used to create legal standards and the law itself? If the statute provides that the form of the words determines the content of the standard (for example, the term of a contract or a criminal tort or the duty of an executor of a will), what effect does the use of words have? If there are no general theories, there is no general answer to the question. The theory of the meaning and interpretation of the legal language is much less than the theory of the meaning and interpretation of the language, that is, it will not be general.

The concept of the legal world can be understood in two different ways: narrow and broad. In the narrow sense, a specific field of science, that is, everything related to law, for example, legal literature, legal documents, legal websites, in short, which provides an opportunity to obtain information about law and the law and to use legal services, or can be understood as a condition and situation involving legal processes in general.

In a broad sense, this concept can be understood differently by everyone. Some say that it is an initial situation that leads to and serves as an introduction to the legal process, while others say that this concept can only be classified according to the process of its use in context.

In general, the legal world is a society, state or territory where the rule of law is established. In other words, every action is carried out within the framework of the law, based on the rights and interests of individuals. Therefore, such a place is called a legal world. The concept of "legal world" or "legal society" includes everything related to the category of legal laws, legal systems, legal institutions, legal professionals and legal culture that govern and regulate society. This concept includes legislation, court systems, legal service, representation, lawyers and judicial remedies, legal education and academic research, as well as the social norms and values that shape the legal system.

"Legal world" or "legal society" is important in shaping social, political and economic structures, protecting the rights of individuals and ensuring justice. This system has a profound impact on private and public life, from commercial practices and contractual relationships, to criminal law and human rights, affecting countries.

"Legal world" or "legal society" is a general concept that represents a set of serious and multi-layered legal laws, institutions and culture that form the legal system of a given society. It should be noted that instead of the concept of "legal world" the terms "legal state" or, as noted above, "legal society" are also used in the same sense.




Figure 1. Areas covered by the legal world (elements of the legal world).

However, in our opinion, "legal world" is a broader concept than "legal society", "legal state" and "legal language" and includes all of them.

Therefore, "legal world" is a very broad concept. It cannot be understood or accepted as space, time, or some norms. Similarly, we can consider "legal language", legal text as a branch of linguistics.

The fact that legal language uses different styles in its activity, uses specific linguistic tools to perform communication tasks, as well as the connection with these styles, and that we cannot identify legal language with a certain style or it has its own it is understood that we assume that it represents a functional style separate from itself.

We can offer the following definition of legal language: a sign system designed to express the informational component of the legal system, which provides communication between the participants of creative, practical, scientific and educational activities and legal relations. (Figure 2)



Figure 2. Elements of legal language.

Conclusions and suggestions

In conclusion, we can say that the "legal world" is a comprehensive field that includes all elements related to law.

"Legal language" is a system that provides communication between participants of legal relations (in scientific, practical, creative and educational activities). Also, "legal language" is a part of both linguistics and the legal field, i.e., a part of both, and it can be viewed from both the linguistic and the linguistic point of view. Therefore, the connection between "legal world" and "language" is expressed by the fact that "legal language" is an internal part of both spheres.

Conclusions and suggestions

In conclusion, we can say that the "legal world" is a comprehensive field that includes all elements related to law.

"Legal language" is a system that provides communication between participants of legal relations (in scientific, practical, creative and educational activities). Also, "legal language" is a part of both linguistics and the legal field, i.e., a part of both, and it can be viewed from both the linguistic and the linguistic point of view. Therefore, the connection between "legal world" and "language" is expressed by the fact that "legal language" is an internal part of both spheres.

Reference:

1. Theory of the state and law. Textbook. - Tashkent. "Justice", 2018.

2. Karimov I.A. Homeland is as sacred as a place of worship. T.3. - T.: "Uzbekistan", 1996. - p. 20.

3. Alekseev S.S. Pravo: alphabet - theory - philosophy: Opyt kompleksnogo issledovaniya. - M., 1999. - Page 58.

4. The Stanford Encyclopedia of Philosophy (Spring 2022 Edition), Edward N. Zalta (ed.)

5.https://www.legalserviceindia.com.

6.https://plato.stanford.edu/entries/law-language/

BA’ZI RATSIONAL FUNKSIYALARNI INTEGRALLASHDA OSTRAGRADSKIY USULIDAN FOYDALANISH

Po‘latov Baxtiyor Sobirovich
O‘zbekiston Milliy universiteteti Jizzax filiali katta o‘qituvchisi
Ibrohimov Javohir Bahrom o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteteti Jizzax filiali assistenti
Mamarashidov Sharofjon,
Toyloqova Nigora, Avalboyeva Zilola Sharipova
O‘zbekiston Milliy universiteteti Jizzax filiali talabalari

Annotatsiya: Bizga ma’lumki murakkab ko’rinishdagi ratsional kasrlarning integralini hisoblashning bir nechta usullari bor. Masalan: Xevisayd usuli, Gorner sxemasi, differensiallashdan foydalanish usullari. Berilgan ratsional funksiyaning ko’rinishi va holatidan kelib chiqib eng qulay usuldan foydalanamiz. Ushbu $\frac{P(x)}{Q(x)}$ to‘g‘ri kasrning maxraji karrali kompleks ildizlarga ega bo‘lganda, uni integrallashda, murakkab hisoblashlarga to‘g‘ri keladi. Buni hal qilish uchun bizga Ostragradskiy formulasiyordam beradi.

Kalit so‘zlar. Ostragradskiy formulasi, integral, ko‘phad, EKUB, ratsional kasr, differensial, koeffisiyent.

Bizga berilgan

$$\frac{P(x)}{Q(x)}$$

to‘g‘ri kasrning maxraji karrali kompleks ildizlarga ega bo‘lganda, uni integrallashda, quyidagi

$$\int \frac{P(x)}{Q(x)}dx = \frac{P_1(x)}{Q_1(x)} + \int \frac{P_2(x)}{Q_2(x)}dx \qquad (1)$$

Ostragradskiy formulasidan foydalanish qulay bo‘ladi, bunda $Q_2(x)$ −ildizlari $Q(x)$ ko‘phadning hamma sodda (bir karrali) ildizlaridan iborat bo‘lgan ko‘phad, $Q(x) = Q_1(x) \cdot Q_2(x)$ $P_1(x)$ va $P_2(x)$ lar noma’lum koeffisiyentli ko‘phadlar bo‘lib, $\frac{P_1(x)}{Q_1(x)}$ va $\frac{P_2(x)}{Q_2(x)}$ − to‘g‘ri kasrlardan iborat.

$P_1(x)$ va $P_2(x)$ ko‘phadlarni topish uchun, ularni noma’lum koeffisiyentlar yordamida yozib olib, so‘ngra (1) ning ikkala tomonini differensiallaymiz, natijada (1) tenglikka teng kuchli

$$\frac{P(x)}{Q(x)} = \left(\frac{P_1(x)}{Q_1(x)}\right)' + \frac{P_2(x)}{Q_2(x)} \qquad (2)$$

tenglikga ega bo‘lamiz. Bu tenglikdan noma’lum koeffisiyentlar usulidan foydalanib, $P_1(x)\ va\ P_2(x)$ larning tarkibidagi noma’lum koeffisiyentlarni topamiz.

Ostragradskiy formulasi, integralning ratsional qismini (integrallamasdan) ajratishga imkon beradi, $\frac{P(x)}{Q(x)}$ to‘g‘ri kasrni integrallash masalasi, unga nisbatan osonroq integrallanadigan $\frac{P_2(x)}{Q_2(x)}$ to‘g‘ri kasrni integrallashga keltiriladi.

Misol. Ushbu $\int \frac{x^2+3x-2}{(x-1)(x^2+x+1)^2}dx$ integralni hisoblang.

Yechilishi. Bu holda $P(x)=x^2+3x-2$, $Q(x)=(x-1)\cdot(x^2+x+1)^2$.

$P_1(x)\ va\ P_2(x)$ ko‘phadlarning tartibi $Q_1(x)\ va\ Q_2(x)$ ko‘phadlarning tartibidan bittaga kam bo‘lgan noma’lum koeffisiyentli ko‘phadlardan iborat. $Q_1(x)$ ko‘phadni $Q(x)va\ Q'(x)$ ko‘phadlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi orqali topamiz. Bunda $Q_1(x)=x^2+x+1$, $Q_2(x)=(x-1)\cdot(x^2+x+1)$, $P_1(x)=Ax+B$ va $P_2(x)=Cx^2+Dx+K$. (**1**) formulaga asosan,

$$\int \frac{x^2+3x-2}{(x-1)(x^2+x+1)^2}dx=\frac{Ax+B}{x^2+x+1}+\int \frac{Cx^2+Dx+K}{(x-1)\cdot(x^2+x+1)}dx \quad (3)$$

deb yozib olamiz. A, B,C, D, K noma’lum koeffisiyentlarni topish uchun (3) tenglikning ikkala tomonini differensiallaymiz:

$$\frac{x^2+3x-2}{(x-1)(x^2+x+1)^2}=\left(\frac{Ax+B}{x^2+x+1}\right)'+\frac{Cx^2+Dx+K}{(x-1)\cdot(x^2+x+1)},$$

$$\frac{x^2+3x-2}{(x-1)(x^2+x+1)^2}=\frac{A(x^2+x+1)-(Ax+B)(2x+1)}{(x^2+x+1)^2}+\frac{Cx^2+Dx+k}{(x-1)(x^2+x+1)},$$

bundan

$$x^2+3x-2=A(x-1)(x^2+x+1)-(x-1)(Ax+B)(2x+1)+$$
$$+(Cx^2+Dx+k)(x^2+x+1).$$

Tenglikning ikkala tomonidagi x ning bir xil darajalari oldidagi koeffisiyentlarni tenglashtiramiz:

$$\begin{cases} C=0 \\ -A+C+D=0 \\ A-2B+C+D+K=1 \\ A+B+D+K=3 \\ -A+B+K=2 \end{cases} \quad (4)$$

tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Bu sistemadan $A=\frac{5}{3}$, $B=\frac{2}{3}$, $C=0$, $D=\frac{5}{3}$ va $K=-1$ larni topamiz. Topilgan koeffisiyentlarni (3) ga qo‘yamiz.

Natijada

$$\int \frac{x^2+3x-2}{(x-1)(x^2+x+1)^2}dx=\frac{\frac{5}{3}x+\frac{2}{3}}{x^2+x+1}+\int \frac{\frac{5}{3}x-1}{x^3-1}dx \quad (5)$$

tenglikni hosil qilamiz. (5) tenglikning o‘ng tomonidagi $\int \frac{\frac{5}{3}x-1}{x^3-1}dx$ integralni hisoblash uchun sodda kasrlarga yoyamiz

$$\frac{1}{3}\int \frac{5x-3}{x^3-1}dx = \frac{1}{3}\int \frac{5x-5+2}{x^3-1\cdot}dx =$$

$$= \frac{5}{3}\int \frac{x-1}{(x-1)(x^2+x+1)}dx + \frac{2}{3}\int \frac{dx}{(x-1)(x^2+x+1)}$$

$$= \frac{5}{3}\int \frac{d\left(x+\frac{1}{2}\right)}{\left(x+\frac{1}{2}\right)^2+\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2} + \frac{2}{3}\left(\int \frac{M}{x-1}dx + \int \frac{Nx+4}{x^2+x+1}dx\right) =$$

$$\int \frac{d\left(x+\frac{1}{2}\right)}{\left(x+\frac{1}{2}\right)^2+\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2} = \int \frac{dt}{t^2+\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2} = \frac{\frac{\sqrt{3}}{2}}{\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2}\cdot\int \frac{d\left(t\cdot\frac{2}{\sqrt{3}}\right)}{\left(\frac{2t}{\sqrt{3}}\right)^2+1} = \frac{\frac{\sqrt{3}}{2}}{\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2}\cdot\int \frac{1}{1+y^2}dy =$$

$$\frac{1}{\frac{\sqrt{3}}{2}} arctg\, y = \frac{2}{\sqrt{3}} arctg\frac{2t}{\sqrt{3}} = \frac{2}{\sqrt{3}} arctg\frac{2}{\sqrt{3}}\left(x+\frac{1}{2}\right) = \frac{2}{\sqrt{3}} arctg\left(\frac{2}{\sqrt{3}}x+\frac{1}{\sqrt{3}}\right);$$

$$\frac{1}{(x-1)(x^2+x+1)} = \frac{M}{x-1} + \frac{Nx+L}{x^2+x+1};$$

$$Mx^2+Mx+M+Nx^2-Nx+Lx-L=1;$$

$$\begin{cases} M+N=0 \\ M-N+L=0 \\ M-L=1 \end{cases} => \begin{cases} M=-N \\ -2N=-L \\ M-L=1 \end{cases} => \begin{cases} M=-N \\ L=2N \\ -N-2N=1 \end{cases} => , N=-\frac{1}{3}, M=\frac{1}{3}, L=-\frac{2}{3};$$

$$= \frac{5}{3}\cdot\frac{2}{\sqrt{3}}\text{arctg}\left(\frac{2x+1}{\sqrt{3}}\right) + \frac{2}{3}\left(\frac{1}{3}\ln|x-1| + \int \frac{-\frac{1}{3}x-\frac{2}{3}}{x^2+x+1}dx\right) = \frac{10}{3\sqrt{3}}\text{arctg}\left(\frac{2x+1}{\sqrt{3}}\right) +$$

$$\frac{2}{3}\left(\frac{1}{2}\ln|x-1| - \frac{1}{3}\int \frac{x+2}{x^2+x+1}dx\right) =>,$$

$$\frac{1}{2}\int \frac{2x+4}{x^2+x+1}dx = \frac{1}{2}\int \frac{2x+1}{x^2+x+1}dx + \frac{1}{2}\int \frac{3}{x^2+x+1}dx$$

$$= \frac{1}{2}\int \frac{d(x^2+x+1)}{x^2+x+1} + \frac{3}{2}\int \frac{dx}{x^2+x+1} =$$

$$= \frac{1}{2}ln|x^2+x+1| + \frac{3}{2}\int \frac{d\left(x+\frac{1}{2}\right)}{\left(x+\frac{1}{2}\right)^2+\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2} = \frac{1}{2}ln|x^2+x+1| + \frac{3}{2}\int \frac{dm}{m^2+\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2} =$$

$$\frac{1}{2}ln|x^2+x+1| + \frac{3\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)}{2\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2}\int \frac{d\left(\frac{2}{\sqrt{3}}m\right)}{\left(\frac{2m}{\sqrt{3}}\right)^2+1} = \frac{1}{2}ln|x^2+x+1| + \sqrt{3}\,arctg\left(\frac{2}{\sqrt{3}}m\right) =$$

$$= \frac{1}{2}ln|x^2+x+1| + \sqrt{3}\,arctg\frac{2}{\sqrt{3}}\left(x+\frac{1}{2}\right) =$$

$$= \frac{1}{2} ln|x^2 + x + 1| + \sqrt{3}\, arctg\left(\frac{2x}{\sqrt{3}} + \frac{2}{2\sqrt{3}}\right) = \frac{1}{2} ln|x^2 + x + 1| + \sqrt{3}\, arctg\left(\frac{2x+1}{2\sqrt{3}}\right),$$

Demak

$$\int \frac{\frac{5}{3}x-1}{x^3-1} dx = \frac{10}{3\sqrt{3}} \operatorname{arctg} \frac{2x+1}{\sqrt{3}} + \frac{2}{9} \ln|x-1| - \frac{2}{9} \cdot \frac{1}{2} \ln|x^2+x+1| - \frac{2\sqrt{3}}{9} \operatorname{arctg} \frac{2x+1}{2\sqrt{3}} + C = \left(\frac{10\sqrt{3}}{9} - \frac{2\sqrt{3}}{9}\right) \operatorname{arctg} \frac{2x+1}{\sqrt{3}} + \frac{1}{9} \ln \frac{(x-1)^2}{x^2+x+1} = \frac{8\sqrt{3}}{9} \operatorname{arctg} \frac{2x+1}{\sqrt{3}} + \frac{1}{9} \ln \frac{(x-1)^2}{x^2+x+1};$$ bo'ladi

Natijada (3) quyidagi yechimga ega bo‘ladi:

$$\int \frac{x^2+3x-2}{(x-1)(x^2+x+1)^2} dx = \frac{5x+2}{3\cdot(x^2+x+1)^2} + \frac{1}{9} ln \frac{(x-1)^2}{x^2+x+1} + \frac{8\sqrt{3}}{9} arctg\left(\frac{2x+1}{\sqrt{3}}\right) + C.$$

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Полатов Б., Хуррамов Ё., Иброхимов Д. Murakkab funksiyalardan olingan aniq integralni taqribiy hisoblash //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

2. Рабимкул, А., Иброҳимов, Ж.Б.ў., Пўлатов, Б.С. and Нориева, А.Ж.қ. 2023. АРГУМЕНТЛАРНИ ГУРУҲЛАРГА АЖРАТИБ БАҲОЛАШ УСУЛИДА КЎП ПАРАМЕТРЛИ НОЧИЗИҚЛИ РЕГРЕССИЯ ТЕНГЛАМАЛАРИНИ ҚУРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*. 2, 2 (Feb. 2023), 174–178.

3. Полатов Б., Хуррамов Ё., Иброхимов Д. Matematika darslarida muammoli oqitish texnologiyasidan foydalanish //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 401-404.

4. Xurramov Y., Polatov B., Ibrohimov J. Kophadning keltirilmaslik alomati //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 399-401.

5. Bahrom o‘g‘li I. J. OCHIQ CHIZIQLI QAVARIQ TO ‘PLAMDA POLINOMIAL QAVARIQLIKNING YETARLI SHARTI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 363-365.

6. Bahrom o‘g‘li I. J., Sobirovich P. B. OCHIQ CHIZIQLI QAVARIQ TO ‘PLAMDA POLINOMIAL QAVARIQLIK //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 96-104.

7. Sobirovich P. B. Darajali Geometriyani Algebraik Tenglamalarda Qo ‘Llab Asimptotik Yechimlarini Topish //E Conference Zone. – 2022. – С. 166-168.

8. Alimov B. et al. MATEMATIKADA UCHINCHI SHAXS YUMORI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 160-165.

9. Halimov O. et al. TEXNIK MUHANDISLAR VA BO ‘LAJAK MUHANDIS TALABALARNING MATEMATIK KOMPETENTLIK DARAJASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 725-732.

10. Жолков С. Ю. Математика и информатика для гуманитариев. – 2002.

YO‘L MUHANDISLIGI INSHOOTLARIDA MONITORING TIZIMLARINI QO‘LLASH

Ganiyev Inomjon Gulomovich
texnika fanlari nomzodi, Jizzax politexnika instituti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo‘l muhandisligi inshootlarida monitoring tizimlarini qo‘llash masalasi haqida ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Ko‘prik, monitoring, gabarit o‘lchamlari, havfsizlik tasmasi.

ПРИМЕНЕНИЕ СИСТЕМ МОНИТОРИНГА В ДОРОЖНО-ИНЖЕНЕРНЫХ СООРУЖЕНИЯХ

Ганиев Иномжон Гуломович
кандидат технических наук, профессор Джизакского политехнического института

Аннотация: В данной статье представлены результаты научно-исследовательской работы по вопросу применения систем мониторинга в дорожно-инженерных сооружениях.

Ключевые слова и фразы: мост, мониторинг, габаритные размеры, предохранительная лента.

APPLICATION OF MONITORING SYSTEMS IN ROAD ENGINEERING STRUCTURES

Ganiev Inomjon Gulomovich
PhD, Professor of Jizzakh Polytechnic Institute

Annotasion. This article presents the results of the research work on the application of monitoring systems in road engineering structures.

Key words and phrases: bridge, monitoring, dimensions, safety belt.

Ko‘priklarning geodezik monitoringi quyidagi xolatlarda amalga oshiriladi:
1.Ko‘priklar o‘lchami (gabariti);
-konstruksiyaning yaqinlashish gabariti;
-kema qatnovi mavjud bo‘lgan daryolarda ko‘prik osti gabariti.
2.Harakatlanuvchi tarkib va yo‘lovchilardan tushadigan vaqtinchalik yuklamasi.

Geodezik monitoring usullarining tahlilida qo‘yidagilar keltirilgan - 0,05 — 0,5 mm xatolik bilan yuqori aniqlikdagi geometrik tekislash. Nazorat punktlari orasidagi masofalardan yuqori balandlikdagi nuqtalarning koordinatalarini (yomg‘irlar, burilishlar) aniqlash uchun foydalaniladi.

Yangi qurilish uchun loyihalanayotgan ko‘prik konstruksiyalarining yaqinlik o‘lchami inshoot usti va tagidan transport vositalarini erkin harakatlanishini ta'minlashi kerak.

Ko‘prik polotnasi gabariti ko‘prik kapital ta'mirlanishini loyihalashda, qoidaga binoan, yo‘l parametrlariga mos bo‘lishi kerak. Ko‘prik va boshqa sun'iy inshootlar kengligini tayin etish (belgilash) TIA bosqichida avtomobil va yo‘lovchilar harakatining intensivligiga bog‘liq, aniqrog‘i yo‘lning sinfi va kategoriyasidan kelib chiqadi.

Ko‘prik kengligi uning gabariti bilan aniqlanadi.

Loyihalanayotgan inshoot konstruksiyasining yaqinlashuv gabarit o‘lchamlari quyidagi xujjatlarning talablariga javob berishi kerak:

-temir yo‘llarda - GOST 9238-83 ga;

-metropoliten yo‘llarida - GOST 23961-80 ga;

-umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida, xo‘jaliklar ichidagi avtomobil yo‘llarida, sanoat karxonalari yo‘llarida, hamda qishloq aholi punktlari, shahar ko‘chalari va yo‘llarida - ShNQ 2.05.03-12 ning ye ilovasiga binoan.

Ichiga inshootning qaysidir elementlari yoki unda joylashgan uskunalar kirishi mumkin bo‘lmagan, chegaralangan ko‘ndalang konturni (o‘tish qismining bo‘ylama o‘qiga perpendikulyar tekislikda) - ko‘priklar konstruksiyasining yaqinlashish gabaritini qonunlashtirish kerak.

Gabaritlarni shartli ravishda G harfi va chiziqchadan keyin to‘siqlar orasidagi masofani ko‘rsatuvchi raqam (tiredan so‘ng) bilan belgilanadi.

Tramvay harakati yo‘q bo‘lgan holdagi avtomobil yo‘llari va shahar ko‘priklari konstruksiyalarining yaqinlashish gabaritlari sxemalari chizmada keltiriladi.

Bu yerda, har bitta sxemaning chap tomonidagi yarmisi piyodalar yo‘lagi bilan to‘siq birlashgandagi holga, o‘ng tomondagisi piyodalar yo‘lagini alohida ajratib joylagandagi holga tegishli.

Gabaritlarning sxemalaridagi qabul qilingan belgilashlar:

nb - qatnov qismining umumiy eni yoki uning bitta yo‘nalishdagi harakat uchun mo‘ljallangan qismining eni;

n - harakat tasmalarining soni va b - har bitta harakat tasmasining eni, u quyidagicha qabul qilinadi:

-umumfoydalanuv yo‘llaridagi ko‘priklar uchun ShNQ 2.05.02-07dagi 5-jadvalga binoan, xo‘jalik ichidagi yo‘llardagi ko‘priklar uchun jadvalga asosan;

-sanoat korxonalari yo‘llaridagi ko‘priklar uchun ShNQ 2.05.02-07 ning 46-47-jadvallariga binoan;

-shaharlar, poselkalar va qishloq aholi punktlari yo‘llari, ko‘chalaridagi ko‘priklar uchun ShNQ 2.07.01-03 ning 39- va 40-jadvallariga binoan;

- h -balandlikka gabarit (qatnov qismi yuzasidan gabarit konturining ustki chizig‘igacha bo‘lgan masofa), u quyidagicha qabul qilinadi:

-umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llaridagi, xo‘jaliklar ichki yo‘llaridagi, shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlari yo‘llari va ko‘chalaridagi ko‘priklar uchun kamida 5,5 m ga teng etib;

-sanoat korxonalari avtomobil yo‘llaridagi ko‘priklar uchun, u yerda harakatlanuvchi transport balandligiga 1 m ni qo‘shgandagi masofadan kam emas, ammo 5,5 m dan kam bo‘lmagan etib;

-P - havfsizlik tasmasi (ehtiyot qilish tasmasi);

-S - ajratuvchi tasma (ko‘p qatorli harakat bo‘lganida har bitta yo‘nalishida), har xil yo‘nalishlardagi qatnov qismlari xoshiyalari (kromkalari)ning orasidagi masofa;

-ZP - himoyalovchi tasmalar, qoidaga ko‘ra ularning eni 0,5 m ga, harakat pastdan bo‘ladigan yog‘och ko‘priklar uchun 0,25 m ga teng etib qabul qilinishi kerak;

-G - ko‘prikdagi harakat qismining ikki chekkasidagi to‘siqlar orasidagi masofa, o‘rtasida to‘siq bo‘lmagan holda ajratish tasmasi ham unga kiradi;

-T - piyodalar yo‘lagining eni;

- a -harakat qismi to‘siqlarining balandligi;

- h T - kamida 2,5 m etib qabul qilinadigan piyodalar yo‘lagidagi balandlik o‘lchovi.

1-rasmda Sokkia elektron taxeometrining ko‘rinishi aks ettirilgan.



1-rasm. Sokkia elektron taxeometri

2-rasmda Disto X310 rusumli lazerli ruletkaning ko‘rinishi keltirilgan.



2-rasm. Disto X310 rusumli lazerli ruletkaning ko‘rinishi

3-rasmda 200 seriyali elektron teodolitning ko‘rinishi aks ettirilgan.



3-rasm. 200-seriyali elektron teodolitning ko‘rinishi

Adabiyotlar:

1. Ganiyev I. G. Modern engineering construction (1-part) / Textbook for undergraduate students of the direction "Operation of transport facilities". Jizzahk, JizPI, 2013, pp. 129

2. Ganiyev I. G., Maxkamov Z. T., Zafarov O. Metall ko'priklarni loyihalash / Mualliflashtirilgan tarjima. - T.: «Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 yil. 100 bet.

3. Ганиев И.Г. Ochilib-yopiladigan va noyob ko‘priklar qurilishning geodezik ta’minotiJ / O“quv qo“llanma. Jizzax: “LTI” nashriyoti, 2022. – 72 bet.

4. Ганиев И.Г. Геоинформационные системы автомобильных дорог / Учебное пособие. ДжизПИ. – Дж., 2022. 89 стр.

5. Ганиев И.Г. Иншоотлар диагностикаси ва синови / Ўқув қўлланма. ЎзР О ва ЎМТВ. Ўзбекистан. - Жиззах: ЖизПИ. 2019. 72 б.

6. Ганиев И. Г. Исследование трещиностойкости железобетонных балок при многократно повторяющихся нагрузках // Истеъдод. 1998. - №2(2). – С. 15-17.

7. Ганиев И. Г. Расчет анкерных закреплений плиты наращивания // Истеъдод. 1998. - №3(3). – С. 20-22.

8. Ганиев И. Г. Прогнозирование ширины раскрытия трещин при многократно повторных нагружениях. Проблемы механики // Научно-технический журнал. – Ташкент, 2003. -№5. С. 27-29.

9. Ганиев И. Г. Карбонизация защитного слоя бетона в условиях воздействия на него циклического замораживания и оттаивания. Проблемы архитектуры и строительства // Научно-технический журнал. – Самарканд, 2007. -№1. С. 7-9.

10. Ганиев И. Г., Эрбоев Ш. О. Результаты обследования пролетных строений железобетонных железнодорожных мостов. Проблемы архитектуры и строительства // Научно-технический журнал. – Самарканд, 2007. -№2. С. 16-18.

11. Ганиев И. Г., Эрбоев Ш. О. Характеристика существующего парка железнодорожных железобетонных мостов. Проблемы архитектуры и строительства // Научно-технический журнал. – Самарканд, 2007. -№3. С. 13-15.

12. Ганиев И. Г. Определение прочности бетона железобетонных мостов комплексным методом. Архитектура. Строительство. Дизайн // Научно-практический журнал. – Ташкент, 2007. -№3-4. С. 55-57.

13. Ганиев И. Г. Определение среднего срока службы эксплуатируемых бетонных и железобетонных опор железнодорожных мостов // Известия ПГУПС, 2008 г. -№ 3. С. 203-209.

14. Ганиев И. Г. Метод оценки степени деградации в структуре бетона. Известия Петербургского университета путей сообщения // Санкт-Петербург, 2008 г. -№ 2. С. 194-197.

15. Ганиев И. Г. Расчёт износа в элементах пролётных строений мостов с учётом коррозии арматуры. Известия петербургского университета путей сообщения // Санкт-Петербург, 2008 г. -№4. С. 113-118

16. Ганиев И. Г. Расчет безопасного времени работы пролетных строений по величине накопленного износа // Наука и прогресс транспорта. Вестник Днепропетровского национального университета железнодорожного транспорта, 2008 г. -№ 2. С. 105-106.

17. Ганиев И. Г. Нормирование износа эксплуатируемых пролетных строений железнодорожных мостов // Проблемы прочности материалов и сооружений на транспорте. Тезисы VII Международной конференции. Санкт-Петербург, 2008 год. 23-24 апреля 2008 года. С. 46-48.

18. Ганиев И. Г., Соатова Н. З. Солевая коррозия бетона в эксплуатируемых железобетонных пролетных строений автодорожных мостов // Проблемы прочности материалов и сооружений на транспорте. Тезисы VII Международной конференции. Санкт-Петербург, 2008 год. 23-24 апреля 2008 года. С. 48-50.

19. Ганиев И. Г. Приближенная оценка эксплуатационной пригодности элементов пролетных строений мостов. Сборник ТашИИТа // Научный квартальный журнал. – Ташкент, 2008. -№1. С.15-17.

20. Ганиев И. Г., Жураев К. Ю. Состояние железобетонных мостов Джизакской области // Архитектура и строительства Узбекистана. Научно-технический журнал. – Ташкент, 2008. -№3. С.37.

21. Ганиев И. Г. Расчет безопасного времени работы пролетных строений по величине накопленного износа // Вестник Днепропетровского национального университета имени академика В. Лазаряна. Научное издание. – Днепропетровск, 2008. -№20. – С. 105-107.

22. Ганиев И. Г. Приближенная оценка эксплуатационной пригодности элементов пролетных строений // Вестник Днепропетровского национального университета имени академика В. Лазаряна. Научное издание. – Днепропетровск, 2008. -№20. – С. 111-113.

23. Ганиев И. Г. Карбонизация защитного слоя бетона в конструкциях мостов, работающих в условиях сухого жаркого климата // Сборник научных трудов ТашИИТа. №4, 2008. С. 18-19.

24. Ганиев И. Г. Оценка степени карбонизации защитного слоя бетона по результатам обследований железобетонных конструкций мостов // Сборник научных трудов ТашИИТа. №3, 2008. С. 11-14.

25. Ганиев И. Г. Определение износа в элементах пролетных строений с учетом карбонизации бетона в конструкциях мостов // Журнал Транспорт Российской Федерации. №3, 2008. С. 44.

26. Ганиев И. Г., Красин Н. А., Бурхонов О. Б. Технология и механизация работ при строительстве мостов / ГАЖК “Узбекистон темир йуллари”. Т.: 2003 г. 172 с.

27. Ганиев И. Г., Хамракулов Р. Ж. Геодезическая практика / Джизак, ДжизПИ, 2007 г. 86 с.

28. Ганиев И. Г. Профилактический мониторинг железнодорожных железобетонных мостов / Монография – Ташкент, «Фан», 2009. 122 с.

29. Ganiyev I. G., G'ulomov D., Ravshanova D. Yo"l muhandisligi zamonaviy inshootlari / - Jizzax: "So'g'diyona nashriyot matbaa uyi". 2022-yil, 179 bet.

30. Ganiyev I. G. Yo'l muhandisligi inshootlari profilaktik monitoringi. 5340800 - "Avtomobil yo'llari va aerodromlar" ta'lim yo'nalishi bakalavriat talabalari Darslik. - Jizzax: "So'g'diyona nashriyot matbaa uyi". 2022-yil, 230 bet.

31. Ganiyev I. G., Xudoyberdiyev J. Z. Yo'l muhandisligi inshootlari profilaktik monitoringi / O'quv qo'llanma. - Jizzax: JizPI. 2021-yil, 162 bet.

32. Ganiyev I. G., Karakulov X. Temirbetonli ko'priklar oraliq qurilmalarining xizmat muddatini prognozlash / 70730802 - Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi mutaxassisligi talabalari uchun mutaxassislikka oid o'quv qo'llanma. Jizzax: "So'g'diyona nashriyot matbaa uyi", 2023-yil, 71 bet.

33. Ганиев И.Г., Муртазаев Б.А., Ганиева З.А. Современные сооружение дорожной инженерии / Джизак: "Издательство дом печати Согдиана", 2023. 90 с.

34. Ганиев И.Г. Avtomobil yo'llari va undagi zamonaviy sun'iy inshootlar. O'quv qo'llanma. - Jizzax.: "LTI" nashriyot uyi. 2022. 196 bet.

35. Ганиев И.Г. Автомобил йўллари кўприклари бетон ва арматура коррозиясига қарши чора ва тадбирлар / Қўлланма. Жиззах: "Политехник", 2010 йил. 45 бет.

AVTOMOBIL YO'LLARI QOPLAMASI MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Habibullayev Shahboz Ali o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti magistranti
Salimova Barno Djamalovna
Toshkent davlat transport universiteti professori

.

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtomobil yo'lining yo'l to'shamasi mustahkamligiga ta'sir qiluvchi turli omillarni o'rganish, ularga qarshi chora-tadbirlar qo'llash va avtomobil yo'lining xizmat muddatini oshirish bo'yicha ta'vsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: avtomobil yo'li, mustahkamlik, yo'l to'shamasi, deformatsiya, egilishlar, buzulishlar.

Annotation: This article is to study the various factors that affect the durability of the road junction of the highway, applying Tsar-measures against them and developing regulations on increasing the service life of the highway.

Keywords: distortions of the highway, consistency, Road junction, deformation, crushing.

Bugungi kunda Respublikamizda transport infratuzilmalari tizimini yaxshilash, xususan avtomobil yo'llari sifatini oshirish, yangi avtomobil yo'llarini qurish va mavjudlarini rekonstruktsiya qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi [1].

Avtomobil transportining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion xususiyatlarini bosqichma-bosqich yaxshilash kerak. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, shuningdik o'tkazilgan tatqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, avtomobil yo'llarining transport-foydalanish sifatini oshirish uchun ajratilayotgan mablag'lar yetarli darajada emas. [2].


Iqlim va ob-havo tabiat omillarining asosiy qismi bo'lib, yo'lning transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlariga, avtomobillarning harakat rejimi va xavfsizligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Avtomobil yo'llariga ta'sir etuvchilardan ikki xilini ko'rib o'tamiz:

1. Yo'l poyi va to'shamasini mustahkamlik va xizmat muddatiga ta'siri;

2.Yo'lning qoplama yuzasida bo'ladigan o'zgarishlarini g'ildirak bilan qoplamani ilashish xususiyatlarini pasayishiga ta'siri.

Avtomobil yo'llarini transport-ekspluatatsion xolatini baholashda zarur bosqichlardan biri yo'l qoplamasini mustahkamlik darajasini aniqlash hisoblanadi. Qoplamada asta-sekin mustahkamlik pasayishi sababli har xil deformatsiya va buzilishlar paydo bo'ladi.



1-rasm. Yo’l to’shamasidagi deformatsiya va buzilishlarning ko’rinishi: 1-cho’zilish oralig’i; 2-egilish; 3-to’shamani siqilgan joyi; 4-yo’l to’shamasida yoriqlar; 5-to’shamani yuqori kesilishlari; 6-yo’l to’shamasining deformatsiyasi; 7-gruntning surilish yo’nalishi; 8-gruntning siqilish yo’nalishi; 9-yo’l to’shamasi asosidagi gruntning holati; 10-gruntga berilayotgan bosim maydoni.

To’shamalarda sodir bo’ladigan o’zgarish va buzilishlar asosan unga ta’sir etuvchi kuchlar hisobiga sodir bo’ladi. Bular ezilish, siljish, to’lqinsimon, tarnovsimon izlar va notekis cho’kishlardir.

DINA-4FWD nobikr yo’llar qoplamalarining mustahkamligini baholashda ishlatiladigan dinamik yuklanish uskunalarining yangi avlodi bo’lib, Dina-4 yo’l konstruksiyasining tarang egilishini zarba berish paytidagi yettita nuqtada o’lchashni ta’minlaydi. Yo’l konstruksiyasining qattiqligiga qarab vertikal yuklanish qiymati 3.0 kN. dan 6.5 kN. gacha mos qiymatni qabul qiladi.

Yuklanish jarayoni 30-40 sek davom etib to’liq avtomatlashtirilgan va qoplamaning haroratiga tuzatish kiritiladi [4].



2-rasm. "Dina-4" yo’l qoplamalarining mustahkamligini o’lchash uchun qo’llaniladigan qurilma.

4P255 “Bektemir sh.-Sirg’ali q-Krasin q” avtomobil yo’lida mustahkamlik ko’rsatgichlarini aniqlash asosida olingan natijalar.

Qoplama holati va elastiklik modulini baholash.

Yo’l: “Bektemir sh.-Sirg’ali q-Krasin q”

Masofa: pk 12+000 - 20+000


Diagnostika qilingan yil: 2022

Pribor turi: Dina-4

1-jadval.

Manzil (km)	**Tasma raqami**	**Egilish (mm)**	**Elastiklik modulining haqiqiy qiymati, (MPa)**	**Elastiklik modulining minimal qiymati, (MPa)**	**Elastiklik modulining talab qilinadigan qiymati, (MPa)**	**Mustahkamlik koeffitsienti (haqiqiy)**	**Mustahkamlik koeffitsienti (min. ruxsat etilgan)**
11+678	2	0,947	190	132	200	0,71	0,94
12+210	1	0,548	328	225	200	1,18	0,94
12+688	2	0,464	388	267	200	1,38	0,94
13+202	1	0,702	256	174	200	0,93	0,94
13+709	2	0,845	213	149	200	0,78	0,94
14+220	1	1,065	169	119	200	0,63	0,94
14+742	2	0,878	205	143	200	0,76	0,94
15+204	1	1,228	147	103	200	0,56	0,94
15+692	2	0,764	236	152	200	0,86	0,94
16+227	1	0,763	236	119	200	0,86	0,94
16+672	2	0,589	306	210	200	1,10	0,94
17+205	1	0,462	390	277	200	1,38	0,94
17+718	2	0,419	430	301	200	1,52	0,94
18+245	1	0,949	190	132	200	0,70	0,94
18+726	2	0,765	235	147	200	0,86	0,94
19+285	1	0,796	226	149	200	0,83	0,94

Manzil (km)	Tasma raqami	Egilish (mm)	Elastiklik modulining haqiqiy qiymati, (MPa)	Elastiklik modulining minimal qiymati, (MPa)	Elastiklik modulining talab qilinadigan qiymati, (MPa)	Mustahkamlik koeffitsienti (haqiqiy)	Mustahkamlik koeffitsienti (min. ruxsat etilgan)
19+708	2	1,368	132	98	200	0,51	0,94
20+196	1	1,074	168	113	200	0,63	0,94
20+702	2	3,156	57	49	200	0,25	0,94
21+225	1	1,547	116	89	200	0,46	0,94



3-rasm. Dina-4 qurilmasida yo'l to'shamasi mustahkamligini o'lchashda olingan natijalari grafigi.

Olib borilgan tatqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki 4P255 "Bektemir sh.-Sirg'ali q-Krasin q" avtomobil yo'lining pk 2+210 dan 12+688 gacha, pk 16+672 dan 17+718 km gacha bo'lgan qismlaridagi uchastkalarida mustahkamlik ko'rsatkichlari MQN46-2008 me'yoriy hujjatda belgilangan talab darajasida bo'lib, qolgan pk 11+678, pk 13+202 dan 16+227 gacha, pk 18+245 dan 21+225 km gacha bo'lgan qismlarida esa talab darajasida emasligi aniqlandi, bu uchastkalarda qoplamaning mustahkamlik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha ishlar olib borilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.X.O'roqov "Avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash texnologiyalari" Darslik/Toshkent-TAYLQEI. – 2019.

2. I.S. Sodiqov "Avtomobil yo'llarining transport ekspluatatsion ko'rsatkichlari" Darslik/ Toshkent-TAYLQEI. – 2019.

3. MKN 52-2008 Nobikr yo'l to'shamalari mustahkamligini baholash va uni kuchaytirishni hisoblash bo'yicha ko'rsatmalar.

4. https://ekspertiza.uz/uz/devices.

JAMIYAT QONUNLARI VA UNING TURLI IJTIMOIY-TARIXIY DAVRLARDA NAMOYON BO'LISHI

Kimsanboyeva Zuhra Saminjon qizi
NamDU Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(Ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 2-kurs magistranti
kimsanboyevazuhra@gmail.com

LAWS OF SOCIETY AND ITS MANIFESTATION IN DIFFERENT SOCIO-HISTORICAL PERIODS

Annotation: this article expresses views on the manifestation of the laws of society in different socio-political systems and periods during historical development.

Key words: society, law, development, civilization, formation, dialectic, post-industrial, communism.

Jamiyatning progressiv taraqqiyotini aks ettiruvchi shunday qonuniyatlar borki, har bir jamiyat o'z tarixiy taraqqiyotini bevosita shu qonunlar ta'sirida bosib o'tadi. Bu qonunlar obyektiv hususiyatga ega bo'lib, uni to'g'ri anglash, amaliy faoliyatni shu qonunlarga muvofiqlashtirish taraqqiyotning garovi hisoblanadi. Inson hayot kechirar ekan o'z-o'zidan ma'lum bir obyektiv qonunlarning kuchli ta'siri ostida bo'ladi. Biz bunda insonni o'rab olgan tabiat va jamiyatdagi turli hodisalar va jarayonlarning umumiy yo'nalishini belgilab beruvchi tabiat va ijtimoiy qonunlarga duch kelamiz. Insonning biologik mavjudligi tabiiy qonunlar ta'sirida bo'lsa, shaxs sifatida takomillashuvi esa ijtimioiy qonunlar ta'sirida bo'ladi. Tabiiy qonunlar ham, ijtimoiy qonunlar ham amal qilish muddati, hodisa va jarayonlarni qamrab olish darajasiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. - Butun insoniyat tarixi davrida amal qiluvchi qonunlar. Ular hech qachon o'z kuchi yo'qotmaslik sifatiga ko'ra tabiat qonunlariga yaqin turadi. Jamiyatning ijtimoiy sohasi – bu kishilarning turli-tuman ijtimoiy birliklar orqali murakkab o'zaro aloqalari tizimi bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar – ularning ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan mulkiy, kasbiy, demografik, etnik, milliy va boshqa farqlari asosidagi aloqalaridir.[1]. Bu qonun mavjudligi jamiyat mavjudligi bilan bog'liq, jamiyat yo'qolsa bu qonunlar ham yo'qoladi. Ayrim ijtimoiy – tarixiy davrlarda namoyon bo'lib ma'mum shart – sharoitlar yo'qolgach o'z kuchini yo'qotuvchi qonunlar. Bu qonunlar yuqoridaga qonunlar ta'sirida bo'lib, uning shartlariga javob bera olmagan taqdirda o'z o'rnini bo'shatib beradi. Bu qonunlar sivilizasion yondashuvga ko'ra sivilizasiyaning turli bosqichlarida yovvoyilik, varvarlik, agrar, industrial, informasion kompyuter davrlarida, formasion yondashuvga ko'ra, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizim, kapitalizm, kommunizm formasiyalarida

alohida shaklda namoyon bo’ladi, to’g’rirog’i bir sivilizatsiya davrida yoki birgina formasiyada amal qiladi. - Alohida davrlarda, nisbatan qisqa muddatlarda amal qilib obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yo’qolishi yoki o’zgarishi bilan o’z ta’sirini yo’qotadi va boshqa obyektiv qonunlarga o’z o’rnini bo’shatib beradi. Bu qonunlarning amal qilish muddati ma’lum sivilizasiya bosqichining ayrim davrlarida yoki bir formasiyaning ma’lum bir jarayonlarini qamrab oladi. Bu qonunlar asosan birgina ijtimoiy-siyosiy tuzum sharoitida amalda bo’ladi. Mavjud ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va shart- sharoitlar yo’qolishi yoki o’zgarishi bilan o’z faoliyatini yo’qotadi. Biz jamiyat qonunlarining bunday bo’linish tamoyilarini umumiy, hususiy va yakka qonunlar nomi bilan ataymiz. Bu qonunlar iyerarxik bo’ysunish tamoyiliga amal qiladi, ya’ni umumiy qonunlarning yo’qolishi (jamiyatning yo’qolishi) hususiy va yakka qonunlarning yo’qolishi esa o’z navbatida hususiy qonunlarning o’z kuchini yo’qotishiga olib keladi. Ijtimoiy qonunlar jarayonlarni qamrab olish darajasiga ko’ra yoki ijtimoiy hayot sohalari va ijtimoiy munosabatlarni qamrab olish darajasiga qarab ham ma’lum turlarga bo’linadi. Bular: - Butun ijtimoiy hayotni qamrab oluvchi qonunlar. Bu qonunlar jamiyatning ham moddiy, ham ma’naviy hayotini va ijtimoiy munosabatlarning barcha jarayonlarini qamrab oladi. Biz bunda ko’proq dialektika qonunlari ta’sirida bo’lamiz. - Jamiyat hayotining ma’lum sohasida amalda bo’ladigan qonunlar. Bu qonunlar yo moddiy hayotni, yoki ma’naviy hayotni qamrab oladi, ya’ni jamiyat hayotini bir sohasida namoyon bo’ladi. - Jamiyat hayotining ma’lum hususiy sohasini qamrab oluvchi qonunlar. Bu qonunlar moddiy hayotning birgina sohasida: ijtimoiy yoki iqtisodiy sohada namoyon bo’ladi. Ma’naviy hayotning: siyosiy, ahloqiy, mafkuraviy, ma’naviy, diniy sohalari va munosabatlarining faqat bbirginasida namoyon bo’ladi. Bu konunlar xam iyerarxik buysunish tamoyiliga amal kiladi. Bu konunlar o’rtasidagi aloqadorlik xam ma’lum qonuniyatga buysinadi. Biz bunda “qonunlar qonuni”ga yani dialektika konunlariga duch kelamiz. Yuqorida amal kilish muddatiga va ijtimoiy jarayonlarni qamrab olish darajasiga ko’ra tasniflangan qonunlarning o’zaro aloqadorligini aniqlash mushkil masala. Bu jarayonni ham dialektika qonunlari “nazorat” qiladi. Ammo masalaning murakkab tomoni shundaki qonunlar ichida “xukmdor” bo’lgan dialektika qonunlariga ko’ra barcha ijtimoiy hodisalar kabi ularning umumiy, zaruriy va muhim aloqalarini va yo’nalishini aks ettiruvchi ijtimoiy qonunlar ham o’zgarib boradi. Ammo biz bu qonunning natijisini o’ziga nisbatan ham qo’llashimiz mumkin. Bunda natija qanday bo’ladi? Dialektika qonunlari ham o’zgaradimi? Bu kabi savollarga gnoseologik nuqtai nazardan kelib chiqib shunday javob berishimiz mumkin: Bu qonun obyektiv hususiyatga ega bo’lib, uning o’zgarishi subyektiv talqin qilish va tushunish bilan bog’liq. Masalan, Gegel dialektika qonunlarini jamiyatga nisbatan qo’llar ekan, bunda idealistik nuqtai nazardan yondashadi. Undan dialektikani “meros” qilib olgan Marks esa uning aksi sifatida

materialistik pozisiyada turdi. Vaholanki, dialektika qonunlarini chegaralab, ma’lum bir omillari doirasidagina tushunish ham bu qonun shartlariga to’g’ri kelmaydi. Chunki, dialektika qonunlari universal harakterga ega. U jamiyatda ham, tabiatda ham doimo mavjud. Umakon va zamonda chegara bilmaydi. Shuning uchun biz jamiyat qonunlarining namoyon bo’lish shakllarini o’rganishimizda birinchi navbatda dialektika qonunlari bilan hisoblashmog’imiz va undan usul sifatida foydalanishimizga to’g’ri keladi. Inson jamiyat deb atalmish ijtimoiy makonda yashar ekan, doimo ma’lum normalar, qoidalar ta’sirida bo’ladi. Jamiyat ham o’z navbatida qandaydir qonunuyatlar asosida taraqqiy etadi. Inson faoliyatini, hatti-harakatlarini nazorat qiluvchi normalar - ahloqiy va huquqiy normalardir. Aksariyat holatlarda bu normalar qonun deb ham ataladi. Ammo biz qonun shaklidagi normalar bilan obyektiv qonunlarni farqlashimiz lozim. Ularning farqlari, birinchidan, jamiyat qonunlari obyektivdir. Uni inson hohish irodasi asosida, subyektiv tarzda o’zgartirib bo’lmaydi. Huquqiy qonunlar esa “o’z subyektlariga ega” [2]. Ular ijtimoiy - siyosiy tizimning yuqori tuzilmalarida ishlab chiqiladi; ikkinchidan, xuquqiy qonunlar asosan inson orqali jamiyatga ta’sir o’tkazsa, jamiyat qonunlari jamiyat orqali insonga ta’sir o’tkazish hususiyatiga ega; uchinchidan, xuquqiy qonunlar jamiyat qonunlariga nisbatan qisqa muddat faoliyat ko’rsatadi va tez o’zgarib boradi. to’rtinchidan, xuquqiy qonunlarning amal qilishi birdaniga boshlanib, birdaniga tugaydi (Bu asosan mavjud huquqiy qonunlarni obyektiv raraqqiyot qonunlariga to’g’ri kelmay qolishi va buning o’z vaqtida jamiyat tomonidan anglanishi bilan bog’liq). Jamiyat qonunlari esa tadrijiy o’zgarib boradi. beshinchidan, xuquqiy qonunlarga amal qilish subyektiv majburlov apparati (masalan: huquqni himoya qiluvchi davlat organlari) yordamida nazorat qilinadi. Jamiyat qonunlariga amal qilmaslik esa jamiyatni obyektiv inqirozga olib keladi (II bobda bayon qilingan). oltinchidan, xuquqiy qonunlar obyektiv jamiyat qonunlariga muvofiq kelishi lozim. Aks holda, huquqiy qonunlar real voqyelikdan uzoqlashib romantik qonunlarga aylanib qoladi. Inson va jamiyat obyektiv ravishda quyidagi qonunlar ta’siri bo’ladi: Dialektika qonunlari Jamiyati qonunlari (umumiy, hususiy, yakka) Yuridik qonunlar va axloqiy normalar. Bu holat qonunning abstraktlikdan konkretlikka, umumiylikdan yakkalikka qarab borish jarayonidir. Jamiyat qonunlarining obyektiv shart-sharoitga to’g’ri kelmay o’z kuchini yo’qotishi, o’zgarib borishi va o’z o’rnini yangisiga bo’shatib berishi birdaniga kechmaydi. Bunda dialektikaning inkorni - inkor qonuni namoyon bo’ladi va asta.-sekinlik bilan miqdor o’zgarishlarining tub sifat o’zgarishlariga o’tish qonuni orqali amalga oshadi. Eski va yangi qonun o’rtasidagi almashinuvning eng oxiri “qizil chizig’”i bo’lgan sakrash, ya’ni revolyusiya sodir bo’ladi. Sakrash tadrijiy taraqqiyot natijasida, ma’lum bir obyektiv shart-sharoitlar yetilgandagina ro’y berishi mumkin Agar sakrash sun’iy tarzda, obyektiv shart-sharoit yetilmasdan turib, ayrim subyektiv omillar natijasida amalga oshirilsa, keskin o’zgarishlarga olib keladi va paranormal (g’ayritabiiy,

obyektiv emas) qonunlar asosiga qurilgan ijtimoiy nosog'lom jamiyatni yuzaga keltiradi. Marksizm ilgari surgan jamiyat ham mana shu holatlarni aks ettirgan edi (Bu haqda keyingi bobda aniqroq to'xtalamiz). Jamiyatning obyektiv taraqqiyoti qonunlari turli ijtimoiy davrlarda turli xil va turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Buni aniqlash uchun jamiyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda biz hozirda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilayotgan jamiyat tarixiga ilmiy-falsafiy yondashishning formatsion va sivilizatsion konsepsiyalariga duch kelamiz. Bu muammoni "yoki-yoki" tamoyili bilan emas, balki ijodiy yondashgan holda "va-va" tamoyili orqali hal qilish lozim".[3] Postindustrial sivilizasiya va kommunizm formasiyasidan yuqoridagi ijtimoiy tarihiy davrlar o'zaro bir-birini to'ldiradi (postindustrial sivilizasiya va kommunizm formasiyasi munosabati bundan mustasno). Ya'ni, bir sivilizasiya bosqichida bir necha formasiya bo'lishi yoki bir nechta regional sivilizasiya(jamiyat)lar bir formasiyada faoliyat yuritishi mumkin. Garchi formasion yondashuv ma'lum kamchiliklarga ega bo'lsa-da, moddiy ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi qonunlarni ifodalashi bilan birmuncha ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Mamashokirov, A.Hukumov, M.Lafasov va boshqalar. Shaxs va jamiyat. Nazariy masalalar amaliy mashg`ulotlar.-T.: "O'qituvchi" 2005.
2. Гегель Г.В.Ф. Философия права. М., 1990, С.67
3. Крапивенский С.Э. Цивилизационный подход к концепции человека и проблема гуманизации общественных отношений. Волгоград: ВолГУ, 1998, С.28

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR, ULARNING TASNIFI VA TILLARDAGI ROLI

Sadikova Saodat Minovarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti

Anotatsiya: Bu maqola frazeologik birliklarning til madaniyati va xalqlar tarixi bilan bog’likligini, ularning xususiyatlari va tarjima muammolarini yoritadi. Frazeologik birliklar har bir tilning katta va munozarali qismidir va ular o'zlari mansub bo'lgan til madaniyati bilan chambarchas bog’liq. Ularning qismlari ko'pincha xurofotlar, madaniy so’zlar va an'analardan hosil bo'ladi. Bu xususiyatlari sababli, ularni tarjima qilishda tarjima tilidagi ekvivalentlik muammolarini hal qilish kerakligi va mavjud muammolarga yechimlar yoritilishi zarur.

Kalit so’zlar: Frazeologik birliklar, Idiomatik iboralar, til madaniyati, xalqlar tarixi, metafora, ekvivalentlik muammolarini, leksik-grammatik birliklar, fe’l fraza, publitsistik uslub, Ekspressivlik, funktsiya va stilistik diapazonga, so'zma-so'z tarjima.

Frazeologik birliklar har bir tilning katta va munozarali qismidir. Ular o'zlari mansub bo'lgan til madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Frazeologizmlar o'zlarida xalqlar tarixi, qadriyatlar, hayotga munosabatni o'z ichiga oladi. Idiomatik iboralar ko'pincha xurofotlar, madaniy so'zlar va an'analardan hosil bo'ladi. Ularni tarjima qilishda tarjima tilidagi ekvivalentlik muammolarini hal qilish kerak.

Shanskiy frazeologizmlarni "ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan va shakl, tuzilish yoki ma'no jihatidan kam yoki umuman o'zgarishlarga yo'l qo'ymaydigan muzlatilgan til naqshlari" deb tushuntiradi. Ko'pgina olimlarning frazeologik birliklar haqida fikrlari bir-biriga mos keladigan nuqta - bu "suhbat chog'ida yaratilgan, lekin barqaror semantik fonga ega bo‘lgan turg‘un leksik-grammatik birliklar shaklida ko‘paytiriladi"[21].

Ekspressivlik, funktsiya va stilistik diapazonga ko'ra frazeologik birliklarning uch turi ajratiladi: stilistik, kitobiy va so'zlashuv frazeologik birliklar. Stilistik frazeologik birliklar ko‘p qo‘llaniladigan va barcha stilistik masshtablarda tushuniladigan iboralar turidir. Masalan: yurakdan, chin dildan (sincerely, from heart), ochiq osmon ostida (under open sky).

Ikkinchi stilistik tip kitobiy frazeologik birliklardir. Ushbu emotsional idiomalar publitsistik uslubda, romanlarda, she'rlarda va boshqa badiiy asarlarda qo'llaniladi. Masalan: bir zumda (Immediately), yer yuzidan supirib tashlamoq (to destroy).

[21] Searle, J. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. New York: Cambridge University Press, 1979, p.

Uchinchi tur - so ‘zlashuv so ‘z birikmalari. Bu guruh yuqoridagi barcha turlarning eng keng qismini tashkil qiladi. Bu guruh frazeologizmlari bir vaqtning o'zida muallif va hodisa o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi ma'noni bildiradi. Ularning o'zlarida istehzo, hazil bo'lishi odatiy hol emas. Masalan: qoq suyak (very thin), ko`z yashi tukmoq (start to cry), boshini baloga quymoq (to get into trouble)[22].

Frazeologizmlar so‘z yoki so‘z birikmalaridan iborat bo‘lishi mumkin. So‘zlarning frazeologizmlarga leksik birikmasining 3 turi mavjud:

I. Erkin birikma.

Bu tur so'zlarning grammatik xususiyatlariga tayanadi. Erkin kombinatsiyalar uning qismlarini boshqa elementning semantik o'zgarishisiz almashtirishga imkon beradi. Masalan: Blue sky (musaffo osmon), (bright day) yorug' kun. Bu birikmalar ba'zi manbalarda o'lik metaforalar deb ataladi[23]. So‘zlovchilar bunday qo‘shma gaplarga o‘rganib qolishadi.

Idiomalarning erkin birikmalardan farqi shundaki, ular birgalikda qo‘llanishga moyil bo‘lgan bir necha so‘zlardan iborat, lekin uning qismlari ma’nolaridan umumiy ma’noni taxmin qilib bo‘lmaydi, masalan: o`likga o`sma quygandek iborasidagi o`lik, o`sma va quymoq so`zlarining ma'nosi umumiy ma'noni bermaydi. Umummiy ma`nosi yarashmaslik, tug`ri kelmagan degan ma`noni bildiradi.

Ko'pgina idiomalar fe'l va otni o'z ichiga oladi, lekin fe'l o'tgan zamonda joylashgan bo'lsa-da, otning sonini hech qachon o'zgartirib bo'lmaydi. Biz ma'lum bo'lgan iboralarni fly off the handles, kick the buckets, put on good faces, blow one's tops, va hokazolarga o'zgartirmaymiz. Agar idiomada sifatdosh va ot bo'lsa, biz otni ko'plikka o'zgartiramiz, lekin sifatni qiyoslay olmaymiz. Misol uchun, biz red herring (iborasidan foydalanamiz, lekin redder herring sifatida foydalana olmaymiz.

Bundan tashqari, idiomalarda passiv zamon bo'lishi mumkin, ammo boshqalarda bunday emas. Cheklovlar idiomada farq qiladi. Ba'zilar boshqalarga qaraganda ko'proq cheklangan.

“Fe'l fraza”, yasash, berish, qo'yish (make up, give in, put down) kabi fe'l va qo'shimcha birikmalar. Bu mustaqil fe'l birikmalarning ma'nosini oldindan aytib bo'lmaydi faqatgina qo'shimcha va ko'p hollarda bir xil yoki juda yaqin ma'noga ega bo'lgan bitta fe'llardan foydalananiladi - invent, yield, quell (kashf qilish, hosil qilish, bostirish). Ammo bunday turdagi iboralar idiomatik ma'nodan tashqari to'g'ridan-to'g'ri denotativ ma'noga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan, put down so'zining ham tom ma'nosi bor. Fraze fe'llar obrazlilik darajasiga ko'ra farq qilishi mumkin, shuning uchun make up a story, make up a fire, make up one's face (hikoya tuqish, olov yoqish yoki pardoz qilish) ma`nolarida kelishi mumkin. Bosh gapga bog‘langan fe’l frazema, hatto idioma vazifasini ham bajarishi mumkin, masalan, look after and take after (g`amhurlik

[22] Ibid, p. 211
[23] Howells, W, D. Criticism and Fiction. New York: Harper and Brothers, 1993, p.107

qilmoq va uxshash bo`lmoq). Ba'zan fe'l, qo'shimcha va old qo'shimchalar idiomatik ifoda hosil qiladi. Masalan, get away with (qochish) yoki do away with (yuq qilmoq) kabilar.

Tarjima haqida gapirganda, har bir tilda frazeologik iboralarning o‘ziga xos milliy ko‘rinishi borligini ta’kidlash lozim. Ular odatda aniq milliy tilda shakllanadi. Bunday frazeologizmlarni milliy o‘ziga xoslik tufayli o‘z ekvivalentlari bilan tarjima qilinayotgan tilga tarjima qilib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, turli tarjimalarda ularning strukturaviy shakli va sinonimiyasi ko'pincha mutlaq o'ziga xoslikka ega bo'lmasligi mumkin. Agar ularni so'zma-so'z tarjima qilsak, ular aforistik yoki idiomatik tabiatini yo'qotadilar. Adabiy asarlarda bunday ifodalilikni yo'qotish ko'pincha kamroq hissiyotli tilga olib keladi. Masalan:

the moon is not seen when the sun shines - kunuzda oy ko`rinmas;

it is a great victory that comes without blood - bir tomchi qon tukmay erishilgan g`alaba, buyuk g`labadir;

Frazeologik iboralarni ma'noga aylantirishning bir necha usullari mavjud:

1. Aniq ekvivalentlarni topish.

Bu tarjima qilish jarayoni bo'lib, unda manba tilidagi idiomaning har bir bo'limi o`rganilayotgan tilda o'zgarishsiz saqlanadi. Bu jarayonda ikkala tilda ham bir ma`noli iboralar yoki idiomalar mavjudligidan darak beradi. Masalan: able to do with eyes closed - ko`zini yumib bajarmoq;

all ears - vujudim quloq;

Qadimgi tarix yoki adabiyotda xos iboralar:

the golden age - oltin asr;

I came, I saw, I conquered- keldim, ko`rdim,oldim.

Har qanday mutlaqo bir xil ekvivalentlarning juda ko'p soni zamonaviy adabiy yoki boshqa manbalardan kelib chiqadi:

Time is money-Vaqt bu pul;

Self made man – O`ziga ishongan;

My house is my castle– Mening uyim, mening qug`onim va hokazo.

Ko'zga ko'ringan ingliz va amerikalik mualliflarga tegishli ba'zi so'zlar ham muntazam idiomatik iboralarga aylangan. Badiiy adabiyotda qo'llanilishi tufayli ular ko'p tillarda mashhur bo'ldi. Ayniqsa, Shekspirning asl metaforalarining miqdori juda katta: better a witty fool than a foolish wit –ahmoq aqldan ko'ra, aqlli ahmoq yaxshiroq;

cowards die many times before their deaths – qo’rqoqlar o’z o’limidan oldin ko’p marta o’lishadi;

Umumiy manbadan olingan iboralar va idiomalar ba’zan bir oz boshqacha ekvivalentlarga ega bo'lishi mumkin; love is the mother of love– sevgidan sevgi yaralar.

Yaqin ekvivalentlardagi ba'zi bir kichik farqlar o’zini boshqa jihatlarda ham ko’rsatishi mumkin, masalan o`rganilayotgan til jumlasining tuzilishida: to make a long story short – gapning indallosi yoki qisqasini aytganda;

boshqa tildagi so'z yoki so'zning qoldirilishida (shuningdek, qo'shilishida):

a lot of water had run under the bridge since then – o’shandan beri ko’p suvlar oqib o’tdi;

frazeologik ibora atributini o’z tilidagi an’anaviyroq kutilgan ibora bilan almashtirishda:

as pale as paper-rangi devordek oppoq, rangida rang yuq;

to know smth as one knows his ten fingers-biror narsani besh qo`ldek bilmoq;

manba tilidagi idiomatik ibora xususiyatlarini umumlashtirishda:

one’s own flesh and bone -Qoni bir bo`lmoq (qarindosh bo`lmoq, bir qavmdan bo`lmoq);

asl nusxaning ayrim xususiyatlarini konkretlashtirishda:

to sell someone short - past baxo bermoq (qadriga yetmaslik);

Ba’zan asl idiomatik iboraning leksik ma’nosi qisqartiriladi yoki o’rganilayotgan tilga tanish bo’lmagan milliy o’ziga xos shaklga asoslanadi. Masalan, *white elephant-qimmatga tushgan matoh; yes man-laganbardor.*

Bir mashhur iqtibosda deyilganidek, nasriy tarjimada tarjimon qul, she’riyatda esa raqibdir. Tarjimadagi farqlar asosan til an’analari, munosabati va madaniy o’ziga xosliklariga bog’liq. Badiiy bo’lmagan matnlarda frazeologik birliklarni almashtirish shart emas, shuning uchun "muhim metaforani o’tkazib yuborish yoki yo’qotish xavfi ahamiyatsiz".

Frazeologik birliklar ma’no yaxlitligi bilan bog’lanadi, ya’ni hech qanday idioma komponentlari ob’ektivlikning biron bir qismi bilan alohida bog’lanmaydi va umumiy birlik ma’nosini uning tarkibiy qismlarining ma’nolarini qisqartirib bo’lmaydi. Frazeologizmlar –turg’un birliklar, to’liq yoki qisman ko’chma ma’noga ega bo’lgan so’zlarning uyushiq birikmasi.

Majoziy til tarjimada qiyin sohadir.

Metaforalar turlariga qarab tarjimada o’zgartirilishi yoki saqlanishi mumkin.

Umuman olganda, majoziy atamalarning tarjimasi madaniyat va tillarda majoziy foydalanishga yondashuvdagi farqlarni ko’rsatadigan sohadir.

Har bir tilda majoziy atamalar mavjud bo’lib, ular tilning kontseptual tizimining bir qismidir. Metaforaviy ibora va idrok fanda g’oyalarni shakllantirishda va mavhum birliklarni ifoda etishda muhim rol o’ynaydi. Tarjimada metaforik atamaning demetaforizatsiyasi. Majoziy so’zlarning semantik va uslubiy murakkabligi ob’ektiv qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, har doim ham madaniyatlararo juda yaxshi tarjima qilinishi mumkin emas, chunki madaniyatdan madaniyatga farq qilishi mumkin bo’lgan o’ziga xos holatlar mavjud. Tarjima har doim tarjimon yoki

terminologning nazariy tamoyillariga bog’liq bo’lgan. Muammo qisman yagona printsiplar va metaforik terminologiyaning yo’qligidan kelib chiqadi.

Bu muammo ham o’zbek va ingliz tillari orasidagi madaniy masofadan kelib chiqadi. Bu o’zbek tilidagi o’zlashtirilgan tarjimada atamalarning demetaforizatsiyasidan yaqqol ko’rinadi.

Tarjima amaliyoti shuni ko’rsatadiki, ko’pgina demetaforizatsiya jarayonida, tarjima terminologiyasida metafora yo’qoladi. Bu tarjima va tarjimon amaliyotida muammo va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Tarjimada majoziy atamalarning demetaforizatsiyasini mavhum fikrlashda majoziy tilni muhim xususiyat sifatida tan olmaslik bilan izohlash mumkin. *Demetaforizatsiya*, tarjimada metaforadan qochish - bu metafora atamasini "yaxshilash" uchun uni majoziy bo’lmagan so’z yoki so’zlar bilan almashtirish orqali tarjimada metaforadan qochishga ataylab qilingan urinishdir. Demetaforizatsiya natijasida tasvir va assotsiatsiyalar yo’qoladi. Nega metaforik bo’lmagan tarjimaga afzallik beriladi va nima uchun u eng yaxshi til deb hisoblanadi, bu tarjimonlar o’rtasida hamon munozarali masala.

Demetaforizatsiya atamani o’zlashtirish va ishlatishga to’sqinlik qiladi. Bundan tashqari, metaforik atamani ta’rif bilan almashtirish amalda noto’g’ri. Majoziy atama ixcham bo’lganligi sababli xulosa chiqarish va tuzish oson.

Ta’rif yoki bilvosita parafraza matnda moslashuvchan emas, atamaning tarjimasi jiddiy sintaktik va stilistik muammolarni keltirib chiqaradi, masalan; *pul yuvish* kabi iboralar, *pul yuvish usullari*, *pul yuvishga qarshi kampaniya* tarjima va tarjimonlar uchun, ayniqsa sinxron tarjimada qiyinchiliklar tug’diradi. Ommaviy axborot vositalari ko’pincha lakonik, yashirin tilni afzal ko’radi, belgilangan uzun tarjimani e’tiborsiz qoldiradi. Professionallar o’zlarining kundalik amaliyotlarida metaforik ssuda tarjimasidan foydalanadilar, yozma va rasmiy holatlarda ular tasdiqlangan ta’rifdan foydalanishlari kerak.

Biroq, metaforalarni ularning ma’nosini denotativ so’zlarga qisqartirmasdan tarjima qilishga urinish tarjimon yoki tarjimonning xotirasini va terminologiya tarjimasidagi so’nggi o’zgarishlarni kuzatish qobiliyatini yaxshilashning yaxshi usuli sifatida qaralishi mumkin. Masalan, *Environmentally-friendly* (tabiat sevar, tabiat quriqchisi), “Ekologik toza”, deb tarjima qilinsa, bu metaforaning aniq ma’nosini bermaydi. Ingliz tiliga qayta tarjima qilinganda, so'zma-so'z tarjimadan foydalangan holda, u "ecologically clean" bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda bo‘shliqni to‘ldirish o‘zbek tarjima nazariyasining hozirgi bosqichida juda mushkul vazifa bo‘lib tuyuladi. "*Green policy*" (yashil siyosat) metaforasini tarjima qilish yanada qiyinroq. *Yashil* metaforik atama nazariya konstitutsiyaviy bo'lib, u majoziy ma'no qurilishining o'ziga xos namunasidir. Bu atrof-muhitni boshqarishda yangi yondashuv. Bu “*green*

growth” ya`ni *yashil olam* degan yangi frazeologik atamaning izohidan juda aniq ko'rinadi.

Ta’rifiy tarjimaga bo'lgan har qanday urinish semantik va stilistik yo’qotish bo’ladi. Metafora stilistik yo’qotishda konstitutsiyaviy atamalar nazariyasida kuchli vositadir. Agar adekvat metaforik tarjimaga erishilsa, u bu vazifani tarjima qilingan tilda bajarishda davom etadi. Muddat qisqa va moslashuvchan bo'lishi kerak, ya'ni turli kontekstlarda foydalanish oson. Metafora stilistikada konstitutsiyaviy atamalar nazariyasida kuchli vositadir. Agar adekvat metaforik tarjimaga erishilsa, u bu vazifani tarjimada bajarishni davom etadi. Bu atama qisqa va moslashuvchan bo'lishi kerak, ya'ni turli kontekstlarda foydalanish uchun qulay bo'lishi kerak. Bu o’z o’rnida, yondashuvlarni taqqoslash tarjima amaliyotida lingvistik nazariyaning rolini ko'rsatadi. Ba’zan ekvivalentlikka o'xshash, kontseptual ma'noga ega bo’lgan turli so’zlar yordamida erishiladi. Misol uchun:

a ceiling price – oxirgi narx;

zero tolerance – sabr kosasi to`lgan;

orphan land – egasiz yer;

Adabiyotshunoslikda metafora atamasi boshqacha ta’rifga ega bo’lsa-da, tarjimada metafora majoziy ma’nodagi so’z va iboralardir. Demetaforizatsiya kundalik tilda idiomalardan foydalanishda ham sodir bo'ladi. Bu metafora yo'qoladi va adekvat teskari tarjima qilish mumkin emas. Majoziy tarjima yo o’zlashtirib olish yoki boshqa metafora izlash orqali amalga oshiriladi. Metaforaning yo'qligi metaforasiz tarjimaga olib keladi.

Maqollarga kelsak, ba’zan to’liq yoki qisman, semantik yoki hissiy tenglikka butunlay boshqa iboralarni qo’llash orqali erishish mumkin. Masalan:

*at the drop of the hat-darhol degan ma`noni bildiradi*, so’zma-so’z tarjima qilinganda *shlyapa tushganda* degan ma’noni bildiradi; yoki *to keep a dog and bark oneself-ishchilarining o’rniga ishlamoq* degan ma`noni bildiradi, so’zma so’z tarjimada *itni boqib, o’rniga akillamoq*.

Frazali so'zlar his-tuyg’ularni uyg’otadi, gaplarga ifodalilik, obrazlilik qo’shadi. Agar biz frazeologik tenglikni izlash uchun tillarni solishtirsak, zamonaviy tilshunoslikning, shu jumladan frazeografiya nazariyasi va amaliyotida yetakchi yo‘nalishlarni topishimiz mumkin. Ammo asosiy tushuncha sifatida majoziy moslik omillarini aniqlash va frazeologik ekvivalentlar va analoglarni aniq tushunchalar sifatida tanlash mezoni ochiqligicha qolmoqda.

Koui ta’kidlaganidek, frazeologiya shunchaki fan emas, balki "madaniyat tili".

U shuningdek, uning barqaror, allaqachon shakllangan, sobit xususiyatini qayd etadi. Frazeologizmlar mavhum tushunchalar bo’lib, o’ziga xos qarashlarni o’z ichiga oladi.. Frazeologik birliklarni shakllantirishda qisqalik, katta fikrni qisqacha bayon qilish qobiliyati samarali hisoblanadi.

Ma’lumki, formulali til namunalari sifatida barcha ko’chma so’zlar, iboralar, mataforalar, idiomatik frazeologik birliklar to’g’ridan-to’g’ri, denotativ iboralardan farqli o’laroq, asosan shartli bo’lib, tildan tilga farq qiladi.

Hervey va Higgins ta'kidlashicha, ko'plab maqollar va idiomalar o'rganilayotgan tilda osongina aniqlanadigan kommunikativ ekvivalentlarga ega. Beyker harfsiz birliklarni tarjima qilish uchun bir qator strategiyalarni taklif qiladi.

Ushbu strategiyalar uning kitobida quyidagicha aks ettirilgan:

(i) o’xshash ma’no va shakldagi formulani topish (ekvivalentlar);

(ii) o’xshash ma’noga ega, ammo boshqa shaklga ega bo’lgan formuladan foydalanish (analoglar);

(iii) parafraz

(iv) e’tiborsizlik

XX-asr oxiri va XXI-asr boshlarida ingliz tilining frazeologik ma’nosi nazariyasi jadal rivojlandi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarga oid tadqiqotlar ham rivojlandi. Frazeologik ma’noni funksional-stilistik, ekspressiv va baholovchi sifatida o’rganishga alohida e’tibor berildi.

Ingliz tilidagi maxsus va keng tarqalgan idioma turi bu "frazali fe’l" nima, fe’l va qo’shimchaning birikmasi, masalan, *make up, give in, put down*. Ushbu birikmalarning ma’nosini ko’pincha alohida fe’ldan oldindan aytib bo’lmaydi va ko’p hollarda bir xil yoki juda yaqin ma’noga ega bo’lgan bitta fe’l mavjud - *ixtiro qilish, hosil qilish, tinchlantirish*. Ammo ularning ba’zilari bevosita to’g’ridan to’g’ri ma’noga ega bo’lishi mumkin. "Put down" so'zining ham tom ma’nosi bor va shunga uxshash boshqa frazali birliklarning ham idiomatik bo’lgan va bo’lmagan ma’nolari mavjud. Misol uchun: *take in- The conjuror took the audience in*. (*Ko’zboylag’ich ommani aldadi yoki Ko’zboylag’ich ommani e’tiborini qozondi*) deb ham aytish mumkin, chunku *take in* iborasi ham qamrab olmoq ham axmoq qilmoq ma’nosida bu gapda kelishi mumkin, yoki yana bir misol: *The woman took the homeless children in.* (*Ayol uysiz bolalarni boqib oldi*). Hatto idiomatiklik darajalari ham bor, chunki odam *hikoya qilishi (make up a story), olov yoqishi* (“*make up a fire*”), yoki *pardoz qilish (“make up one`s face”)* mumkin. Bundan tashqari, faqat fe’l va qo’shimchalar ketma-ketligi idiomatik bo’lishi mumkin. Shuningdek, *look after* (“*g’amhurlik qilish*”) va *go for* (“*qiymatli bo’lish*”) kabi fe’l va ergash gapning ketma-ketliklari, fe’l, ergash gap va yuklamaning *put up with (“chidamoq”)* yoki *do away with (“yuq qilmoq”)* kabi fe’l va qo’shimchalar ham mavjud.

Qisman idiomalar ham tez-tez uchrab turadi, bunda so’zlarning biri odatiy ma’noga ega bo’lsa, ikkinchisi muayyan ketma-ketlikka xos bo’lgan ma’noga ega. Shunday qilib, *qizil sochlar (“red hair”)* sochlarga ishora qiladi, lekin rang ma’nosida qizil bo'lgan sochlarga emas. Hajvchilar bu turdagi qisman idiomalar bilan zavqlanishadi, misol uchun *make a bed* iborasi kelganda, so’zma so’z ma’nosini

hisobga olib yani xajv qilish maqasadida, ular duradgorlik asboblari to'plamini olib kelishadi. Aslida esa bu ibora yotoqni tekislash, yig`ishtirish ma`nosida keladi. "Oq" so'zini o'z ichiga qiziqarli iboralar to'plami ham mavjud, chunki *"white coffee"* oq qahva jigarrang, *"white wine"* oq sharob odatda sariq, *"white people"* oq odamlar esa pushti. Biroq, oq rang, ehtimol, faqat ma'lum darajada idiomatikdir - uni "odatda topiladigan rangdagi eng ochiq rang" deb talqin qilish mumkin. Ajablanarli emaski, qora rang qahva va odamlar uchun antonim sifatida ishlatiladi (garchi rang jihatidan ham qora emas), lekin u sharob uchun ishlatilmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, hatto qisman idiomatiklik ham daraja masalasi bo'lishi mumkin va ba'zi hollarda joylashishni cheklash masalasiga qaraganda biroz ko'proq bo'lishi mumkin.

Frazeologik birliklarni shakllanish usullariga, ma'no motivatsiyasi darajasiga ko'ra, tuzilishiga ko'ra va nutqning bo'lagi ma'nosiga ko'ra tasniflash mumkin.

A.V. Kunin frazeologik birliklarni tuzilishiga ko'ra turli guruhlarga ajratgan.

Muallif frazeologik birliklarni shakllantirishning asosiy va kichik usullarini ta'kidlagan. U quyidagilarni ta'kidlaydi:

Frazeologizmlarni tashkil etishning asosiy usullari - bularning erkin so'zlardan foydalanib, ularni birlashtirish.

a) Zamonaviy ingliz tilidagi eng samarali - bu terminologik so'z turkumlarining ma'nosini uzatish orqali frazeologik birliklarni shakllantirishdir, masalan, texnik tomondan quyidagi misolni keltirish mumkin: *"launching pad"*, terminologiya tomondan biz quyidagi misolni keltirishimiz mumkin: *"ishga tushirish paneli"*, ko'chirilgan ma'nosi – *"boshlang`ich nuqta";*

b) Ko'p sonli idiomalar bir so'z turkumlaridan ma'nosini o'zgartirish orqali tashkil qilinadi, masalan. *"granny farm" – "qariyalar uyi"*, *"Trojan horse" – "tahlikali sovg'a"* yoki *"kompyuter dastur"*;

c) ba'zan idiomatik iboralar so'zlarni alliteratsiya yo'li bilan yaqinlashtirish natijasida hosil bo'ladi, masalan. *"a sad sack" – "badbaxt"*.

d) frazeologik birliklar ifodalilik darajasini hisobga olgan holda yaratilishi mumkin, bu, masalan, kesimlarni shakllantirishda ayniqsa muhimdir. Masalan: *"My aunt!" ("Mening holam"), "Hear, hear!" ("Eshiting, eshiting!")* va hokazo.

e) frazeologizmlar so'z turkumlarining o'zgarishi natijasida tashkil etilishi mumkin, masalan: *"odds and ends" (qoldiq quldiq) "toq qoldiqlar"* dan tuzilgan,

f) frazeologizmlar arxaizmlar yordamida ham yasalishi mumkin, masalan: *"in brown study" (jigarrang etyud), "in gloomy meditation" (ma'yus meditatsiyada)* degan ma'noni anglatadi, unda har bir qism o'zining eski arxaik ma'nosini saqlaydi;

g) ular jumlani hayotning boshqa sohasida qo'llash orqali tuzilishi mumkin, masalan: *"that cock won't war"* spodrtlarda (xo'roz urishtirish) qo'llanganda erkin so'z turkumi sifatida ishlatilishi mumkin, kundalik hayotda qo'llanganda frazeologik birlikka aylanadi, chunki u majoziy ma'noda qo'llangan, so'z birikmasi.

h) ular ba’zi bir haqiqiy bo’lmagan tasvirdan foydalanganda hosil bo’lishi mumkin, masalan: *“to have butterflies in the stomach” – “oshqozonim karnay-so’rnay cholayabdi”* va hokazo.

i) Frazeologizmlar nutqqa so'zlovchilar, yozuvchilar va siyosatchilar tomonidan kiritilgan so'zlar asosida original metafora sifatida tuzilishi mumkin. Masalan: *“corridors of power” (Qudrat yo`lagi) (Qor), “American dream” (Amerika orzusi) (Albi) “locust years” (chigirtka yillari) (Cherchill), “the winds of change” (o'zgarishlar shamoli) (Mc Milan).*

Frazeologizmlarni o’rganishning dastlabki usulidan farqli o’laroq, boshqa frazeologik birliklarga taalluqli idiomalarning yasalishini bildiruvchi ikkinchi darajali yo’l ham mavjud; Ularni bir necha guruhlarga bo’lish mumkin:

a) konvertatsiya, masalan. *“to vote with one’s feet”* “*vote with one’s feet”*ga aylantirildi;

b) grammatik shaklni o’zgartirish, masalan: *“Make hay while the sun shines”* og’zaki iboraga ko’chiriladi – *“to make hay while the sun shines”*;

c) analogiya, masalan: *“Curiosity killed the cat” “Care killed the cat”* ga o’'tkazildi;

d) kontrast, masalan: *“cold surgery” – “a planned before operation”* ni*“acute surgery”*ga, *“thin cat” –“a poor person” ni“fat cat”* ga qarama-qarshi qo'yish orqali shakllanadi;;

e) maqollarni o’zgartirish orqali, masalan: *“You can’t make a silk purse out of a sow’s ear”* maqolidan uning o’rtasidan qirqib olish yo’li bilan*“to make a sow’s ear”* frazeologik birliki shakllandi;

f) tarjimada o’zlashtirish, juda o'xshash frazeologik birliklarni boshqa tillardan olish; masalan. “living space” (nemischa), “to take the bull by the horns” (lotincha) yoki fonetik qarzlar yordamida “meche blanche” (frantsuz), «corpse d'elite» (frantsuz), «sotto» voce» (italyancha) va boshqalar[24].

Kitob uslubi bilan bog'liq va kamdan-kam qo'llaniladigan yana bir o’zlashtirish bor.

Bu turli xil iboralar.

So’zlar bir-biriga turli yo’llar bilan bog’lanadi. Frazeologik birliklarning ma’lum bir turi, masalan, erkin deb hisoblanishi mumkin bo’lgan so’zlarni o'z ichiga oladi, kitoblarni o’qish (gazeta, xat va boshqalar), ba’zi frazeologik birliklar qat’iy va ularning individual funktsiyalari cheklangan, masalan: go to bed (uxlamoq), make a report – (bayonet qilish, hisobot bermoq).

Idiomalar ham frazeologik birliklardir.

[24] Кунин А.В. Курс фразиолигии современного английскийского языка/А.В.Кунин. -Москва, 2005. С.313

Erkin birikma - ma'noli va shaklli so’zlardan tashkil topgan sintaktik birlik bo’lib, unda shartli so’zlar gapning mustaqil qismlari vazifasini bajaradi. Frazeologik birlikda so’zlar mustaqil emas. Ular so'zlarni ham, so’zlarning tartibini ham o’zgartirib bo'lmaydigan to’plam ifodalarini hosil qiladi. Erkin kombinatsiyalar ma’ruzachi tomonidan yaratilgan. Frazeologik birliklar so’zlovchi tomonidan tayyor shaklda, hech qanday o’zgarishsiz qo’llaniladi. Butun frazeologik birlik o'zining ma’nosidan tubdan farq qilishi mumkin bo’lgan ma'noga ega komponentlar, shuning uchun alohida so'zlar emas, balki butun birlik jumlaning bir qismi vazifasini bajaradi.

Frazeologik birliklar o’z bo‘laklari sifatida alohida so‘zlarga ega bo’lgani uchun bu so’zlar bir necha tuzilish shakllariga ega bo’lsa-da, frazeologik birliklarda komponentlardan faqat bittasi o’zi mansub bo‘lgan gap bo’lagi paradigmasining barcha shakllariga ega bo’ladi, masalan. yotish, yotish, yotish, yotish, yotish va hokazo, qolgan komponentlar shaklini o’zgartirmaydi.

Idiomalarni boshqa tillarda ekvivalent emasligi nuqtai nazaridan aniqlash mumkin, shuning uchun kick the bucket, red seld va hokazolar idiomalardir, chunki ularni to’g’ridan-to’g'ri frantsuz tiliga yoki nemis tiliga tarjima qilib bo'lmaydi.

Ammo bu haqiqatan ham ishlamaydi. Frantsuzcha hamshira uchun garde-malade, lekin buni ingliz tiliga to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilib bo’lmasa-da, bu juda shaffof, ya'ni kasallarga qaraydigan odam degan ma'noni anglatadi. O'z navbatida, g'amxo'rlik juda idiomatik ko'rinadi, ammo uni to'g'ridan-to'g'ri Uels tiliga tarjima qilish mumkin.

1990-yillar frazeologik birliklarni o’rganishga lingvomadaniy yondashuvning rivojlanishiga guvoh bo‘ldi. Turli tillardagi frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Frazeologik birliklar - bu turli jamiyatlarning lingvomadaniy hodisalarining o’ziga xos ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tizimi, milliy mentalitet va tillarning frazeologik zaxiralarida aks etish pozitsiyasini o’rganish tadqiqotning asosiy mavzusiga aylandi. Har bir madaniyat o’z qadriyatlar tizimini frazeologizmlarda ifodalashga e’tibor qaratadi. Eng mashhur madaniy urg’u hayvonlar, qushlar, inson tanasining qismlari, turli rangdagi nomlaridir.

Adekvat yozishmalar muammosi tarjimonlarning diqqat markazida bo’lib, chuqur o’rganishga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Searle, J. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. New York: Cambridge University Press, 1979, p.

2. Ibid, p. 211

3. Howells, W, D. Criticism and Fiction. New York: Harper and Brothers, 1993, p.107

4. Кунин А.В. Курс фразиолигии современного английскийского языка/А.В.Кунин. -Москва, 2005. С.313

5. Виноградова Л.Н. Полесская народная демонология на фоне восточнославянских данных // Восточнославянский этнолингвистический сборник. Исследования и материалы. — Москва: Индрик, 2001. — С. 10-49.

6. Маматов А. Э. «Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари». – Т.: ЎТА. 2001.

7. Маматов А.Э Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. - Тошкент, 2018

8. Воркачев С.Г. Лингвокултурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы и языкознании // Филологические науки 2001.

9. Sadikova, S. (2020). Reflection Of Lingvoculturological Peculiarities In Phrases. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2020(2), 120-129.

10. Sadikova, S. (2020). Different methods of translating phraseological units from one language into another. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal.

MAKSIMUMLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN YARIM O'QDA BOSHLANG'ICH MASALA

Xolmanova Klara Yangiboy qizi
O'ZMU Jizzax filliali "Amaliy matematika" kafedrasi o'qituvchi-stajyor
xolmanovaklara97@gmail.com
Amankulova Istamgul Toshtemir qizi
O'ZMU Jizzax filliali "Amaliy matematika" kafedrasi
"Amaliy matematika" yo'nalishi talabasi
Baratova Sevinch Doniyor qizi
O'ZMU Jizzax filliali "Amaliy matematika" kafedrasi
"Amaliy matematika" yo'nalishi talabasi
Xakimov Behzodbek Ikrom o'g'li
O'ZMU Jizzax filliali "Amaliy matematika" kafedrasi "Amaliy matematika"
yo'nalishi talabasi
Tilolov Shahzod Akbar o'g'li
O'ZMU Jizzax filliali "Amaliy matematika" kafedrasi
"Amaliy matematika" yo'nalishi talabasi

Anotatsiya: Oddiy chiziqsiz differensial tenglama uchun yarim o'qda boshlang'ich masala qo'yilib, quyidagi faktlarni isbotlash imkonini beruvchi yetarlilik shartlari olinadi: yechimning mavjudligi, yagonaligi, chegaralanganligi va turg'unligi.

Kalit so'zlar: maksimumli differensial tenglama, yarim o'qda boshlang'ich masala, yechimni mavjudligi, yagonaligi, chegaralanganligi va turg'unligi.

НАЧАЛЬНАЯ ЗАДАЧА НА ПОЛУОСИ ДЛЯ МАКСИМАЛЬНЫХ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ

Аннотация: Для обыкновенного нелинейного дифференциального уравнения на полуоси поставлена начальная задача и получены условия достаточности, позволяющие доказать следующие факты: существование, единственность, ограниченность и устойчивость решения.

Ключевые слова: максимальное дифференциальное уравнение, полуосевая начальная задача, существование решения, единственность, ограниченность и устойчивость.

AN INITIAL PROBLEM ON THE SEMI-AXIS FOR MAXIMAL DIFFERENTIAL EQUATIONS

Abstract: For an ordinary nonlinear differential equation, an initial problem is set on the semi-axis, and the sufficiency conditions are obtained, which allow to prove the following facts: the existence, uniqueness, boundedness and stability of the solution.

Key words: maximum differential equation, semi-axis initial problem, existence of solution, uniqueness, boundedness and stability.

Ushbu mavzuda quyidagi chiziqli bo'lmagan maksimumli differensial tenglama uchun boshlang'ich masala o'rganiladi:

$$x'(t) = f(t, x(t), \max\{x(r) \mid r \in [t-h; t]\}),\ t \geq R^+ \quad (1)$$

Differensial tenglama uchun boshlang'ich shart quyidagicha beriladi

$$x(t) = \varphi(t),\ t \in E_0 \equiv [-h; 0], \qquad (2)$$

bu yerda

$$f(t, x, y) \in C(D) \cap Lip(L(t)_{|x,y}), \quad D \equiv R^+ \times R \times R,$$

$L(t) \in (R^+; R^+)$, $0 < h$-const.

Biz (1) masala (2) shartga ko'ra echimining mavjudligi va yagonaligini o'rganamiz. Shuningdek, (2) shartga ko'ra φ(t) funksiyaga nisbatan (1) boshlang'ich masala echimining turg'unligi muammosini o'rganamiz.

Teorema 1. (1) Boshlang'ich masala (2) shartga ko'ra berilgan sohada yagona yechimga ega. Ushbu yechim uchun quyidagi baho o'rinli

$$\|x(t)\| \leq Q(t) + 2\int_0^t L(s)Q(s)\exp\left(2\int_s^t L(\xi)d\xi\right)ds, \qquad t \in R^+ \qquad (3)$$

Bu yerda $Q(t) = \left\|\varphi(0) + \int_0^t f(s,0,0)ds\right\|$.

Turlicha 2 ta yechim uchun quyidagi baho o'rinli:

$$\|x(t) - y(t)\| \leq \|\varphi(0) - \psi(0)\|\exp\left\{2\int_0^t L(s)ds\right\}, t \in R^+ \quad (4)$$

Isbot: $C^1(R^+; R)$ sinfda, (2) shartga ko'ra (1) masala o'rniga quyidagi funksional-integral tenglamalani qaraymiz:

$$\begin{cases} x(t) \equiv \varphi(t), & t \in E_0 \\ x(t) \equiv I(x;t) \equiv \varphi(0) + \int_0^t f(s, x(s), \max\{x(r) \mid r \in [s-h; s]\}ds, & t \in R^+. \end{cases} \quad (5)$$

Ushbu (5) tenglama uchun Pikar jarayonini quramiz:

$$\left\{\begin{array}{l} x_0(t)\equiv 0, \quad t\in R^+ \ , \quad x_0(t)\equiv 0,\ t\in E_0 \\ x_m(t)\equiv I(x_{m-1};t),\ t\in R^+ \ , m\in N \\ x_n(t)\equiv \varphi(t), \quad t\in E_0, \quad n\in N, \end{array}\right\} \qquad (6)$$

Va (6) dan quydagilarni olamiz

$$\|x_1(t)-x_0(t)\|\le Q(t),\ t\in R^+, \qquad (7)$$

$$\|x_m(t)-x_{m-1}(t)\|\le \int_0^t L(s)[\|x_{m-1}(s)-x_{m-2}(s)\|+$$
$$\left\|\max\left\{x_{m-1}(r)\,|\,r\in[s-h;s]\right\}-\max\left\{x_{m-2}(r)\,|\,r\in[s-h;s]\right\}\right\|]ds,\ t\in R^+ \qquad (8)$$

Keyin, (8) tengsizlikning o'ng tomonidagi ikkinchi ifodani quydagicha ko'rinishga keltiraylik

$$\left\|\max\left\{x_{m-1}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}-\max\left\{x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}\right\|\le$$
$$\le\left\|\max\left\{|\,x_{m-1}(r)-x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}\right\|, \qquad t\in R^+ \qquad (9)$$

Haqiqatdan ham

$$\max\left\{x_{m-1}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}=\max\left\{x_{m-1}(r)-x_{m-2}(r)+x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}\le$$
$$\le\max\left\{(x_{m-1}(r)-x_{m-2}(r))\,|\,r\in[t-h;t]+\max x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}$$

Yoki

$$\max\left\{x_{m-1}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}+\max\left\{x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}\le$$
$$\le\max\left\{(x_{m-1}(r)-x_{m-2}(r))\,|\,r\in[t-h;t]\right\}\le\max\left\{(x_{m-1}(r)-x_{m-2}(r))\,|\,r\in[t-h;t]\right\}, \quad t\in R^+$$

Xuddi shunday olamiz

$$\max\left\{x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}-\max\left\{x_{m-1}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}\le$$
$$\le\max\left\{|\,x_{m-2}(r)-x_{m-1}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}, \quad t\in R^+$$

Demak,

$$\max\left\{x_{m-1}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}-\max\left\{x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}\le$$
$$\le\max\left\{|\,x_{m-1}(r)-x_{m-2}(r)\,|\,r\in[t-h;t]\right\}, \quad t\in R^+$$

Oxirgi tengsizlikdan (9) ni o'rinli ekanligi kelib chiqdi. (9) ning o'rinli ekanidan esa (8) ning ham o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

$$\|x_m(t)-x_{m-1}(t)\|\le\int_0^t L(s)[\|x_{m-1}(s)-x_{m-2}(s)\|+$$
$$\left\|\max\left\{|\,x_{m-1}(r)-x_{m-2}(r)\|r\in[s-h;s]\right\}\right\|ds, \quad t\in R^+ \qquad (10)$$

Bu $\|x_{m-1}(t)-x_{m-2}(t)\|\equiv 0 \quad t\in E_0$ shartdan (10) tengsizlik quydagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$\|x_m(t)-x_{m-1}(t)\| \le 2\int_0^t L(s)[\|x_{m-1}(s)-x_{m-2}(s)\|ds, \quad t\in R^+ \quad (11)$$

(7) va (11) ni hisobga olgan holda matematik induksiya metodi yordamida quyidagi bahoni olamiz

$$\|x_m(t)-x_{m-1}(t)\| \le \frac{2}{(m-2)!}\int_0^t L(s)Q(s)\left[2\int_0^t L(\xi)d\xi\right]^{m-2} ds, \quad t\in R^+, m\in N.$$

(12)

Demak, $\{x_m(t)\}$ ketma-ketlik R yarim o'qiga yaqinlashadi va uning har qanday chekli yopiq $x(t)\in C(R^+;R)$ oraliqlarida funksiyaga bir xilda yaqinlashadi, (5) ni $m\to\infty$ chegaraga o'tkazib olamiz, $x_m(t)$ funksional-integral tenglama (6) ni qanoatlantiradi.

(7) va (12) orqali biz (3) ga kelamiz.

Keyin, ushbu yechimni o'ziga xosligini qaraymiz.

(2) boshlang'ich shartga ega (1) tenglama R^+ o'qda $y(t)$ yechimga ega bo'lsin.

$Y(t)$ va $x_0(t), x_1(t), x_2(t),.....,$ larni yaqinlashishlarini taqqoslab quyidagi bahoni olamiz.

$$\|y(t)-x_m(t)\| \le \frac{2}{(m-1)!}\int_0^t L(s)Q(s)\left[2\int_0^t L(\xi)d\xi\right]^{m-1} ds, \quad t\in R^+, m\in N$$

Tegishli baholarni taqqoslash usuli orqali biz (7) –(11) baholardaginga o'xshash baholarni ikki xil $\varphi(t)$ va $\psi(t)$ funksiyalarga ayirmasi uchun olamiz. $\varphi(t)$ va $\psi(t)$ funksiyalarga mos keladigan ikkita yechimi x(t) va y(t) bo'lsin. Bu yaqinlashishlarni solishtiramiz; $x_k(t)$, $y_k(t)$, k=0,1,2,3,…….

Shubhasiz bu

$\|x_0(t)-y_0(t)\|=0, \ t\epsilon[-h;\infty]$.

Quyidagi baholarga egamiz:

$$\|x_1(t)-y_1(t)\| \le \|\varphi(0)-\psi(0)\| + \int_0^t L(s)[\|x_0(s)-y_0(s)\|$$

$$+\left\|\max\{x_0(r)\,|\,r\in[s-h;s]\}-\max\{y_0(r)\,|\,r\in[s-h;s]\}\right\|]ds = \|\varphi(0)-\psi(0)\|, t\in R^+$$

(13)

(13) ga ko'ra quydagiga ega bo'lamiz

$$\|x_2(t)-y_2(t)\| \le \|\varphi(0)-\psi(0)\| + \int_0^t L(s)[\|x_1(s)-y_1(s)\|$$
$$+\|\max\{x_1(r)\,|\,r\in[s-h;s]\}-\max\{y_1(r)\,|\,r\in[s-h;s]\}\|]ds \le$$
$$\le \|\varphi(0)-\psi(0)\| + 2\int_0^t L(s)[\|x_1(s)-y_1(s)\|ds \le \quad (14)$$
$$\le \|\varphi(0)-\psi(0)\|\left[1+2\int_0^t L(s)ds\right], t\in R^+$$

(14) ga asosan uchunchi yaqinlashish uchun quyidagi bahoni hosil qilamiz

$$\|x_3(t)-y_3(t)\| \le \|\varphi(0)-\psi(0)\| + 2\int_0^t L(s)[\|x_2(s)-y_2(s)\|ds \le$$
$$\le \|\varphi(0)-\psi(0)\|\left\{1+2\int_0^t L(s)ds + \frac{\left[2\int_0^t L(s)ds\right]^2}{2!}\right\}, t\in R^+$$

Xuddi shu tarzda, bu jarayonni davom ettirsak, biz induksiya metodini qo'llash orqali quydagi bahoga ega bo'lamiz

$$\|x_k(t)-y_k(t)\| \le \|\varphi(0)-\psi(0)\| + \left\{1+2\int_0^t L(s)ds + \ldots + \frac{\left[2\int_0^t L(s)ds\right]^{k-1}}{(k-1)!}\right\}, t\in R^+$$

Bundan kelib chiqadiki, (4) tengsizlik $m\to\infty$ chegarada yuqoridagi tengsizlik ko'rinishiga kelib qoladi.

Ta'rif: Agar har qanday $\varepsilon > 0$ uchun $\delta > 0$ bo'lsa, $x(t)$ yechim boshlang'ich funksiyaga nisbatan uzluksiz deyiladi

$\|\varphi(t)-\psi(t)\| < \delta, \quad t\in E_0$

Yuqoridagidan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi

$\|x(t)-y(t)\| < \varepsilon, \ t\in R^+$

Bu yerda x(t) va y(t), ikkita boshlang'ich funksiyaga $\varphi(t)$ va $\psi(t)$ ga, mos keladigan masalaning ikkita yechimidir.

Adabiyotlar:

1. Ainov D. D, Milisheva S.D. Justification of the Averaging Method for Functional Differential Equations with Maximums/ Nouvella serie, Tome 38 {52}, 1984. –P. 149-152.

2. Bainov D.D, Milisheva S.D. Justification of the Partialmultiplicative Averaging Method for Functional Differential Equations with Maximums. / Xag. Organ. Nielin., 1989, 23. –P. 55-60.

3. Conti R. Recent Trends in the Theory of Boundary Value Problems for Ordinary Differential Equations. / Boll. Unione Math. Ital A., 1967.-V. 22, №2. –p. 135-178.

4. Yuldashev T. K., Kholmanova K. Y. “Nonlinear second order Fredholm integro-differential equation”. ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТЕНГЛАМАЛАР ВА АНАЛИЗНИНГ ТУРДОШ МАСАЛАЛАРИ хорижий олимлар иштирокидаги илмий конференцияси МАТЕРИАЛЛАРИ Бухоро, Ўзбекистон, 04–05 ноябр, 2021 йил

5. Yuldashev T. K., Kholmanova K. Y “NONLINEAR FREDHOLM INTEGRO-DIFFERENTIAL EQUATI WITH DEGENERATE KERNEL AND NONLINEAR MAXIMA” НЕЛИНЕЙНОЕ ИНТЕГРОДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЕ УРАВНЕНИЕ ФРЕДГОЛЬМА С ВЫРОЖДЕННЫМ ЯДРОМ И НЕЛИНЕЙНЫМИ МАКСИМАМИ // Журнал математики и информатики. – 2021. – Т. 1. – №. 3

6. Xolmanova K. “Maksimum belgisi ostida funksional parametrni o’z ichiga olgan integro-defferensial tenglamalar sistemasi uchun boshlang’ich masala” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал 2022 год. newjournal.org

7. Xolmanova K.Y, H.SH.Qarshiboyeva, M.I.Isoqjonova “Integral belgisi ostida funksional parametrni o’z ichiga olgan integro-defferensial tenglamalar sistemasi uchun berilgan kesmada boshlang’ich masala”. “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami. 2022 yil 22-23 dekabr. 451-456-betlar.

8. Юлдашев Т.К. Краевая задача для нелинейных интегро-дифференцыальных уравнений параболо-гиперболического типа второго порядка с максимумами / Там же. –С. 24-29.

9. Юлдашев Т.К. Начальная задача с условием склеивания для нелинейных дифференцыальных со смешанными максимумами / Туранск. Матем. Собр.-Ош, 1995.-Вып. 1. –С.5-13.

10. Набиев Г.М Некоторые вопросы качественной теории дифференцыальных уравнений с максимумами / Дисс…канд. физ-мат… наук. – Баку, 1986.-96с

11. Петухов В.Р Вопросы вопросы качественного исследования решений уравнений с максимумами /Известия ВУЗов, серия математика, 1964, №3. – С.116-119.

12. Рябов Ю.А., Магомедов А.Р. Дифференцыальные уравнения с максимумами /Препринт 75: Инст. Физика АН Азерб. ССР, 1983. -36с

UNDALMALARNING O’RNI VA OHANGI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xatamova Munisa Mamadulla qizi
Samarqand davlat Universiteti
Filologiya fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada gap, uning o’ziga xos jihatlari,sodda gaplar va murakkablashgan sodda gaplar ularni hosil qiluvchi birliklar, bu masalalar yuzasidan ayrim tilshunoslarning qarashlari, undalmalar,undalmalar xarakteristikasi, undalmalarning o’rni va ohangi xususida ayrim fikr va mulohazalar bildirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Gap, sodda gaplar, murakkablashgan sodda gaplar, birlik, undalma, undalmalarning ifodalanishi, undalmalarning o’rni, ohang.

Til-millatning millat bo‘lib shakllanishida xizmat qiluvchi, milliy o‘zlikni anglatuvchi eng qudratli vosita. Inson eng avvalo muloqot qilish uchun,so’ngra o’z bilimlarini boyitish uni boshqalarga yetkazishda tildan foydalanadi.. Birinchi o’zbek professori Abdurauf Fitrat “…Tilimizdagi so’z boyligi, ishtiqoq kengligi, qoida go’zalligi sarf-nahv ingichkalari (xususiyatlari) boshqa sharq tillaridan qolishmas”[25], - degan fikrlari o’zbek tilining imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.Bu kabi imkoniyatlar sintaktik sath birliklari hisoblangan va qizg’in muhokamaga sabab bo’layotgan murakkablashgan sodda gaplarga birlashuvchi birliklar orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Murakkablashgan sodda gaplarning o’zi alohida sintaktik hodisa ekanligi rus tilshunosligida A.R.Rudnev tomonidan asoslangan[26].O’zbek tilshunosligida esa murakkablashgan sodda gaplar masalasi G’.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.G’ulomov, B.O’rinboyevlar[27] tomonidan nazariy ham amaliy jihatdan ishlangan,ular yuzasidan ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan. Ilk bor ushbu sintaktik kategoriya haqida “O‘zbek tili grammatikasi” nomli kitobda gap yuritilgan. Bu kitobda murakkablashish xususiyatiga ega bo‘lgan sodda gaplar turini murakkab gap konstruksiyasi deb nomlangan.

Murakkablashgan sodda gap sintaksisida gap tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik qurilma va kategoriyalar o‘rganiladi. Ular quyidagilar: Gapning ajratilgan bo‘alaklari, undalmalar, kirish va kiritmalar.Biz ushbu

[25] Фитрат А. Тилимизнинг абадийлиги. Танланган асарлар, IV жилд. – Тошкент: Маънавият. – 2006. – Б.132.
[26] Руднев А. Р. Синтаксис осложненного предложения. М, 1959
з Н.Маҳмудов, А.Нурмонов. ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т.: 1995.
Ғуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 1987
Б.Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Самарқанд, 2006
Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: Ўқитувчи, 1996

maqolamizda murakkablashgan sodda gaplarni vujudga keltiruvchi konstruksiyalardan biri undalmalar,ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'rni va ohangi xususida suhbatlashmoqchimiz. Undalma - so'zlovchi bilan tinglovchining munosabatini ko'rsatadi. Undalma orqali so'zlovchining nutqi shaxslarga qaratiladi. Ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun so'zlovchi tinglovchiga undaydi, murojaat qiladi. Shunga ko'ra murojaat qilingan, undalgan shaxsning ifodasi bo'lgan so'z undalma bo'lib keladi.

Undalmalarning gapda qat'iy bir o'rni yo'q. O'zbek tilidagi darslik va qo'llanmalrning deyarli hammasida undalma gap boshida, gap oxirida va gap o'rtasida keladi degan ma'lumotlar beriladi, ammo uning qanday xususiyatlariga binoan gap boshida gap oxirida va gap o'rtasida kelishi sabablari haqida hech nima deyilmaydi.

Turk tilarida, jumladan o'zbek tilida gap bo'laklari gap ichida ma'lum tartibda o'rinlashadi. Masalan, ega gap boshida, kesim gap oxirida, to'ldiruvchi bilan hol kesimdan oldin, aniqlovchi aniqlanmishdan olidn keladi.Bu muayyan tartibning o'zgarishi – gap bo'laklarining inversiyaga uchrashi ham mumkin. Undalmaning gap ichida o'rinlashishi tartibi,bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning tartibidan tubdan farq qiladi.Undalmaning gap ichida birinchi va ikkinchi darajali bo'laklar kabi qat'iy bir o'rni yo'q.Unda inversiya hodisasi ham yuz bermaydi. Undalma gapning har yerida, ya'ni gap boshida, gap oxirida va gap o'rtasida kelaveradi. Undalmaning gapning har yerida kelishiga befarq qarab bo'lmaydi, albatta. Undalmaning gapning har yerida – gap boshida, gap o'rtasida va gap oxirida kelishi, asosan, uning funksiyasiga, formasiga, hajmiga va gap hajmiga bog'liq. Shu bilan birga undalma ma'lum bir maqsadga, stilistik talabga ko'ra ham gapning har yerida kela oladi. Undalmaning gap boshida kelishi quyidagi o'rinlarda uchraydi. Undalma chaqirish, shior, xitobnoma va buyruqlarda, notiqlar nutqi, maktublarda, shuningdek og'zaki va yozma adabiyotlarda ko'pincha gap boshida keladi.

1. Chaqiriqlarda: Hamqishloqlar, keling yurtimizni bog' va gulzorga aylantiramiz.(gazetadan).
2. Shior va va xitobnomalarda: O'quvchilar, maktab mulkini asrang. (gazetadan).
3. Buyruqlarda: O'quvchilar, ertaga shanbalik, barcha mehnat qurollari bilan kelsin. (gazetadan).

Poezyada:Yurak, sensan mening sozim tilimni nayga jo'r etting. (Usmon Nosir)

4. Maktublarda:

Qadirli jo'ra aka! Tuganmas salom. (G'.G').

Undalmalar chaqiriqlarda, xitobnomalarda, buyruq va rasmiy yozishmalarda gap boshida kelganidek,so'zlovchining nutqi qaratilgan nuqtani, shuningdek, murojaat, undash,ishonch kabi ma'no ottenkalarini bildirsa, ko'pincha gap boshida keladi:Oyijon! Nega yig'laysiz? Mana diydor ko'rishdik-ku. (O'.Hoshimov).

Undalma gap boshida kelganidek gap oxirida ham keladi.Bunday vaqtda so’zlovchi bilan tinglovchi orasidagi munosabat ilgaridan davom etib kelayotgan bo’ladi, ular orasidagi masofa ham yaqin bo’ladi. Bunday hollarda so’zlovchi uchun nutq qaratilgan shaxs – tinglovchi muhuim bo’lmaydi, uning diqqat markazida turmaydi, balki, nutq qaratilgan shaxsning, yoki boshqa biror shaxsning harakati, yoki tinglovchiga tegishli bo’lgan fikr muhim bo’ladi. Shunday ekan, so’zlovchi avvalo tinglovchiga tegishli bo’lgan fikrni bayon qiladi, so’ngra unga undaydi. Shuning uchun ham undalma yondosh gapdan so’ng, ya’ni gap oxirida keladi:Bu nima qilganing, tezroq bormaysanmi, Ramazon? (E.A.)

Undalma so’roq yuklamaalari bilan kelgan so’roq va undov gaplarda, shuningdek, hurmat ma’nosini bildiruvchi gaplarda ko’pincha gap oxirida keladi.

1. So’roq gaplarda:Aytgan ishlarimning hammasini bajardingmi, qizim?(Og’zaki nutqdan).
2. Undov gaplarda:Maktabda yaxshi o’qi deganmidim, o’g’lim.(Og’zaki nutqdan).

3.Hurmat ma’nosini bildirgan gaplarda:Muborak dilingiz xira qiladigan bo’lsa-da aytaman, qabul qilish yo rad etish ixtiyoringizda, Davlatpanoh.(Xurshid Davron).

Undalma gap boshida keluvchi tasdiq va inkorni bildiruvchi “ ha”, “yo’q” so’zlari, shuningdek, “xayr”, “xo’p” so’zlaridan keyin keladi:

Yo’q! Yo’q!, Shoir!
Gar shunday bo’lsa,
Shekspirning yo’qdir keragi.(Usmon Nosir).

Undalmalar gap o’rtasida keladi.So’zlovchi bilan tinglovchi orasidagi munosabat ilgaridan davom etib kelayotgn bo’lsa, u tinglovchiga tegishli bo’lgan fikrni aytib,so’ngra unga murojaat qiladi. Bunday hollarda undalma leksik ma’nosi kuchsizlangan so’zlardan ifodalanadi.Bu undalmalr ko’pincha gap o’rtasida keladi:Kirolmasliging aniq,Ramazon, yaxshisi ket,-deyman jahlimni bazur yutib.(E.A).

Undalma iltimos, piching, kesatish, nafrat-haqoratlash kabi ma’no ottenkalarini bildiradi, ko’pincha gap o’rtasida keladi.Meni avf et, inim, zanjirdan ozod etmoqqa hozircha ojizmen.(Mirkarim Osim).

Yuqoridagi misollardan ko’rishimiz mumkinki undalma gapning har qayerida keladi.Undalma gapning qaysi qismida kelishi so’zlovchi bilan tinglovchining munosabatiga bog’liq.Shuni ham qayd qilish kerakki, undalma chaqirialarda,shiorlarda, buyruq va xitobnomalarda, rasmiy yozishmalarda asosan gap boshida keladi va kuchli intonatsiya bilan talaffuz qilinadi.Shunday qilib, undalma rasmiy munosabatlarda ko’pincha gap boshida, shaxsiy munosabatlarada esa gap oxirida va o’rtasida keladi.

Undalmada intonatsiya, ohang, masalasini aniqlash, uning funksiyasi, gapdagi o’rni va kengayish darajasiga bog’liq.Undalma yondosh gapdan oldin kelib, tinglovchining diqqatini so’zlovchining nutqiga tortish uchun da’vat etsa, maxsus chaqirish intonatsiyasi bilan talaffuz qilinadi: Saodat, bu yoqqa qara, Obiddan qochmay qo’ya qol. (G’.G’.).

Undalma gap sostavida kelib so’zlovchi uni ajratib ko’rsatishga harakat qilsa, u chaqirish intonatsiyasi bilan boshqariladi. Shunday vaqtda undalma gapdagi boshqa so’zlarga nisbatan baland ohang bilan ajratilib aytiladi. Bunday intonatsiya, ohang, ayniqsa, gap boshida va gap oxirida keladigan undalmalrga xosdir.Gap boshida kelgan undalmani ajratuvchi pauza ancha davomliroq bo’ladi.Aziz o’quvchim! bu kitobni yoza boshlaganimga qirq yildan oshdi.(O’.H).

-Nima gapingiz bor gapiring, o’rtoq tergovchi? (N.E).

Har xil shaxs yoki predmetlarga qaratilgan, yoxud takror kelgan, shuningdek, bir predmetning turli xususiyatlarini ko’rsatadigan undalmalr ko’pincha chaqirish ohangi bilan talaffuz qilinadi. Yodgor, hoy Yodgor, o’g’lim, buyoqqa qara, mana senga jo’xori kavob qilyapman. (G’.G’).

Undalmalarning gapda qat’iy bir o’rni yo’q.U gap boshida gap o’rtasida va oxirida kela oladi.Undalmaning gapning har yerida kelishi asosan uning funksiyasi, hajmi va gap hajmiga bog’liqdir. Shu o’rinda undalmaning gapning har yerida kelishi ma’lum stilistik talab bilan ham bog’liq.Undalmalar gap tarkibida kelib, gapning umumiy mazmuni bilan bog’lanadi, lekin gapning unumiy ohangidan maxsus intonatsiya bilan ajratib aytiladi.Ba’zan undalmaning intonatsiyasi kuchsizlanadi va gapning umumiy ohangi bilan birlashib ketadi.Undalma chaqirish, sanash, so’roq, undov va kirish intonatsiyalari bilan talaffuz qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбектили грамматикаси. Т.:Фан,1996.

2. Маҳмудов Н.,НурмоновА. Ўзбектилининг назарий грамматикаси. Т.:1995.

3. ҒуломовА., Асқарова М.Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.:Ўқитувчи, 1997.

4. Ўзбек тили грамматикаси. 2қисм. :Фан,1996.

5. Руднев А. Р. Синтаксис осложненного предложения. М, 1959.

6. Турсунов У.,Мухторов Ж. Ҳозирги замон узбек тили. Морфология, Самарканд, 1960.

7. Сулаймонов А. Х. узбек тилида атов гап, ундалма ва вокатив гаплар, Самарканд, 1956.

INTEGRATION OF STEAM TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH

Kurbanova Husniya Shuhrat qizi
Doctorate student (phd) of Gulistan State university

Abstract: As there is a change in education, the teaching methodology is updated and developed. Looking at the period from the 19th century to the present day, in particular, how many methods and approaches to teaching English have appeared: audio-lingual, GTM, behaviorist approach, CBL, CLL, TBL and others. Of course, these methods are in some sense effective for their time and for now, they have not completely left education. STEAM technology is interesting and unique in that it is largely related to practice and does not limit the learner to one field. In the following article, we will talk about this technology and its advantages and development period.

Annotatsiya: Ta'limda o'zgarish bo'lgani sari o'qitish metodikasi ham yangilanib, rivojlanib bormoqda. XIX asrdan to bugunga qadar bo'lgan davrga nazar tashlar ekanmiz, xususan ingliz tilini o'qitish bo'yicha qanchadan qancha metodlar, yondashuvlar paydo bo'ldi:audio-lingual, GTM, behaviourist approach, CBL, CLL, TBL and others. Albatta, bu metodlar o'z davri shuningdek hozir uchun ham qaysidur ma'noda samarali, ta'limdan butunlay chiqib ketgani yo'q. STEAM texnologiyasi ko'p jihatdan amaliyot bilan bog'liq ekanligi, o'rganuvchini bir soha bilan cheklab qo'ymaganligi bilan ham qiziqarli va o'ziga hos. Quyida ushbu texnologiya va uning afzallik va taraqqiyot davri haqida so'z yuritamiz.

Key terms: STEAM, complex approach, subject-integration, CLIL, innovation.

As today's time is about integration, there should be interdisciplinary communication and information exchange in teaching. After all, no learning takes place in a vacuum as Sarah Hillyard mentioned. Instead, learners must constantly use their knowledge of the world to connect ideas. This is especially true when it comes to STEAM subjects – science, technology, engineering, art and design, and math. For example, just as a designer cannot create a project without mathematical calculations, scientists rarely do pure scientific work without at least engineering, technological tools, or creative design. So why should you make a holistic approach to STEAM a priority in your language teaching? And how can you integrate STEAM into your curriculum?

In today's age, most people understand how STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) disciplines fit together. But in order to develop the knowledge and skills of students in different subjects, we need to combine them. Take, for example, teaching art studies in English. Art is a broad umbrella term that primarily encompasses dance, music, drama, movement, painting, drawing, craft, sculpture and

design. In the process of creating an image of something, students are familiar with the terms and rules of art science and learn them in English. There are many benefits to creating a curriculum across STEAM disciplines and content areas. In particular,

• Our brain learns to connect existing information. When we connect two pieces of information in our brain, we are able to understand, remember, and apply that information. Thus, integrating knowledge means mirroring real life, preparing our brains for a world of integrated knowledge;

• The work we do is also the result of dependence. Let's imagine that even if a person chooses to become a scientist, his work is related to the science of mathematics. Perhaps they need engineering skills and creativity. They may also need to use new technologies. STEAM integration shows students that no matter what career they decide to pursue; they will work across disciplines;

• It helps build problem solving skills. For students, using what they know in one area can help them solve new problems and succeed in other areas. By exploring interactions in school, students discover how different fields interact in the real world. However, once they learn to see these connections, it becomes easier for them to find the connections themselves.

• Integrated learning makes school more interesting, relevant and meaningful. Research has shown that it increases students' and teachers' interest, motivation, and enjoyment of school.

• The ability to express different concepts in the language develops. Most language learners struggle to explain biology, technology, or any other subject in their language. For this, it is necessary to learn the terms and expressions of a particular science. Students can overcome this problem through STEAM technology. Language becomes a means of information exchange in various spheres.

STEAM technology in English classrooms:

1. Combination of STEAM subjects

STEAM disciplines should facilitate interdisciplinary learning and always go hand in hand. For example, if you are teaching your students the word "patterns" in English, you can give its usage situations and translations in different fields. For example, in mathematics, "patterns" mean sequences of odd and even numbers, in physics, they mean sequences in sound waves, in engineering, patterns in buildings, in technology, coding, movements of dance choreographers, or abstract paintings.

2. Connection between STEAM and language learning

Introducing the STEAM method does not mean to forget the language being studied, on the contrary, a scientist, an engineer, an artist and a teacher of mathematics - everyone needs communication and literacy. STEAM experiences are not a separation from a pre-learned activity, but a connection with a new technology. Linking STEAM and language learning is also appropriate. In this, the language being studied is based

on the CLIL approach, that is, students learn the language through texts related to various subjects. Any topic or project can easily be connected to a STEAM activity, for example: drawing something, illustrating something, doing research using technological tools, counting numbers or doing number-related examples, conducting experiments, etc.

3. Organization of an English lesson based on STEAM technology

If we take the topic "Living and houses" in the curriculum using STEAM technology, the teacher can teach the house and related words in the form of a project. In this, students create the houses of their dreams using hard paper and colors:

1. During the process, students conduct their own research on the house and its types using online resources (IT)

2. Students discuss the houses they built, why they built such a house, what are its advantages and disadvantages, what materials were used in the process of construction (Science);

3. During construction, the diameter and dimensions of the house should be taken accurately and correctly, based on it, they will draw up a project and choose suitable windows, roofs and doors for the house (Geometry and Engineering sciences)

4. Now the students decorate the finished house as they want, choose the equipment and describe it to their friends (Art and Design).

Why do we need STEAM technology?

In the 21st century, jobs require candidates to be not limited in knowledge, flexible to conditions, thoughtful and innovative. STEAM activities form important skills and abilities in students that correspond to these changes. Education means the development of skills that are necessary in various areas of life and remain with a person permanently. So, what skills do STEAM classes develop in students?!

These skills are necessary for future work and living activities of individuals. The future is an abstract time, it is not always possible to predict it in advance, our task is to prepare our youth for this technological and changing world. Interdisciplinary integrated lessons help students:

- they know how to put the accumulated knowledge into practice;
- can recommend alternative solutions;
- news is brought;
- can give ideas to improve permanent changes;
- can discuss the problem from different points of view;
- can control his actions;
- taking risks;
- work with a team

STEAM innovatsion va istiqbolli fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarga o'z bilimlarini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lish uchun

vositalar bilan ta’minlab beradi. Shaxslarning fikrlash odatlaridan o’rinli foydalanish, dunyoni tushunish va muammolarni mahorat bilan hal qila biladilar.

Attitude to STEAM technology in Uzbekistan

In our country, STEAM technology and its integration into various subjects has become the focus of attention of every subject teacher. In particular, in 2022, STEAM subjects were included in the educational system of presidential, creative and specialized schools, specially established by the order of the head of our state. In this case, students study all subjects included in the STEAM program in English. In order to provide high-quality education, expert teachers from abroad were invited, as well as talented and experienced local teachers were also involved. It would not be wrong to say that the entire education system in our country has changed radically thanks to STEAM technology. After all, the introduction of new technology required a unique environment and equipment. In particular, science laboratories were re-equipped, new manuals, programs and seminars were organized for teachers.

In addition, it is recommended to use this technology in the education of children of primary and preschool age. It is intended to integrate education not by academic subjects, but by "subjects". In STEM education, interdisciplinary communication and design methods are combined, which is based on the integration of natural sciences with technology, engineering creativity and mathematics. In this, preparation for professions related to engineering is carried out. The main goal of introducing STEAM education is to identify the interests of young students from the school age and to direct them to develop their talent and creativity, to educate scientifically inquisitive and creative personnel by implementing innovations. STEAM inspires students, students conduct research as inventors and scientists, learn the possibilities of technology, design as engineers, create as artists, think like mathematicians, and of course, children enjoy learning and apply it in practice.

Conclusion

STEAM technology allows students to acquire knowledge in various subjects and to express this knowledge in English. Traditionally, a fluent English learner knows nothing about Music or Science since he did not spend time studying this subject, instead he studied the English language, its grammar and vocabulary. STEAM has changed this tradition and paved a way to for the English language to be used in the process.

REFERENCES:

1. X.M.Baybayeva “STEAM ta’limi mazmun-mohiyati,ahamiyati” ma’ruza matni.

2. STEM for all educational leadership, December 2014/ January 2015.

3. Jacobs, H.H. (1989). Interdisciplinary curriculum: Design and implementation. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development.

4. Kuenzi, J., Matthews, M., & Mangan, B. (2006). Science, Technology, Engineering, and Mathematics (STEM) education issues and legislative options. Congressional Research Report. Washington, DC: Congressional Research Service.

5. Moore, T.J. (2008). STEM integration: Crossing disciplinary borders to promote learning and engagement. Invited presentation to the faculty and graduate students of the UTeach Engineering, UTeach Natural Sciences, and STEM Education program area at University of Texas at Austin, December 15, 2008.

6. https://cyberleninka.ru/article/n/texnologiya-dasrlarini-tashkillashtirishda-steam-texnologiyasini-qo-llashning-ahamiyati

TRANSPORT TARMOG‘I KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISH

Rahmatullayev Kamronbek Baxtiyor o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Korporativ boshqaruv fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan transport tarmog‘i sektorida faoliyat yurituvchi korxonalarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish yo‘llari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, transport tarmog‘i, korporativ boshqaruv tamoyillari.

DEVELOPMENT OF CORPORATE GOVERNANCE IN COMPANIES IN THE TRANSPORTATION SECTOR

Rakhmatullayev Kamronbek Baxtiyor ogli
Tashkent state university of economics
faculty of corporate governance 4th year student

Abstract: In this article, the author provides information about ways to develop corporate governance in companies in the transportation sector.


Keywords: economy, corporate governance, transportation sector, principles of corporate governance.

Kirish. Korporativ boshqaruv deganda kompaniyani boshqaradigan va nazorat qiladigan qoidalar, amaliyotlar va jarayonlar tizimi tushuniladi. Ushbu tizim kompaniyaning aksiyadorlari, kuzatuv kengashi, mijozlar, ishchi xodimlar, hamkorlar, moliyaviy institutlar, hukumat va jamiyat kabi manfaatdor tomonlarning o‘zaro manfaatlarini muvozanatlashni o‘z ichiga oladi. Ya’ni korporativ boshqaruvning asosiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga jalb etilgan turli shaxslar manfaatlari muvozanatini o‘natishdan iborat[1].

Korporativ boshqaruv konsepsiyasi kompaniyaning faoliyatini, obro‘sini va barqarorligini oshirish salohiyati tufayli so‘nggi yillarda katta e’tiborga sazovor bo‘lmoqda[2].

Korporativ boshqaruv transport kompaniyalarida ayniqsa muhimdir, chunki ular iste’molchilar, tovarlar va ma’lumotlarni chegaralar va qit’alar bo‘ylab olib o‘tish, tashish orqali global iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi (1-rasm). Samarali korporativ boshqaruv transport kompaniyalariga strategik maqsadlariga erishishda, ularning

obro‘sini oshirishda, risklarni boshqarishda va manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratishda yordam beradi[3].




1-rasm. Global yuk tashish salmog‘ining o‘sish prognozlari (mlrd dollarda)[28]

Ma’lumki, har bir mamlakat iqtisodiyotida transport tarmog‘i alohida muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli o‘laroq, transport sektori ishlab chiqarish sohasida zaruriy shartlardan biridir, ya’ni xomashyosiz ham muvaffaqiyatli tovar va xizmatlar yaratish mumkin, lekin asosiy tarkibiy qismi transport infratuzilmasi bo‘lgan transport kompleksisiz uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi[4].

Transport sanoati xilma-xil bo‘lib, havo, quruqlik, dengiz va temir yo‘l kabi turli xil usullarni o‘z ichiga oladi. Har bir usulda ko‘pgina o‘ziga xos holatlar – xavfsizlik, ekologik barqarorlik va innovatsiyalar kabi muammo va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, har bir transport kompaniyasi korporativ boshqaruvda o‘zlarining maqsad va qadriyatlarini aks ettiruvchi moslashtirilgan yondashuvni qo‘llashlari lozim bo‘ladi. Shuningdek, korporativ boshqaruvning umumiy tamoyillari: shaffoflik, hisobdorlik, adolatlilik va javobgarlik barcha transport kompaniyalariga taalluqlidir (2-rasm).

Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari. Shaffoflik kompaniyaning faoliyati, boshqaruvi va xatarlari to‘g‘risida tegishli va ishonchli ma’lumotlarni ommaga oshkor qilishni anglatadi. Transport kompaniyalari o‘z manfaatdor tomonlariga moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlar, xavfsizlik yozuvlari, muhim faktlar, ijtimoiy mas’uliyat hisobotlari kabi ma’lumotlarni o‘z vaqtida hamda aniqlik bilan taqdim etishlari kerak. Shaffoflik kompaniyaga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi va tushunmovchiliklar, korporativ nizolar xavfini kamaytiradi.

[28] Global Logistics Market Report and Forecast 2022-2027. Expert Market Research. 2021.



2-rasm. Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari[29]

Hisobdorlik kompaniya direktorlari va mansabdor shaxslarining kompaniya va uning manfaatdor tomonlari foydasini ko‘zlab harakat qilishlari uchun mas’uliyatni anglatadi. Transport kompaniyalari o‘zlarining direktorlar kengashi, yuqori lavozimli rahbarlari va xodimlari uchun aniq rollar, funksiya va vazifalarni belgilashlari kerak. Hisobdorlik kompaniyaning strategiyasi, siyosati va amaliyoti, uning qarashlari va qadriyatlariga mos kelishini ta’minlashga yordam beradi.

Adolatlilik kompaniya tomonidan barcha manfaatdor tomonlarga nisbatan halol va adolatli munosabatda bo‘lishini anglatadi. Transport kompaniyalari o‘z sarmoyadorlari, majoritar yoki minoritar bo‘lishlaridan qat’iy nazar, ularning huquqlari, manfaatlari va qadr-qimmatini hurmat qilishlari kerak. Adolat ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni rag‘batlantirishga yordam beradi va manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytiradi.

Javobgarlik kompaniyaning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish majburiyatini anglatadi. Transport kompaniyalari o‘zlarining barcha operatsiyalari va munosabatlarida inson huquqlari, mehnat standartlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyat rivojlanishini hurmat qilishlari kerak. Javobgarlik kompaniyaning obro‘sini, raqobatbardoshligini va qonuniyligini oshirishga yordam beradi.

Korporativ boshqaruvning ushbu tamoyillarini amalga oshirish uchun transport kompaniyalari xulq-atvor kodekslari, ichki nazorat, risklarni boshqarish, taftish komissiyalari, ish haqi siyosati va manfaatdor tomonlarni jalb qilish kabi turli mexanizmlarni qabul qilishi mumkin.

Transport kompaniyalarida korporativ boshqaruvning ahamiyati. Korporativ boshqaruv transport kompaniyalarida o'z faoliyatining xususiyatiga ko‘ra ayniqsa muhimdir. Transport kompaniyalari murakkab va qattiq tartibga solinadigan muhitda ishlaydi, bunda xavfsizlik masalasi muhim ahamiyatga ega. Samarali korporativ boshqaruv amaliyoti transport kompaniyalariga xavfsizlikni yaxshilash,

[29] Principles of Corporate Governance by Gagan Dhawan – 07.07.2022.

risklarni boshqarish va qoidalarga rioya qilishga yordam beradi. Biroq korporativ boshqaruv amaliyotda muhim tizim ekanligiga qaramay, transport kompaniyalari samarali boshqaruv amaliyotlarini joriy etishda bir qator muammolarga duch kelishmoqda. Jumladan:

1. Mulkning “parchalanganligi”: Transport kompaniyalari ko‘pincha tarqoq mulk tuzilmalariga ega bo‘lib, kompaniyaning kichik ulushlariga bir nechta aksiyadorlar egalik qilishadi. Bu boshqaruv masalalarida konsensusga erishishni qiyinlashtirishi mumkin;
2. Murakkab tashkiliy tuzilma: Transport kompaniyalari tarkibida bir nechta sho‘ba korxonalari, qo‘shma korxonalar va sherikchilikda tashkil etilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlari mavjud bo‘ladi. Bu javobgarlikning aniq chegaralarini belgilashda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin;
3. Normativ talablar: Transport kompaniyalari xavfsizlik, atrof-muhit va mehnat qoidalarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli tartibga soluvchi talablarga bo‘ysunadi. Ushbu qoidalarga rioya qilish murakkab va ko‘p vaqt talab qilishi mumkin;
4. Madaniy to‘siqlar: Transport kompaniyalari ko‘pincha turli madaniy xilma-xillikda faoliyat yuritadi, bu esa samarali boshqaruv amaliyotlarini amalga oshirishda nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun transport kompaniyalari korporativ boshqaruv bo‘yicha bir qator yondashuvlar va eng yaxshi amaliyotlarni qo‘llashlari mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Kengash tarkibi: Transport kompaniyalari o‘z kengashlari tarkibini turli xil ma’lumotga va tajribaga, jumladan, transport sanoati, moliya, huquq va iqtisodiyot sohasidagi tajribaga ega bo‘lgan kadrlardan iborat bo‘lishini ta’minlashi mumkin;
2. Risklarni boshqarish: Transport kompaniyalari o‘z faoliyati bilan bog‘liq xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish uchun samarador risklarni boshqarish tizimini yaratishi mumkin;
3. Shaffoflik va oshkoralik: Transport kompaniyalari o‘z faoliyati, moliyasi va boshqaruv amaliyoti haqida muntazam va keng qamrovli hisobotlarni taqdim etish orqali shaffoflik va oshkoralikni oshirishi mumkin;
4. Manfaatdor tomonlarni jalb qilish: Transport kompaniyalari manfaatdor tomonlarni, jumladan, mijozlar, investorlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

Xulosa va takliflar. Samarali korporativ boshqaruv transport kompaniyalari muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kuchli boshqaruv amaliyotlarini joriy qilish orqali transport kompaniyalari mas’uliyatli va axloqiy tarzda ish olib borishlarini ta’minlashi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida ularga investorlar, mijozlar va iqtidorli xodimlarni jalb qilishda yordam beradi. Samarali boshqaruv amaliyotlari transport kompaniyalariga risklarni boshqarish, ish faoliyatini yaxshilash va manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratishda ham yordam berishi mumkin.

Korporativ boshqaruvga ustuvor ahamiyat beradigan transport kompaniyalari aniq siyosat va tartiblarni ishlab chiqishga, turli va mustaqil direktorlar kengashini tashkil etishga hamda butun tashkilotda shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashga e’tibor qaratishlari kerak.

Bugungi kunda tobora murakkab va raqobat kuchayib borayotgan biznes muhitida transport kompaniyalari korporativ boshqaruvning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldira olmaydi. Eng yaxshi tajribalarni o‘zlashtirib, mas’uliyatli biznes yuritish madaniyatiga sodiqlik bilan ular o‘zlarini uzoq muddatli muvaffaqiyat va o‘sish uchun zamin yaratishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Xoshimov A.A. “O‘zbekistonda integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish”. T.: 2007.

[2] Castrillón M.A.G. The concept of corporate governance. // Revista Científica "Visión de Futuro", vol. 25, núm. 2, pp. 178-194 – 2021.

[3] Riyandi B. Financially Good Corporate Governance: Case in Transportation Sector in Indonesia. // Universitas Padjadjaran, Indonesia – 2016.

Korxonada jami 2019-yilda 27 nafar, 2020-yilda 29 nafar, 2021-yilda 36 nafar kishi malaka oshirgan. Malaka oshirish kurslaridan o‘tgan korxonaning 2021-yilda ish haqi fondidan 9 nafari malaka oshirish shaklida o‘qitilgan, 3 nafari esa oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun haq to‘langan.



2-rasm. Ta’lim darajasi bo‘yicha

Kompaniya xodimlarining aksariyati oliy ma'lumotga ega, ularning o'qish davridagi tuzilmadagi ulushi taxminan 63% ni tashkil etdi. O'rta ma'lumotli ishchilarning ulushi 15.9% dan ko'p emas, asosan xizmat ko'rsatuvchi xodimlar guruhiga kiruvchi ishchilardir.

O‘rganish natijalariga ko‘ra "O'zbektelekom" AKda amaldagi xodimlarni boshqarish tizimi umuman samarali, degan xulosaga kelish mumkin. Xodimlar ish haqini ma'lum bir xodimning ish faoliyati, uning ish sifati, qo'shimcha to'lovlar va nafaqalarni belgilash va to'lashning shaffof bo'lmagan tizimi, shuningdek ularni tayinlash mezonlari bilan bog'lash imkoniyatidan minimal darajada mamnun. Bu xodimlarning samaradorligini pasayishiga olib keladi, chunki ular o'z mehnatlari natijalari va ish haqi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni sezmaydilar, bu esa

tashkilotning xodimlarni boshqarish tizimining ushbu tarkibiy qismlarini sozlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma‘ruzalari:

1. Mirziyoyev Sh. M. ning ―Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak‖ Toshkent2017

2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Darslik va o‘quv adabiyotlari:

3. Abduraxmonov Q.X., Xolmo’minov Sh.R., Zokirova N.Q., Irmatova A.B. “Xodimni boshqarish” (Darslik) – T.: TDIU, 2011. -31b.

4. Abduraxmonov K.X. va boshqalar. Xodim boshqaruvi. Mehnat nashriyoti. Toshkent 2007 y. 214 b.

5. Базаров Т.Ю. Управление персоналом: Учебное пособие для студ. сред. проф. учеб. заведений / Т.Ю. Базаров. - 4-е изд., М.: Издательский центр «Академия», 2007. - 224 с.

6. Abduraxmonov K.X. va boshqalar. Xodim boshqaruvi. Mehnat nashriyoti. Toshkent 2007y.246 b.

7. Xodimni boshqarish: (O'quv qo‘Ilanma)// Mualli (lar jamoasi: Q. Abdurahmanov va boshq. /.. -T.: «Sharq», 2008,-165 b.

8. Abduraxmonov Q.X., Abduraxmanov X.X. Mehnat resurslarini boshqarish. Taffakkur bo‘stoni. T.2014 y.

9. Taraxtiyeva G. Innovatsion menejment. ― Fan va texnologiyalar markazi‖. 2013 y.

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТ ХУДУДЛАРИДА ПИРОПЛАЗМИДОЗЛАРНИ ТАРҚАТУВЧИ КАНАЛАР ФАУНАСИ

Баратов Ж.
СамВМЧБУТФ в.ф.ф.д.
Камолов Ф.
СамВМЧБУТФ ассисенти
Тухтамишов Н.
СамВМЧБУТФ ассисенти
Менгишев Ю.
СамВМЧБУТФ ассисенти
Ахмедов С.
СамВМЧБУТФ ассисенти

Аннотация: Установлено, что в горных, предгорных, поливных и степных зонах Джиззахской области распространены переносчики тейлериоза Hyalomma anatolicum, Boophilus calcaratus а в степных зонах кроме него Hyalomma detritum. Первый пик заболеваемости крупного рогота скота тейлериозом приходится на март и самый высокий на июль месяц. Первый пик заболеваемости пироплазмозом приходится на апрел и самый высокий пик на август месяц.

Annotation: It was found that in the mountainous, foothill, irrigated and steppe zones of the Jizzax region, carriers of theileriosis Hyalomma anatolicum. Boophilus calcaratus are widespread, and in the steppe zones, apart from it, Hyalomma detritum. The first peak in the incidence of theileriosis in cattle occurs in March and the highest in July. The first peak in the incidence of piroplasmosis occurs in April and the highest peak in the month of August.

Калит сўзлар: тейлериоз, пироплазмоз, Hyalomma detritum, Hyalomma anatolicum, Boophilus calcaratus, тоғ, ҳудуд.

Keywords: tayloriosis, piroplasmosis, Hyalomma detritum, Hyalomma anatolicum, Boophilus calcaratus, mountain, region.

Жиззах вилоят худудларида корамоллар пироплазмидоз касалликларини тарқатувчи каналар ареалини ўрганиш ёз мавсуми давомида Жиззах вилоятининг тадқиқотлар олиб борилган Ш.Рашидов туман “Умед-Б”, “Ж.Пирматов”, Пахтакор тумани “Истиқлол” ва Ғаллаорол тумани “Тоза Уруғ” фермер хўжаликларида олиб борилди.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида яйлов ҳудуд бўлган Умед-Б ф.х.да 30-32 % гача B.Calcaratus, H.anatolicum ва Ж.Пирматов ф.х. даги қорамоллар 28 % гача B.Calcaratus ва18% гача H.anatolicum каналари билан зарарланганлиги


аниқланди, H.detritum каналари эса кузатилмади. Шу билан бир вақтда суғориладиган-ўзлаштирилган Пахтакор туман Истиқлол ф.х. 12% B.Calcaratus, 10% H.anatolicu ва 6% гача моллар H.detritum каналари билан зарарланганлиги, Ғаллаорол туманининг қир-адир худудида жойлашган Тоза Уруғ ф.х. B.Calcaratus учрамаслиги, H.anatolicum билан 12% гача, H.detritum билан эса 20 % гача моллар каналанши аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Жиззах вилоят худудларида пироплазмидозларни тарқатувчи каналар фаунасини ўрганиш нактижалари

Т.р	**Хўжалик**	**Текширилган мол сони**	**B.calcaratus %**	**H.anatolicum %**	**H.detritum %**
1	Ш.Рашидов туман “Умед-Б” ф.х.	65	32	30	0
2	Ш.Рашидов туман “Ж.Пирматов” ф.х.	82	28	18	0
3	Пахтакор туман “Истиқлол” ф.х.	105	12	10	-
4	Ғаллаорол туман “Тоза Уруғ” ё.ф.х.	220	0	12	20

Шундай қилиб, Жиззах вилоятининг Ш.Рашидов, Пахтакор туман худудларида пироплазмоз вабабезиозни тарқатувчи B.Calcaratus, ва тейлериозни тарқатувчи H.anatolicum ҳамда Ғаллаорол туман худудларида эса H.detritum каналари тарқалганлиги аниқланди. Ш.Рашидов туман яйловлик худудларида ва Пахтакор туман ўзлаштирилган-суғориладиган худудларда B.Calcaratus, H.anatolicum каналари, Ғаллаорол туман қир-адир худудларида эса H. anatolicum ва H.detritum каналари тарқалганлиги аниқланди.



1- расм. Жиззах вилоят худудларида пироплазмидозларни тарқатувчи каналар фаунаси

Шундан келиб чиққан холда Ш.Рашидов туман худудларида пироплазмоз, бабезиоз ва тейлериозга қарши ҳамда Ғаллаорол туман ҳудудларида фақат тейлериозга қарши чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жориш қилиш лозимлиги маълум қилинди.

Хулосалар

1. Жиззах вилоятининг тоғ-тоғолди, суғориладиган ва чўл худудларида тейлериозни тарқатувчи Hyalomma anatolicum ва шу билан бир вақтда чўл худудларида Hyalomma detritum, тоғ-тоғолди худудларида Hyalomma anatolicum ва Boophilus calcaratus каналари тарқалганлиги аниқланди.

2. Тейлериоз билан касалланишнинг дастлабки чўққиси март ва энг юқори чўққиси июл ойига тўгри келиши аниқланди, пироплазмоз билан касалланишнинг дастлабки чўққиси эса апрел, энг юқори чўққиси август ойига тўғри келиши аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ғафуров А.Ғ., Давлатов Р.Б., Расулов Ў.И. Қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг протозой касалликлари. –Самарқанд, 2010, 114 б.

2. Узаков У.Я. Иксодовые клещи Узбекистана. Издательство «ФАН» Узбекской ССР., Ташкент 1974 г.

3. Турабоев Н.Ж. Пиропламидоз касалликларининг эпизоотик ҳолати. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Ташкент, 2001. -№4- Б.62-63.

SINF RAHBARINING BO‘SH O‘ZLASHTIRIUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN SINF TARBIYAVIY ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Xolyigitova Nasiba
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti
Tolibjonova Diyora Sanjar qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

Anntotatsiya: Maqolada sinf rahbari faoliyati va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash tartib qoidalari haqidagi tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sinf rahbari, o‘quvchilar, jamoa, kompitentlik, ijodiy faoliyat, ish reja, ota-onalar hamkorligi.

Аннотация: В статье даются рекомендации по деятельности классного руководителя и правила процедуры работы с незанятыми учащимися.

Ключевые слова: классный руководитель, ученики, команда, компетентность, творческая деятельность, план работы, сотрудничество с родителями.

Annotation: The article provides recommendations on the activities of the head of the class and the rules of procedure for working with vacant students

Key words: form-master, pupils, team, competenty, creative work, work plan, collaborating with parents.

Ta’lim muassasalarida sinf rahbari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbkiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli meyoriy xujjatlar sinf rahbari haqidagi Nizom asosida tashkil etiladi.


Sinf rahbari nihoyatda ma’sulyatli va murakkab vazifani bajaradi. U sinfdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, o‘quvchilarning murabbiysi, Sinfni tashkil etadi hamda kamolot tashkilotchilari, o‘qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi. So‘nggi yillarda sinf rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazishda maktab jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi.

Shu nuqtai nazardan Sinf rahbarining ma’suliyati jamiyat oldida rahbarlik ma’suliyatidan kam emas. Shuning uchun maktab direktorlari sinf rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mehnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o‘qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar. Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri bu o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan havasi, e’tiqodi va bilim, qobilyatini

rivojlantirish, kasb-hunarga bo‘lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o‘quvchining bo‘lg‘usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o‘quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro‘sini ko‘tarish, o‘z vaqtida ularga tegishli yordam ko‘rsatish sinf rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

Shuningdek, *sinf rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. shunki, t*ashkilotchilik tushunchasining o‘zi keng ma’noga ega. Maxsus bir maqsadni ko‘zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish sinf rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tashkilotchilik funksiyasi quyidagi elementlarga bog‘liqdir. (1-sxema)



Ma’lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to‘g‘ri taqsimlash, ishga boshqa o‘qituvchilarni, ota-onalar, o‘quvchilar, otaliq tashkilotlari va ish obeyktini aniqlash lozim.

Sinf rahbari bo‘sh o‘zlashtiriuvchi o‘quvchilar bilan quyidagilarni amalga oshirish talab etadi.

1. Har bir o‘quvchini shaxs sifatida o‘rganish.
2. O‘quvchilarning sinfda tarbiyalashni tashkil etish.
3. O‘quvchilarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.
4. Sinfda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish.
5. Fan o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni moslashtirish.
6. O‘quvchilarning ota-onalari bilan ishlash.

Sinf rahbari fan o‘qituvchisi ishlariga nisbatan tarbiyaning ko‘p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik

talablar qo‘ygan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi.

Demak yuqoridagilarga tayangan holda sinf rahbarining faoliyatiga nisbatan qo‘yilgan talablar quyidagilardan iborat**.**

- Yuqori g‘oyaviylik va onglilik.
- Sinf rahbari katta obro‘ga ehtiromga va hurmatga ega bo‘lishi
- Pedagogik mahorat
- Madaniy qobiliyatning mavjudligi
- Pedagogik odobga ega bo‘lish
- Yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtiromda bo‘lish
- Tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bo‘lish
- Tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lish
- Sinf rahbari kasbini yuqoriga ko‘tarish mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo‘lish.

Rasmiy hujjatlarga sinf rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo‘lsa ham biz quyida sinf rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko‘rsatishni zarur deb bildik.

Sinf rahbarining vazifalari:

- ✓ O‘quvchilarning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o‘rganish.
- ✓ O‘quvchilarning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.
- ✓ O‘quvchilarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.
- ✓ Sinfda ishlaydigan fan o‘qituvchilari bilan majlis o‘tkazish,
- ✓ Darsda o‘quvchilarning davomatini ta’minlash, Sinfda va maktabda navbatchilikni tashkil etish,
- ✓ Xonani jihozlash, xonadagi o‘quv asboblarini saqlashga o‘rgatish, o‘quvchilarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o‘tkazish
- ✓ Sinf majlislarini tizimli va tartibli o‘tkazish.
- ✓ «Kamolot» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarini tashkil etish.
- ✓ O‘quvchilarning darsdan tashqari o‘qishlari va anjumanlarini o‘tkazish
- ✓ Sinf o‘quvchilari bilan sport, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko‘rish, o‘quvchilar sog‘ligini muntazam nazorat qilish jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan doimiy aloqada bo‘lish.
- ✓ O‘quvchilarni rag‘batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko‘rish.
- ✓ O‘quvchilarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo‘lish va ular bilan individual suhbatda bo‘lish.

✓ O‘quvchilarning shaxsiy va sinfga oid hujjatlarni tartibli olib borish.

Sinf rahbarida kasbiy faoliyatini tashkil etishda o‘zida quyidagi kompitentlik tulari bo‘lishi talab etiladi.

Kasbiy kompitentlik	O‘z fanini mukammal bilishi
Mafkuraviy kompitentlik	G‘oyaviy e’tiqodi, milliy va umuminsoniy dunyoqarashga egalligi
Boshqaruv kompitentlik	Boshqaruvda pedagogik-psixologik malakaga egaligi
Natijada: Sinf jamosiga ta’lim-tarbiya beruvchi shaxs bo‘la oladi	

Sinfda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida Sinf rahbari o‘quvchilarning ta’lim olishlari Sinfning uyushtirishning tahminiy rejasini tuzadiki bu reja o‘quvchilar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

I. O‘quvchini o‘rganishning tahminiy dasturi:

- **O‘quvchilar to‘g‘risida umumiy ma’lumot.**
- O‘quvchi qayerda yashaydi?
- Ota-onasining kasbi va ish joyi.
- Oila a’zolarining va ularning moddiy ta’minlanganligi
- Oilada ota-onaning o‘zaro munosabatlari
- Oilada o‘quvchinri tarbiyalash xarakteri
- O‘quvchining rejimi
- Oilaning xo‘jalik ishlarida o‘quvchining ishtiroki
- O‘quvchining hayotida eng muhim voqealar
- O‘quvchining sog‘ligi to‘g‘risida ma’lumot

II. **O‘quvchilar ijtimoiy dunyoqarashining** umumiy holati

- Umumiy taraqqiyot (nutq madaniyati dunyoqarashi xarakteri kino, teatr, muzey, sport majmualariga borish)
- O‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabati
- O‘quvchining davomati
- O‘quvchining jismoniy mehnatga munosabati
- O‘quvchining intizomi, xulqi tirishqoqligi
- O‘quvchining qiziqishi (o‘qishga, sportga)

III. O‘quvchining jamoat ishlarida ishtiroki

- Sinfning jamoat ishlarida ishtirok etish
- Jamoat ishlarini bajarishi
- O‘quvchining sinfdagi obro‘yi va mavqeyi

Sinfni o‘rganishning dasturi.

Sinf hayoti

- ✓ Sinfdagi o‘quvchilarning yoshi, ruhiy, fiziologik va gigienik xolatlari.
- ✓ O‘quvchilarning shaxsiy taraqqiyoti, ma’rifatchilik jihatlari.
- ✓ Sinfdagi jamoatchilik ishlari.

Sinfning hamjihatligi va uyushqoqligi

- ✓ O‘quvchilarning o‘zaro munosabati.
- ✓ O‘quvchilarning birgalikda mehnat qilishlari va uning vaqti.
- ✓ Qizlar va o‘g‘il bolalarning do‘stligi hamda hamfikrligi.
- ✓ Jamoa a’zolarini himoya qilish.

Sinfda do‘stlik aloqalarining xarakteri

- ✓ O‘quvchilarning o‘quv yurti va undan tashqarida o‘zaro do‘stlik munosabatlari qanday?
- ✓ O‘quvchilarning bir-biriga nisbatan sezgirlik, kuzatuvchanlik xususiyatlariga egami?
- ✓ O‘rtoqlariga nisbatan talabchanligi
- ✓ O‘rtoqlarning kamchiliklarini ko‘ra biladimi, yo‘qmi?
- ✓ Sinfning a’lochilar, zukko, ishbilarmon o‘quvchilarning darsdan ketib qoladigan, o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarga munosabatari qanday?
- ✓ Jismoniy jihatdan zaif bo‘lgan bolalarga qanday yordamlar beriladi?

Sinf faollari.

- ✓ Faollar hayoti
- ✓ Ularning Sinfdagi obro‘lari.
- ✓ Faollarning o‘rtoqlariga nisbatan munosabatlari.
- ✓ Faollar sinfdan ajralib turadilarmi, sinfdagilar ularni hurmat qiladilarmi yoki yo‘qmi?

O‘quvchilar jamoasining yuqori ko‘rsatilgan usullar bilan holatini o‘rganish o‘qituvchiga ko‘p imkoniyatlar beradi. Tajribali o‘qituvchilar hamma vaqt biror sinfning rahbarligini olishdan avval oldin sinfni batafsil o‘rganadilar, bu esa keyinchalik sinf rahbariga vaqti tejashda, aniq ish rejalarini tuzishda va o‘z faoliyatini o‘quv yili davomida belgilangan tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1..Ahliddinov R. Maktabni boshqarish sa’nati.Toshkent “Fan”2006 y
3.Asqar Hayitov “Sinf rahbari”Toshkent “Yangi asr avlodi”2008 yil.

FACTORS THAT RECEIVED MARRIAGE AND THEIR IMPACT ON THE POWER OF MARRIAGE

Muratova Sh.N.
Department of psychology, Samarkand State Medical University

Annotatsion: This article reveals the importance of forming visions of various aspects of matrimonial maturity (physiological, sexual, economic, spiritual, social, psychological) as well as factors of matrimonial acquisition, perceptions of family life and influence on family strength, and the age of marriage, characteristics of marriage motives, dates and conditions of pre-marriage dating.

Key words: maturation into marriage, sex education, family life, marital motives, sex legal, economic, spiritual-moral, psychological, physiological aspects, clinical observations, puberty, sexual imbalance of the couple, feelings of love, trust and respect.

The so-called sacred space of the family, the strength of the "family castle" depends on the characteristics of the factors that received the marriage, the foundation of this castle, on how correctly and firmly they are laid. If this foundation is mature, solid, then the castle built on it will also be showy, light, which will give comfort, calmness, peace, comfort to those who live in it.

Just as no wall or house is without a foundation, your family to build has its own foundations. They are the factors that led to the emergence, construction of the same family.

If the influence of the factors of the receipt of this marriage on the occurrence of the family is inappropriate, if it is built in a hurry, empty, oblique, the wall of the family gesture mounted on it will also continue to be crooked and savings, and it risks that the same castle will come and fall one day, break down. A castle built on such a foundation cannot bring peace, peace, joy to those who live in it, even if it does not collapse, break down. They constantly have to live in some kind of anxiety, to be scared of, discomfort, embarrassment. So what are these foundations that are the factors that got a marriage? As we go about the factors of the matrimonial marriage, it is worth noting that the factors of the matrimonial marriage consist of a complex of multifaceted factors, which embody many social, economic, biological, physiological, spiritual, moral and psychological factors that are the basis for the occurrence of this or that marriage, and determine to what extent The most important thing here is to what extent these young people can meet family life, marriage requirements.

Features of maturation in marriage

The concept of maturation in marriage is also, in turn, an extremely complex and relative concept. Because a person is a being who is constantly developing and improving, achieving regular new heights in his professional activity or spiritual and moral development. If a person is divided into those who talk about their "full maturity" to this or that activity, then this means that he has reached a certain limit and it is impossible to develop further. That is why the concept of "maturity" cannot be literally appropriate when it comes to the maturation of a person into marriage or any activity. That is why this concept is used only in the quality of a certain universally accepted standard, average norm, a certain conditional "unit of measure", indicators, etc., when talking about the "maturity" of a person, especially marriage, family life. For example, for all educational institutions (school, Lyceum, College, institutes), graduation exams (such as the state examination system, diploma work protection systems) will be available, and with them it will be possible to anic the sum of the average knowledge and qualifications acquired by graduates. This gives them a certain right that they can then continue their studies again or work in a particular specialty. From this point of view, "maturity" - serves as an indicator that determines the qualitative and quantitative characteristic of a certain stage, Phase, threshold of development in a certain anicity.

The question of the maturity of a person to marriage and family life is an indicator of an It is feared that the factors of those cited that received a marriage in their own way are problems of a more complex nature. In the psychological literature, which is devoted to highlighting the social psychological problems of the family of the present time, different forms and manifestations of nikoq Oldi factors are distinguished. Below we bring to your attention information about some of them.individual character, which cannot be measured by any strict norm of extreme complexity..

Among the factors that got married are the young people who are starting this family: their motives for starting a family: the conditions and circumstances of the dating period until they start a family (how long they know each other): they can be included in the family as a consolation. striving for their future family life. Of course, each of these factors can have a different character at a different age, while each of them, in turn, is divided into several more types.

For example, when marriage is called mature, the family is formed by young people: physical (physiological), sexual. legal. economic. spiritual-moral. aspects of maturity such as psychological can be differentiated. Among these, the indicators of legal, sexual maturity are characterized by the fact that they have sufficiently pronounced symptoms, signs and there are aspects in the relevant legal, medical, psychological literature that are given a lot of Information, economic, spiritual and moral, psychological aspects are somewhat more complex, have a strict indicator, have no limits.

For example, when marriage is called maturation of the family-building youth: physical (physiological), sexual. legal. economic. spiritual-moral. aspects of maturity such as psychological can be differentiated. Among these, the indicators of legal, sexual maturity are characterized by the fact that they have sufficiently pronounced symptoms, signs and there are aspects about which a lot of information is given in the relevant legal, medical, psychological literature, while the economic, spiritual and moral, psychological aspects are a little more complex, have a strict indicator, do not have a limit.

The sexual maturity of a person has its own factors. According to clinical observations, in modern girls, sexual maturity (puberty) falls between the ages of 12-14, and in boys-between 14-16. Of course, this maturity can occur earlier in some individuals and later in others. These indicators may vary by 2 years. Some medical scientists believe that it will take another 2-3 years for children to be fully sexually mature.

Sexual maturity leads to the formation of strict sexual needs. By this period, children begin to show secondary sexual symptoms. The activity of the sex secretion glands increases. Monthly cycles (menstruation) in girls, pollusions in boys begin to occur. In other words, a pubertal period begins in them. (A detailed account of this period and its features is given in topic 4). So by this period, in addition to the growing material and spiritual interests of children, sexual needs count from strong sources of personality activity, which begins to manifest itself in various psychological and social forms.

The occurrence of sexual predisposition, sexual need is a specific stage in the fact that a person begins to develop biologically. They have a great influence on the development of the child's psyche, the formation of his personality, other aspects of life activity.

Many problems of sex life will have to be explained not only to young people, but also to adults who have been married for a long time, have children, since many serious conflicts can also arise on this basis. The issue of sexual relations is a sensitive issue, in which "false, Bachelor shyness" is often encountered. Some parents and teachers even Māori leaders object to the issue of sex education at school, and "all the necessary information on sex education, gender issues is given in biology courses, on top of which "our ancestors lived like binoys even without such sexual literacy", - meditated in the tribe. Of course, such a point of view is rather backward, today it is conclusions that are made without taking into account the requirements of marriage-family relations, the functions of the Modern Family. It is in such ways that the importance of any sanitary and hygienic whitening information that gives young people on such sensitive and necessary issues as sexual education is completely underestimated. This

is due to the fact that millions of adolescents remain absent during puberty and, as a result, make irreparable mistakes in life in some cases.

Anxiety, to be scared of which is not justified by anything, and sometimes on the ground of real panic, various deviations, neuromuscular disorders can occur in adolescent behavior. All this is the result of the fact that sanitary and hygienic education is not well established and sexual education is not provided. This issue is an issue that has a very serious essence, especially in our Ethnos.

The issue of sex education is often considered either in the form of an issue that does not require special attention and does not cause any difficulties, which can be easily mastered for each age group, or extremely personal, intimate, which cannot be discussed among many, especially among children. Similar considerations led to the exclusion of sexual education materials, related activities, from the school program in a number of countries, especially in the former Union. In this regard, it is advisable to consider sexual rearing in a way that is inextricably linked with the sanitary-hygienic, psychogenetic information that every person today needs to master, know about the functioning of the organism.

And in family life, having knowledge of the psychology of sex life is an issue of extreme importance. In a comprehensive analysis of the data provided by various specialists, it can be said that in every fourth divorced couple (in 29% of divorces), a violation of sexual musicality in one way or another (sexual imbalance of couple is the cause.

Of course, feelings of mutual love, trust and respect, feelings of commonality of interests and intentions arose at short intervals, and, accordingly, the knowledge of the psychology of sex life for couples who have an urgent family may not be able to help on their own. At such a speed, families that have occurred at a short time (as early as a week or two through matchmakers, relatives) are especially increasing among representatives of our nationalities in recent years. Without a complex of likes and positive emotional feelings of young people towards each other, the effect of these bi-LIMS will be low. They coordinate the intimate life of the couple only in cases where the couple liked each other, attractive to each other. On the other hand, it is also not necessary to give up the problems of the psycho hygiene of sexual life in marriage as some kind of "unkempt, shameful thing". Because, in most cases, scientific knowledge in the field of psycho hygieneof sex life can help young couple get rid of the sad mistakes that can be allowed and thus maintain their own marriage. Thus, sexual maturity is a phenomenon in which the anatomy and physiology of a person is sufficiently clear and clear from the point of view. However, its psychological, moral aspects are extremely complex. That is why, when a person is called sexual maturity in marriage, referring to its physiological punctuation, knows the full essence of sexual maturity, in addition, it is necessary for a person to have both the necessary scientific

psychological knowledge and the right perceptions in relation to the psychogenesis of sexual life. This is a process that undoubtedly requires special attention, special training, training. In addition to the issue of sexual maturity of young people to marriage, several other types of social maturity can be distinguished, as mentioned above. These are: sexual, civil, professional, socio-economic, spiritual, moral and psychological maturity. Among these, the sexual (physiological) maturity of young people is realized much earlier than in others, we will dwell below on what other set of problems may arise in connection with these issues. Civil. legal maturity is determined by the legal age of puberty of this person, by the fact that he is legally considered a person who has the right to build a family, have children. In our country, this is indicated as 18 years old. At this time, he will be able to enjoy all the rights and mandatory-yachts established in the Constitution. Age 18 can be considered the legal maturity age of a person. Professional maturity is also a much more complex concept. Its complexity is that, on the one hand, it is determined by the completion of some kind of educational institution, training courses, that is, by having the special knowledge necessary to carry out a certain type of work. However, a person after graduating from one or another educational institution (College, Lyceum, Technical School, Institute) will have to work for several years in the profession of his choice, and only then it is possible to talk about his occupation.

At the same time, it is possible to achieve professional maturity in some professions as early as the age of 19-20, while in others, for example, in the surgeon-Doctor, this can be achieved when he reaches the age of 29-30 later. Another aspect of personality maturity is socio-economic maturity. It implies that a person can provide for himself and his own family independently financially. Of particular importance in the family development of young people is their economic independence. In this place, too, there are different age limits, young people, some of whom, as early as 18-19 years old, can achieve economic independence from their parents ' family, while others, even at the age of 25-30, use the financial support of their fathers.

Among these maturation aspects, it is most complicated to talk about the spiritual and moral maturity of an individual. Because a clear criterion and description of this aspect has not yet been developed.

Thus, the concept of" maturity " embodies many aspects in itself. It is worth mentioning that the concept of "maturity" is necessarily inextricably linked with a certain life experience, that is, with "vital knowledge". There are also specific individual characteristics of" mastering vital knowledge", passing through" life universities". Someone "gets to know life well" when they are 20 years old, and someone remains in childhood even at 30 years old. This is influenced by the existing social conditions, the public and the social order. It is known that in previous times, especially during the war years, children experienced life difficulties that even adults

could not cope with all the time. At that time, children from 1214 years old helped their mothers to support the family. Also, those children who live in urban and rural areas, with few children and many children, growing up in nuclear or multi-class families, also contribute to the material, social security of the family, the duration and amount of work involved in these activities are different. Knowing life, life experiences can be carried out at different speeds in different individuals, and it is absolutely impossible to show some kind of age, time frame in this place. On top of that, knowing life, the surrounding world that surrounds us, is in turn endless. Nevertheless, it is possible to establish certain minimum limits of social and economic maturity, that is, there is such a life experience, a "minimum" of knowledge, without which it is impossible to consider any age, a young man, to be literally mature.

Here is how broad the concept of self-sufficient "maturity" of the above is. Again we are obliged to use it. Because it embodies important conditions, situations that determine the strength of marriage.

List of references:

1. Оилани ўрганиш психодиагностика методикалари. Тузувчилар: Н.А.Соғинов, Ф./.Ҳабибуллаев. –Т.,: 1996. –38 б.

2. Оила психологияси. Академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари учун. //.Б.Шоумаров таҳрири остида. –Т.:, «Шарқ», 2000. –272 б.

3. Саматов Г. Қалтис саволларга нозик жавоблар. (Жинсий муносабатларга бағишланган илмий-оммабоп рисола). –Т.:, 1992. –48 б

4. СогиновН.А. Социально-психологическое особенности удовлетворенности браком в узбекской семье. Дисс. канд. психолог. наук. – Киев.:, 1990. –213 с. 26. Станков А.Г. Что надо знать до брака и после браке. – Т.:, Мэдицина, 1981. –351 с.

5. Ходаков Н.М. Ёш келин-куёвларга. 3-нашр. –Т.:, 1990. –173 б.. Ҳусайн Воиз Кошифий. Фатувватномаий Султоний: ёҳуд жавонмардлик тариқати. –Т.:, 1994. –111.

6. Шахс инқироз ҳолатининг ижтимоий-психологик сабабларини ўрганиш ва уларни бартараф этиш. -Т.:, 1997. – 39 б.

7. Ғ.Б.Шоумаров, И.О.Ҳайдаров “Оила психологияси” ўқув қўл. Академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари учун. 2008 й. “Шарқ” нашриёти. 294 б.

8. Муратова Ш.Н. Ўсмир ёшдаги ўғил болаларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимлий жиҳатлари. ЎзМУ хабарлари, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 2020, 6-сон, - Б. 91-95, [19.00.00 №10]

9. Муратова Ш.Н. Ўғил болаларни оилавий ҳаётга тайёрлаш муаммосининг илмий-назарий асослари ва унинг ўрганилганлик ҳолати. ЎзМУ хабарлари, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 9-сон, - Б. 82-86, [19.00.00 №10]

10. Муратова Ш.Н. Отанинг фарзандлар тарбиясидаги ўрни. Таълим, фан ва инновация, илмий ахборотнома. 2022, 5-сон, - Б. 82-86, [19.00.00 №10]

11. Ўғил болаларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари. СамДУ илмий ахборотнома. ISSN: 2091-54-46, 2020, 6-сон (124), - Б. 100-105. [19.00.00 №10]

12. Муратова Ш.Н. Никоҳ олди омилларининг йигитларни оилавий ҳаётга тайёрлашдаги ижтимоий-психологик имкониятлари. БухДУ психоло-гия илмий журнал. ISSN 2181-5291, 2021, 3-сон, - Б. 84-90. [19.00.00 №10]

13. Муратова Ш.Н. Оилада ўғил болаларни педагогик ва психологик тарбиясида назарий қарашлар таҳлили. НамДУ илмий ахборотномаси. ISN: 2181, 2019, 6-сон, - Б. 409-415, [19.00.00 №10]

14. Muratova Sh.N. Problems of youth for family life. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, /ISSN: 1475-7192, Volume 24, № 10, 2020, https://www.psychosocial.com/ p. 282-291.

15. Muratova Sh.N. The place of the psychological environment in the family to increase student activity in the educational process. //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) ISSN: 2278-4853 Impact Factor: SJIF 2020/882 "RESEARCH INVESTIGATIONS OF GLOBAL WORLD ON PANDEMIC TIME" MAY 2020, DOI NUMBER: 10.5958/2278-4853, ISSN: 2278-4853, Volume 9, № 5, May, 2020, https://www.tarj.in. p. 8-11.

16. Muratova Sh.N. MARRIAGE AGE AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF EARLY MARRIAGE. // European Scholar Journal (ESJ). Available Online at, ISSN: 2660-5562, Volume 2, № 3, March, 2021, https://scholarzest.com /p. 27-30.

1.

АХБОРОТ ҚАБУЛ ҚИЛИШДА ИМКОНИЯТЛАР, ҚУЛАЙЛИКЛАР, ТАЪСИРЛАР ВА МАҚСАДГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК ҲОЛАТИ

Ш.Б.Турсунова
Урганч давлат педагогика институти
катта ўқитувчиси (PhD)

Резьюме: Ушбу мақолада ахборот ва ахборотнинг ижтимоий аҳамияти, оммавий ахборот воситаларининг турлари ва фаолияти, уларнинг жамият ижтимоий ҳаётида аҳамияти, интернет журналистиканинг оммалашуви, шунингдек жамият аъзоларига онгига психологик таъсири каби масалалар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: ахборот, ахборот хавфсизлиги, ахборот технологиялари, оммавий ахборот воситалари, интернет, интернет журналистика, нейролингвистик дастурлаш, ахборот уруши.

Ҳар бир оммавий ахборот воситалари аудиторияга ўзига хос таъсир этиш кучига эга. Интернетгача уларнинг ичида энг самаралиси телевидение эди, чунки у томошабинга уч йўл билан ахборот етказади: тасвир, овоз ва мантиқ. Шунинг учун телевидение оммавий равишда тарқалганидан кейин беш-ўн йил ичида беш юз йиллик тарихга эга бўлган матбуотдан ўзиб кетди. Радиога ҳам катта кучга эга, чунки у икки канал орқали таъсир кўрсатади овоз ва мантиқ. Унинг афзаллиги – жонли овоз ёрдамида аудитория билан мулоқот қилиш, бундай усул ахборот манбаи билан тингловчи ўртасидаги масофани йўқотади. Инсон овози, уни юракдан чиқиши, ундаги ҳаяжон ва самимийлик радионинг имкониятини кескин оширади.

Матбуотнинг ўқувчи билан мулоқот йўли эса асосан мантиқий исботдан иборат, бундай таъсирга маълум миқдорда тасвир ҳам қўшилади: газетадаги расмлар, ранг, сарлавҳалар кўринишлари.

Психологик таъсир инсон ахборотни қабул қилиш йўллари билан боғлиқ: кўриш, эшитиш, таъмини билиш, ҳидини сезиш, қўл билан тегиш, фикрлаш ва х.қ. Ахборот хавфсизлиги масаласига келганда психологик таъсир кўпроқ оммавий ахборот воситалари ёрдамида амалга оширилади, шунинг учун улар мутахассислар томонидан тинмасдан мукаммаллаштирилмоқда. Натижада ривожланган мамлакатлар матбуот, радио ва телевидениенинг барча имкониятларини ўзида мужассамлаштирган интернетдек юқори технологияга эга бўлдилар.

Интернет оммавий коммуникация таъсирини энг баланд поғонага кўтарди. Сайтга жойлаштирилган маълумот бирдан бутун дунё бўйича тарқалиб кетади.

Унинг адади (тиражи) эса чексиз. оммавий ахборот воситаларининг роли интернетгача ҳам кучли бўлган, энди эса уларнинг таъсири тасаввур қилиб бўлмайдиган даражага етди, оммавий ахборот воситаларидан ташқари интернет реклама, маълумотлар етказиш, электрон почта хизматларини ҳам бажаради. Энг қулайи шундаки, интернетдаги маълумот жуда кўпу арзон ва ўта тезкор.

Интернетни кўп мутахассислар ҳарбийларнинг ихтироси деб айтади. Аслида эса дастлабки босқичда уни АҚШдаги тўртта университет кашф этди. Мазкур университетлар компютерларини бир тизимга бирлаштириб, ўзаро кутубхоналаридан фойдалана бошладилар. Пентагон эса бундан тез хабар топди. Ва ихтиронинг имкониятларини ўрганиб, ундан ҳарбий қумондонликни такомиллаштириш мақсадида олимларни жалб этиб, уларга барча шароитларни яратиб, арпанетни (интернетнинг биринчи номи) ўз мақсадларига йўналтирди. Узоққа бормай ундан журналистлар ҳам фойдалана бошлади. Натижада интернет журналистикаси пайдо бўлди.

Интернет журналистикаси – катта ва муҳим мавзу, уни маърузанинг бир қисмида очиб беришнинг иложи йўқ[35]. Шунинг учун биз фақат унинг ижобий ва салбий томонларини айтиб ўтамиз. Интернетнинг қулайликлари: арзон, тезкор, техник жиҳатдан материалларни жойлаштириш қийин эмас, маълумотларни катта ҳажмда ўрнатиш мумкин, уларни турли тилларга ўгириш осон, ахборот чегара ва масофани билмайди ва ҳ.к. Салбий оқибатлари: хоҳлаган одам истаган ахбороти билан виртуал майдонга тўсиқсиз кириб келиши, назорат йўқлиги ва шу туфайли террористик ҳамда порнографик маълумотлар ўта кўплиги, космополитик ғоялар ҳамда “универсал маданият” кенг тарқалиши, давлат роли пасайиши, тармоқ ёрдамида демократик фундаментализм ривожланиши ва бошқ.

Нейролингвистик дастурлашни айрим мутахассислар (масалан, Г.Г.Почепсов) томонидан унга ҳеч нарсани қарши қўйиб бўлмайдиган шприц таъсирига қиёслайдилар. Бундай ўхшатишда маълум бир ҳақиқат бор. Агар бирор-бир ғояни, у ёлғон бўлса ҳам, оммавий ахборот воситалари ҳаддан ташқари кўп ва турли шаклларда такрорлаверса, аудитория (гарчи у ушбу ғояга дастлабки босқичда ишонмаган бўлсада) бориб-бориб кейинча унга ишонадиган бўлади. Ҳар хил услубларда, барча оммавий ахборот воситаларида маълум бир фикрни такрорлаш одамнинг остки онгига таъсир этади ва у ушбу фикрга ишонадиган бўлади. Мазкур жараённи мутахассислар нейролингвистик дастурлаш деб атайди.

Агар радио, телевидение ва матбуотда айрим давлат, гуруҳ ёки шахс ҳақида қайта-қайта бирор-бир нотўғри баҳо такрорланаверса, турли мамлакатлардаги халқлар, ҳар хил миллатлар унга ишонадилар. Нейролингвистик дастурлаш учун

[35] Қаралсин: Калмиков А.А., Коханова Л.А. Интернет-журналистика. М.: ЮНИТИ–ДАНА, 2005.

энг қулай оммавий ахборот воситалари телевидениедир, чунки у аудиторияга бир пайтни ўзида учта канал орқали ўз таъсирини ўтказади. АҚШ коммуникативистлари телевидениени ҳатто транквилизаторга ҳам ўхшатадилар.

Янгиликларнинг кўринишлари ҳар хил бўлади: воқеа, ҳодиса, рақам, фамилия, лавозимлар, жойлар номлари акс эттирилган хабар, лавҳа, репортаж, маълумотномалар ва х.к. Бугунги кунга келиб янгиликларни етказиш усуллари ғоявий курашнинг катта бир йўналишига айланиб қолди. Ушбу соҳада эса нафақат журналистлар, улар билан бир қаторда сиёсатшунослар, политтехнологлар, иқтисодчилар, психологлар, қисқаси, оммавий ахборотни оммага етказадиган барча мутахассислар устаси фаранг бўлиб кетганлар. Уларнинг маҳорати шу қадар ривожланиб кетдики, янгиликдан, унинг мазмунидан қатъий назар, қандай хулоса чиқариш керак бўлса, шундай тарзда у аудиторияга етказилади. Фактларни эса керакли тартибда тизимлаштириш қийин эмас, уларнинг кетма-кетлигининг ўзи аудиторияга керакли маълумотни беради ва ахборот етказувчи учун зарур бўлган дунёқарашни шакллантиради.

Ахборот уруши таърифини биз юқорида келтирган эдик. Ушбу фикрни давом эттирамиз. Ахборот урушининг хусусиятлари қуйидагилардан иборат. Биринчидан, ахборот қуролини ишлаб чиқиш унча ҳам қиммат эмас ва бу ишни турли соҳалар мутахассислари бажариши мумкин. Иккинчидан, чегараларнинг нисбийлиги: давлатлар, қонуний ва ноқонуний ҳаракатлар, ҳарбий ва ноҳарбий жанглар ўртасида ва х.к. Учинчидан, ҳужумнинг олдини олиш ноиложлиги. Тўртинчидан, зарарни ҳисоблаб чиқиш мураккаблиги. Бешинчидан, ҳарбий блоклар, бирлашмалар тузиш қийинлиги ва ҳ.к.

Ахборот қуролининг кенг ва тор маънолари бор. Кенг маънода ахборот қуроли деб рақибни керакли йўналишда фикрлашга ундайдиган, унинг нуқтаи назарини ўзгартиришга қодир бўлган ва керакли ахборот ёрдамида амалга ошириладиган ҳаракатларга айтилади. Тор маънода ахборот қуроли деб рақибнинг ахборот заҳиралари устидан назоратни таъминлайдиган ва унинг телекоммуникатсиялари тизимларига зарар етказа оладиган техникавий усуллар ва технологияларга айтилади. Демак, ахборот қуроли – бу рақибнинг ахборот ва бошқарув тизимларига таъсир этувчи махсус мослама ва воситалар. Табиийки, ахборот технологиялари ривожланган мамлакатлар томонидан бундай қуролдан фойдаланиш имкониятлари жуда кенг[36].

Ахборий қарама-қаршиликнинг мақсади – дунёвий (глобал) ахборот майдонида миллий манфаатлар химоясини таъминлаш. Мазкур масқадга эришиш эса турли мамлакатлар томонидан турлича амалга оширилади: технологик кучли давлатлар ҳукмронлик қилишга интилади, ривожланаётган

[36] Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990. –180 б.

давлатлар эса ўзини ҳимоялашга ҳаракат қилади. Иккала томон ҳам ўзига қулай келадиган усуллардан фойдаланади.

Аммо шуни ҳам айтиш керакки, технологик жиҳатдан кучли давлатнинг ахборий хужуми бошқа мамлакатлар аҳолисига катта психологик зарар этказади. Чунки бундай урушни тўхтатайдиган ва агрессор-давлатга нисбатан чора кўриш учун имконият яратадиган ҳалқаро меъёрий ҳужжат йўқ. Ривожланган мамлакатлар ушбу вазиятдан кенг фойдаланмоқдалар.

Хорижий оммавий ахборот воситалари экспансиясидан ҳимояланиш учун энг қулай чоралардан бири – маҳаллий оммавий ахборот воситалари. Ўзбекистон шароитида бунинг учун миллий газета, радио ва телевидениемизнинг имкониятлари бор, фақат улардан самарали фойдаланишимиз зарур. Бунинг учун бош омил ва мустаҳкам фундамент – миллий истиқлол ғоясидир.

Оммавий ахборот воситалари соҳасида бевосита ҳалқаро корпорациялар кам ва улар дунё бўйича ахборот тарқатиш жараёнига катта таъсир кўрсатолмайдилар. бундай оммавий ахборот воситалари сифатида биз Сиенен ва Би-би-си, эвронюс ва ТВ–5, Ассошиейтед Пресс ва Франс Пресс, Рейтер ва ИТАР-ТАСС, Америка овози ва Дойче Веллеларни тилга олишимиз ўринлироқ бўларди. Ушбу ахборот манбалари АҚШ, Буюк Британия, Франция, Германия ва Россияларга тегишли бўлиб, улар нафақат юқори тезлик ва катта хажмда, шу билан бир қаторда турли тилларда маълумотларни тарқатадилар. Масалан, Би-би-си телерадиокорпоратсиясининг ўзбек тилидаги сайти, Америка овози радиостанциясининг эса ўзбек тилидаги бўлими бор.[37] Биз улар Ўзбекистон ҳақида тарқатадиган материалларга бефарқ бўла олмаймиз.

Табиийки, бундай ахборот манбалари, энг аввало, иқтисодий жиҳатлардан бақувват давлатлар томонидан уларга хос ва мос бўлган қадриятларни, жумладан, ғарбий кўринишдаги “Демократия стандартлари”ни тарқатади. Бу ҳақда биз қисман юқорида айтиб ўтдик. Бунинг сабаби нимада, деб ўзимизга савол берсак, жавоб қуйидагича бўлиши мумкин. Гап шундаки, ҳар бир ҳалқ ёки миллат тарихий ривожланиб ва шаклланиб келган ва ушбу кўп асрлик жараённинг ўзи қайси бир яшаш усули тўғри ёки нотўғри эканлигини исботлаб берган. Агар устига устак у ёки бу халққа мана бундай яшанглар, бу тўғри бўлади деб, уни шунга мажбурласа, албатта, бундай зўравонлик, жумладан, “демократик фундаментализм” кўпчилик томонидан қабул қилинмайди. Агар хорижий оммавий ахборот воситалари ёки ташкилотлар Ўзбекистон худудида умуминсоний қадриятларни тарқатишга ёрдамлашса, улар ўзбекистонликлар томонидан яхши қабул қилинади. Бунга мисол сифатида мамлакатимизда кўп йилдан бери фаолият кўрсатадиган Конрад Аденауер ёки Фридрих Эберт жамғармаларини айтиш мумкин.

[37] Эргашев Қ. Ёшларнинг маънавий тарбияси. Тошкент: Маънавият. – 1999, 38 б.

Алоҳида бир одамнинг руҳияти жамоа руҳиятига тенг эмас, албатта. Энг қизиғи шундаки, жамоа руҳиятида онгсизлик даражаси баландроқ. “Ум хорошо, два лучше (бир ақл яхши, икки ақл янада яхши)” деган рус мақоли оммавий ахборот воситалари хабарларини оммавий қабул қилинишига тўғри келмайди. Оммавий таассуротда оммавий ахборот воситалари томонидан айтилган гапларга бирдан ишониш, ваҳимага тушиш, салбий информацияга кўпроқ берилиш кайфиятлари анча кучли. Буни Карл Юнг “жамоавий ахборот воситалариий онгсизлик” (“коллективное бессознательное”) деб таърифлаган ва бугунги кунда ушбу психологик категорияни топиб, уни исботлаб берилгани Юнгнинг буюк кашфиёти деб ҳисобланади.

Ахборотдан фойдаланиш маданияти ҳеч қачон ўзидан ўзи келмайди, бундай маданият бир қатор омилларга боғлиқ. Биринчидан, ахборот истеъмолчилари юксак шахсий маданиятга эга бўлишлари лозим. Иккинчидан, оммавий ахборот воситалари ва бошқа манбалардан келаётган маълумотни мағзини чақиб, унинг муаллифларини мақсадларини англаб олиш керак. Учинчидан, касбий ўсиш ва шахсий дунёқарашни ривожлатирадиган маълумотларни олиб, кераксиз ахборотни тез эсдан чиқариш зарур ва ҳ.к.

EFFECTIVE USE OF FUTURE TEACHERS' INNOVATIVE PROCESS-BASED EDUCATIONAL METHODS IN PRACTICE

$$\delta = П_\delta \cdot \frac{1}{2} \cdot \sqrt[3]{\frac{9}{4} \cdot \eta^2 \cdot E \cdot \kappa \cdot P^2}$$

Р – иккита қисилувчи жисм орасидаги кучланиш.

Изланишлар натижаларига назар ташлайдиган бўлсак ўрта толали пахта навларининг ўтувчи юзалар билан ўзаро боғланишида айнан тола билан ўтувчи қирра орасидаги контакт зонасида r_m=0,1 мм радиусли қиррада P_0=40-50 Н/м^2 контактли босим шароитида толаларни шикастланиши кузатилади.

Ингичка толали пахталар учун рухсат этилган контакт босими 70-90 Н/м^2 оралиғида жойлашганлиги кузатилган.

Юқоридаги катталикларни ва юза силлиқликларини баҳолашда тола ва ишчи органларини ўзаро боғланишларини муҳим томонларини ҳисобга олган ҳолда айнан икки компонентнинг ишқаланишини инобатга олиш лозим.

Толаларнинг қаттиқ жисмларга (ишчи органларга) нисбатан паст механик хоссалари уни шикастланишига олиб келади.

Натижалар. Толаларни чигитдан ажратиш жараёни мураккаб механик жараён бўлиб, арралар, хом-ашё валиги ва колосникли панжара ҳамда чигит тароқларининг мутаносиблигини таъминлаган ҳолатда юз беради. Толалар чигитдан ажралиши учун эса хом-ашё валиги маълум бир зичликка эга бўлиши керак, бу эса ўз навбатида ишчи органларни тез емирилишига сабаб бўлади, шу сабабли арралар ҳар 48-50 соатда, колосникли панжаралар эса ҳар 3-4 ой ичида қайта таъмирланади ёки тўлиқ алмаштирилади.

Чигитли пахтани жинлаш – бу толани чигитдан ажратиш жараёнидир. Чигитли пахтага таъсир принципи буйича жинлаш аррали ва валиклига бўлинади.

Жинлар иш режимларини тўхтовсиз ва объектив ростлаш зарурлигини исботлаш учун асосий ва технологик характеристикаларни аниқлаш имконини ва уларни бошқариш усулларини бошланғич тадқиқотлари ўтказилган.

Аррали жин ишчи камерасининг унумдорлиги назарий йўл билан қуйидаги формуладан аниқланади:

$$П = \frac{Q}{\tau_{ўр}} A, \qquad (2.10)$$

бунда $П$ – ишчи камерасининг тола бўйича унумдорлиги;

Q – хом-ашё валигининг оғирлиги;

$\tau_{ўр}$ – ишчи камерасида тола ва чигитни ўртача бўлиш вақти;

A – жинлаш жараёнининг ўзгармас характеристикаси.

(2.10) формуладан кўринадики, ишчи камерасининг унумдорлигини хом-ашё валиги оғирлигини ошириб ёки ишчи камерасида тола ва чигитни ўртача бўлиш вақтини камайтириб ошириш мумкин. Лекин хом-ашё валиги оғирлигини оширилиши камеранинг кўдаланг кесим юзасини катталаштиришга олиб келади. Натижада хом-ашё валигини ишчи камераси деворларига қўшимча ишқаланиш кучлари ҳосил бўлади, бу эса уни ҳаракатини секинлаштиради.

Жинлаш жараёнида чигитли пахтадан ажралаётган тола ва чигит сифатининг аниқловчи факторлари ичида энг муҳими бу хом-ашё валигининг зичлигидир. Левкович Б.А., Байдюк П.В., Роганов Б.И., Гулидов Н.Г., Тиллаев М.Т., Фазилдинов С., Худайқулов Н.Х., Усманов Х.С., Сафаров Н.М. томонларидан ўтказилган аррали жинлаш соҳасидаги тадқиқотлар кўрсатадики, хом-ашё валигининг зичлиги ортиши билан тола ва чигитнинг сифат кўрсаткичлари ёмонлашади.

Жинлаш жараёнида хом-ашё валигининг массаси ва зичлиги ўзгарувчан бўлиб ишловга берилаётган чигитли пахта ва чиқаётган жинлаш маҳсуллари бўлган чигит ва тола миқдорлари орасидаги динамик мувозанат билан белгиланади. Мазкур динамик мувозанат жинлаш жараёни бошланишидаги тахминан 15 минут давом этадиган юргизиш вақти давомида оператор томонидан ўрнатилади. Технологик жараён давомида динамик мувозанатга таъминлашнинг тасодифий ўзгаришлари, тишларнинг ўтмаслашуви каби омиллар таъсирида жиннинг жинлаш қобилиятининг пасайиши, чигитли пахта таркибидаги, физик ва технологик параметрларидаги ўзгаришлар, яъни намлик, ёт қўшилмалар миқдори ва таркибининг ўзгариши натижасида қайишқоқлик ва ишқаланиш кучининг ўзгариши тўхтовсиз таъсир қилиб, мувозанатни бузади. Бу мувозанатнинг бузилиши жиннинг хом-ашё валиги зичлигини ўзитекислаш имконияти доирасида бўлганида тола ажратиш жараёни янги режимга ўтиб барқарорлашади, акс ҳолда технологик жараён бузилади ва оператив чора кўрилмаганда хом-ашёнинг камерада тиқилиб қолиши рўй бериши мумкин. Бунинг олдини олиш учун кўриладиган чоралар ҳолатнинг характери ва ривожланиш жадаллигига қараб таъминотни камайтириш, уни тўхтатиш ва охирги чора сифатида жинни тўхтатиш ва хом-ашё валигини ағдариш ва технологик жараённи бошқатдан бошланиши бўлиши мумкин.

Хулоса. Жиндаги таъминлаш ва чиқариш орасидаги динамик мувозанатни ўзгартирувчи юқорида келтирилган омилларнинг барчасини оператив назорат қилишнинг техник, иқтисодий ва технологик мақбул усуллари мавжуд эмас. Шунинг учун хом-ашё валигининг массаси ва зичлигининг ўзи билан иш

кўришга тўғри келади. Аммо хом-ашё валигининг зичлигини оператив назорат қилиш учун яратилган механик, электромеханик ва электрон сезгич воситаларнинг ҳеч қайсиниси сезгирлик, аниқлик, ишончлилик каби энг зарур технологик талабларга тўла жавоб бермайди ва шунинг учун амалда қўлланилмади. Баъзи илмий тадқиқотларда тасдиқланган ишлаб чиқариш тажрибасига мувофиқ хом-ашё валигининг зичлиги оператив ҳолатда амалда аррали цилиндр электромотори истеъмол қуввати ёки унинг статор юклама токи катталиги бўйича баҳоланади. Аммо хом-ашё валиги зичлиги ва электромотор статори юклама токи орасидаги боғланишнинг миқдор ва сифат кўрсаткичлари илмий тадқиқотларда ўз ифодасини топмаган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, Jurayev Yuldashhon Yunuskhan Ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman o'g'li, GENERAL INFORMATION ON THE IMPORTANCE OF FEEDSTOCK DENSITY AND SPEED IN THE FIBER SEPARATION PROCESS, ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, International scientific-online conference, October 20, 2022, https://doi.org/10.5281/zenodo.7229260
2. Samad S.Azimov, Ibrohimjon T.Tursunov, Khasanboy S.Yuldashev, DEVELOPMENT OF THE DESIGN OF A FEEDER OF VIBRATION ACTION FOR SUPPLYING COTTON SEEDS TO LINTER MACHINES Proceeding IX International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2022, Volume IV M. Auezov South Kazakhstan University, Shymkent, Kazakhstan December 09-10, 2022
3. Yuldashev Khasanboy, Komiljon Abduraximov, Maftuna Inamova, Kamoldin Mirgulshanov, Study Of The Process Of Cleaning Seedcotton INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES "SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD" CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:44-50. https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf14
4. Yuldashev Khasanboy, Maftuna Inamova, Mansur Qobilov, Abrorbek Abduxaliqov, Effect Of Moisture Continent In The Process Of Storing, Drying And Cleaning The Seed Cotton. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES "SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD" CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:34-39. https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf14
5. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Kurbanov Dilmurod Maripjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Jurayev Yo'ldashxon Yunusxon O'g'li, INVESTIGATION OF LOSING FIBER DURING CLEANING COTTON. «Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, May 18, 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.6559924
6. Sharipov Xayrullo Numonjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Jurayev Yo'ldashxon Yunusxon O'g'li, Urinboyev Bekzod Baxtiyor o'g'li,

“RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES. RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES”. https://doi.org/10.5281/zenodo.6559910

7. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon O’gli, Sharipov Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON “O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI 20-MAY, 2022-YIL

8. Sulaymonov Abror, Inamove Maftuna, Yuldashev Khasanboy, THEORETICAL STUDIES OF THE NATURE OF THE INTERACTION OF COTTON SEEDS IN THE GAP BETWEEN THE AGITATOR BLADE AND THE SAW CYLINDER, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020 Online: 18TH October 2022. Pages: 666-672. https://doi.org/10.5281/zenodo.7218857

9. Jurayev Yuldashhon Yunusxon ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman ugli, Tuhktaev Sherzod Solijanovich, INVESTIGATION OF FIBER LOSS IN IMPURITIES FROM THE SS-15A SEPARATOR. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020.Pages:425-431. https://doi.org/10.5281/zenodo.7193675

10. Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon o’g’li, Qurbanov Dilmurod Maripjanovich, Maxmudova Gulshanoy Odiljon Qizi, INVESTIGATION OF FOREIGN LINT CLEANING SYSTEM TECHNOLOGIES. PEDAGOGLAR legal, medical, social, scientific journal, Pages:151-161. https://doi. org/10.5281/zenodo.5813657

11. Yo’ldashev Hasanboy Sulaymon o’gli, Xoshimov O ’tkirbek Xakimjon o’g’li, O ’rinboyev Bekzod Baxtiyor o’g’li, STUDY OF CLEANING PROCESSING OF SEED COTTON IJODKOR O‘QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL 5 NOYABR / 2021 YIL / 12 – SON.Pages:209-213.

12. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich. Yo’ldashev Xasanboy Sulaymon O’gli, Sharapov Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI.20.05.2022. Pages:448-455

ТОЛА АЖРАТИШ ЖАРАЁНИДА ХОМ-АШЁ ВАЛИГИ ЗИЧЛИГИ ВА ТЕЗЛИГИ ТАҲЛИЛИ

Шарипов Хайрулло Нуъмонжонович
Наманган муҳандислик-технология институти, PhD.
Рустамова Фотимабону Хуршеджон қизи
Наманган муҳандислик-технология институти, магистрант
Қурбонов Адхамжон Тўланбой ўғли
Наманган муҳандислик-технология институти, магистрант
Адашбаев Даврон Абдумажит ўғли
Наманган муҳандислик-технология институти, магистрант

Annotation. Пахта хом-ашёсининг дастлабки ишлаш жараёнида у бир неча бор пахта тозаловчи машиналарнинг ишчи органларини таъсирига учрайди. Зарбанинг катта кучи натижасида чигитнинг бутунлиги бузилади, қобиқнинг маҳаллий емирилиши содир бўлади ва жинлаш вақтида тола билан бирга чигитнинг пўсти ҳам ажралиб чиқиб, толанинг зарарли нуқсонларини ҳосил қилади. Ваҳоланки, чигитларнинг шикастланишини ўсишига пропорционал равишда тола ичида толали пўстлоқнинг ҳам миқдори ошади.

Калит сўзлар: тола, аррали жин, ишчи камера, тезланиш, ишқаланиш, колосник.

Кириш. Пахта тозалашда энг асосий технологик жараён бўлган аррали жинлашда унумдорлик, хом-ашё валиги зичлиги ва тола сифатининг ўзаро яқин боғланиши борлиги пахта тозалаш амалиётида анчадан бери маълум.

И.Г. Болдинский ўз тадқиқотларида жин унумдорлигини ўсиши албатта хом-ашё валиги зичлигини ортиши билан бирга содир бўлишини исботлади.

Аммо зичликнинг ортиши билан унумдорлик ортиши маълум чегарагача бўлиб кейин унумдорлик пасая бошлайди. Бу ҳолат ёнбош йўналишдаги кучланмаларнинг таъсирида хом-ашё валиги айланиш тезлиги камайиб бориши билан боғлиқ бўлиб зичлик 550÷600 кг/м^3 бўлганида жараён бутунлай тўхтаб қолишини Г.И. Мирошниченко исбот қилган.

Аррали жинлаш асосий тадқиқотларининг ривожланиш таҳлили уни оптималлаш йўлларини белгилашга имкон беради. Жин унумдорлигини ошириш ва тола сифатини яхшилаш учун жинлаш жараёнини стабиллаш зарур.

Пахта заводларнинг амалиётида жинлашда хом-ашё валигининг зичлигини субъектив ўрнатилади ва ростланади. Бунинг учун жиннинг таъминланишини чигитли пахта навига қараб иш тажрибасидан аниқланиб белгиланган тезликка ўрнатилади, сўнг эса хом-ашё валигининг зичлиги ва чигитларнинг тукдорлик

даражасини ростлашга ўтилади. Б.И. Бекмирзаев томонидан хом-ашё валиги зичлигининг тола ва чигит сифатига таъсири ҳақида экспериментал маълумотлари олинган (2-жадвал). Улардан кўринадики, толанинг энг кам шикастланганлиги I-нав пахтада хом-ашё валиги зичлиги 325 кг/м3 бўлганида, III-нав пахтада эса – 290 кг/м3 бўлганида кузатилади.

Methods. “Paxtasanoat ilmiy markazi” ИИЧМ ва ТТЕСИ да ўтказилган тадқиқотлар кўрсатдики, толада жинлаш нуқсонларини ҳосил бўлиш сабабларидан асосийси – хом-ашё валигининг ортиқча ва ўзгарувчан зичлигидир. Хом-ашё валиги зичлиги ошганда тўқув жараёнида ёмон таъсир қилувчи чигаллар, комбинацияланган чигаллар ва тугунаклар ҳосил бўлади.

Жинлаш нуқсонларини камайтириш учун жинлаш жараёнини хом-ашё валигининг нисбатан бўш ва турғун зичлигида амалга ошириш керак. Муаллифлар хом-ашё валиги ёрдамида зичлиги пасайтирилган бўлганда жинда олинган тола сифатини тадқиқ қилишган. Тажрибаларда 108Ф I-нав қўлда терилган, намлиги 7,2% ва жинлашдан олдинги ифлосланганлиги 0,4% чигитли пахтадан фойдаланилган. Оптимал диаметри 150 mm ва тезлиги 230 r/min бўлган хом-ашё валигининг эластик элементли аррали жин иш натижаларини 3ХДД-М жин иши кўрсаткичлари билан солиштирилган.

2-жадвал.

I- ва III-навли ўрта толали чигитли пахтани ишлашда хом-ашё валиги зичлигини тола сифатига таъсири


I-навли чигитли пахта		*III-навли чигитли пахта*	
Хом-ашё валигининг зичлиги, кг/м3	*Толадаги жинлаш нуқсонлари миқдори, %*	*Хом-ашё валигининг зичлиги, кг/м3*	*Толадаги жинлаш нуқсонлари миқдори, %*
171,8	*2,12*	*183,6*	*3,1*
196,4	*1,67*	*248,1*	*2,05*
314,9	*1,24*	*255,7*	*1,97*
326,3	*1,15*	*280,5*	*1,96*
328,2	*1,33*	*288,2*	*1,94*
344,5	*1,81*	*293,9*	*1,86*
349,2	*2,48*	*301,5*	*2,02*
364,5	*2,73*	*314,9*	*2,35*
		337,8	*2,8*
		351,1	*3,04*


Унумдорлик ошиши билан хом-ашё валиги зичлиги ҳам ошади, бу эса жинлаш нуқсонларини ортишига олиб келади. Икки жиннинг иши

солиштирилганда кўринадики, хом-ашё валиги зичлиги пасайтирилиши натижасида нуқсонлар йиғиндиси ва толани ифлосланганлиги асосан жинлаш нуқсонлари ҳисобига 0,5-0,6 % га камаяди.

Results. Тажриба натижалари бўйича муаллифларнинг хулосаларига кўра жинлаш нуқсонларини камайтириш учун хом-ашё валиги зичлигини камайтириш керак. Шу тадқиқот доирасидаги “Paxtasanoat ilmiy markazi” ИИЧМнинг йигириш лабораториясининг олинган толадан йигирилган ип сифати бўйича маълумотлари ҳам шу фикрни тасдиқлайди (3-жадвал).

а)





Тола нуқсонлари миқдорини (толали пўстлоқ, комбинацияланган чигаллар, чигаллар ва тугунаклар) I- ва III-навли чигитли пахтани жинлашда хом-ашё валиги зичлигига боғлиқлиги (мос равишда а ва б)

Пахтани дастлабки ишлаш жараёнида қўлланадиган технологик жиҳозларнинг узел ва ишчи юзалари юқори сифатли бўлиши, яъни уларнинг юза силлиқлиги 7 класс аниқликда бўлиши лозим.

Олимларимизнинг олиб борган илмий изланишлари ва ўтказган тажрибалари натижалари шуни кўрсатадики, пахтани дастлабки ишлов бериш жараёнида толалар шикастланиши ёки жиҳозларнинг узелларини асосий юзаларида эмас балки айнан бир шаклдан иккинчи шаклга ўтувчи юзаларда содир бўлиши аниқланган, бунга мисол қилиб жинларнинг арра тишларининг қирраларини келтириш мумкин.

Ҳар хил абразив материаллар ёрдамида жилвирланган арралардан фойдаланишда ўтувчи юзаларнинг қирра радиуслари кичрайиши натижасида (r=0,1 мм) толалар шикастланиши ўсиб бориши кузатилган.

3-жадвал.

Йигирилган ипдаги нуқсонларга хом-ашё валиги зичлигининг таъсири

Жиннинг унумдорлиги, кг/арра-соат	*Хом-ашё валигининг массаси, кг*	*Хом-ашё валигининг зичлиги, кг/м3*	*Нуқсонлар йиғиндиси ва толанинг ифлосланганлиги, %*			
			Жами	*Синган чигит ва толали пўстлоқ*	*Синган чигит*	*Толали пўстлоқ*
Хом-ашё валиги зичлиги одатдаги						
8,8 *10,1* *12,3*	*55,3* *64,1* *67,8*	*354* *410* *430*	*2,60* *2,73* *2,81*	*1,20* *1,30* *1,37*	*0,29* *0,36* *0,38*	*0,91* *0,94* *0,99*
Хом-ашё валиги зичлиги пасайтирилган						
8,6 *13,8* *15,6* *17,3*	*39,2* *43,5* *44,4* *46,8*	*300* *309* *312* *314*	*2,05* *2,15* *2,13* *2,18*	*0,81* *0,90* *0,93* *0,99*	*0,15* *0,17* *0,20* *0,25*	*0,66* *0,73* *0,73* *0,74*

Conclusion. Юқоридагилардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, аррали жинлаш жараёнида хом-ашё валигининг зичлик ва тезлик параметрлари

таъминлаш интенсивлиги ва тозаланган чигитнинг чиқариб юбориш жараёни орасидаги мувозанатга боғлиқ. Шунга кўра жинлашни бир меъёрда ушлаб туриш ва тола, чигитни чиқариш масалалари бўйича бажарилган асосий тадқиқотлар билан танишиб чиқдик.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, Jurayev Yuldashhon Yunuskhan Ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman o'g'li, GENERAL INFORMATION ON THE IMPORTANCE OF FEEDSTOCK DENSITY AND SPEED IN THE FIBER SEPARATION PROCESS, ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, International scientific-online conference, October 20, 2022, https://doi.org/10.5281/zenodo.7229260
2. Samad S.Azimov, Ibrohimjon T.Tursunov, Khasanboy S.Yuldashev, DEVELOPMENT OF THE DESIGN OF A FEEDER OF VIBRATION ACTION FOR SUPPLYING COTTON SEEDS TO LINTER MACHINES Proceeding IX International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2022, Volume IV M. Auezov South Kazakhstan University, Shymkent, Kazakhstan December 09-10, 2022
3. Yuldashev Khasanboy, Komiljon Abduraximov, Maftuna Inamova, Kamoldin Mirgulshanov, Study Of The Process Of Cleaning Seedcotton INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES "SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD" CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:44-50. https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf14
4. Yuldashev Khasanboy, Maftuna Inamova, Mansur Qobilov, Abrorbek Abduxaliqov, Effect Of Moisture Continent In The Process Of Storing, Drying And Cleaning The Seed Cotton. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES "SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD" CONFERENCE DATE 15-10-2021, Pages:34-39. https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf14
5. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Kurbanov Dilmurod Maripjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Jurayev Yo'ldashxon Yunusxon O'g'li, INVESTIGATION OF LOSING FIBER DURING CLEANING COTTON. «Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, May 18, 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.6559924
6. Sharipov Xayrullo Numonjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Jurayev Yo'ldashxon Yunusxon O'g'li, Urinboyev Bekzod Baxtiyor o'g'li, "RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN

LINT CLEANER TECHNOLOGIES. RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES". https://doi.org/10.5281/zenodo.6559910

7. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich, Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Sharipov Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON "O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR" JURNALI 20-MAY, 2022-YIL

8. Sulaymonov Abror, Inamove Maftuna, Yuldashev Khasanboy, THEORETICAL STUDIES OF THE NATURE OF THE INTERACTION OF COTTON SEEDS IN THE GAP BETWEEN THE AGITATOR BLADE AND THE SAW CYLINDER, EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020 Online: 18TH October 2022. Pages: 666-672. https://doi.org/10.5281/zenodo.7218857

9. Jurayev Yuldashhon Yunusxon ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman ugli, Tuhktaev Sherzod Solijanovich, INVESTIGATION OF FIBER LOSS IN IMPURITIES FROM THE SS-15A SEPARATOR. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020.Pages:425-431. https://doi.org/10.5281/zenodo.7193675

10. Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon o'g'li, Qurbanov Dilmurod Maripjanovich, Maxmudova Gulshanoy Odiljon Qizi, INVESTIGATION OF FOREIGN LINT CLEANING SYSTEM TECHNOLOGIES. PEDAGOGLAR legal, medical, social, scientific journal, Pages:151-161. https://doi. org/10.5281/zenodo.5813657

11. Yo'ldashev Hasanboy Sulaymon o'gli, Xoshimov O 'tkirbek Xakimjon o'g'li, O 'rinboyev Bekzod Baxtiyor o'g'li, STUDY OF CLEANING PROCESSING OF SEED COTTON IJODKOR O'QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL 5 NOYABR / 2021 YIL / 12 – SON.Pages:209-213.

12. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich. Yo'ldashev Xasanboy Sulaymon O'gli, Sharapov Xayrullo Numonjonovich, Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, INVESTIGATION OF SEPARATION OF USABLE FIBERS ADDED TO CONTAMINANTS DURING CLEANING COTTON O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI.20.05.2022.Pages:448-455

PAXTA CHIGITINI LABORATORIYA SHAROITIDA ANALIZLAR TAXLILI

Phd. Isaev Shaxboz Shavkatjonovich

isayevshahboz90@gmail.ru

ass. Inamova Maftuna Dedamirza qizi

inamova93@mail.ru

ass. Muxsinov Ibroxim Ismoiljon o‘g‘li

ibrohim14@mail.ru

Anotatsiya: Ilmiy maqola respublikamiz to’qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi sifatida ishlatilishini xisobga olib, shu yo’nalishda mavjud texnika va texnalogiyalarni takomillashtirish dolzarb masalalardan xisoblanishi tadqiqotlar taxlili asosida aniqlanadi. Paxta tozalash korxonalarida jinlangan va jinlanmagan chigitlarni laboratoriya sharoitida chigitlarni iflosligini, namligini, tukdorligini va singan chigitlarning miqdori aniqlanadi.

Annotation: Taking into account that the scientific article is used as the main raw material of the textile industry of our republic, it is determined on the basis of research analysis that the improvement of existing techniques and technologies in this direction is one of the urgent issues. In cotton ginning enterprises, ginned and unginned seeds are tested for dirtiness, moisture, hairiness and the amount of broken seeds in laboratory conditions.

Аннотация: Учитывая, что научная статья используется в качестве основного сырья текстильной промышленности нашей республики, на основе анализа исследований определено, что совершенствование существующих приемов и технологий в этом направлении является одним из актуальных вопросов. На хлопкоочистительных предприятиях очищенные и неочищенные семена проверяют на засоренность, влажность, опушенность и количество битых семян в лабораторных условиях.

Kalit so’zlar: chigit, infraskan, O’zRST, yog’-moy olish, tolador chigitlar.

Paxta chigitlari yog’-moy kombinatlarida ishlash uchun mo’ljallangan texnik va ekish uchun qo’llaniladigan urug’lik chigitlarga bo’linadi. Texnik chigitlar turli ishlab chiqarish navlariga bo’linadi. Yetilgan paxtada uning og’irligiga bog’liq holda 52-56 % chigit bo’ladi. Ifloslik, toladorlik va namlik darajasi bo’yicha yog’-moy zavodlariga topshiriladigan chigitlar O’zRST 596-93, O’zRST 603-93 bo’yicha belgilangan normalarga javob berishi kerak. (2.2 va 2.1-jadvallar). 2.4-jadvaldan ko’rinib turibdiki

paxta chigitini qayta ishlashda uning to’liq toladorlik darajasini hamda unda qolgan tolalar Yog’-moy olish hamda ekish uchun chigitlar kamroq tolali bo’lishi zarur. Chunki tukdorlik darajasi kam bo’lsa ko’proq yog’ olish mumkin hamda chigitning unib chiqishi tezroq sodir bo’ladi.

Chigit naviga bog’liq xususiyatlar normasi
1.jadval

Chigit navi	Paxta chigitini kesilganda ichki qatlamining rangi	
1	Paxtaning selektsion naviga bog’liq holda och moyli yashilsimon hamda boshqa rangdagi qatlam	
2	Paxtaning selektsion naviga bog’liq holda moyli qatlam	
3	Kulrangdan sariqgacha moyli qatlam	
4	Sariqdan och jigarranggacha bo’lgan rangli qatlam	


Yog’-moy olish hamda ekish uchun chigitlar kamroq tolali bo’lishi zarur. Chunki tukdorlik darajasi kam bo’lsa ko’proq yog’ olish mumkin hamda chigitning unib chiqishi ham tezroq sodir bo’ladi.

Chigit naviga bog’liq holda uning ichki qatlami rangi.
2.Jadval.

Chigit navi	Shikastlangan chigitlarning massasi %	**Chigit namligi** %	O’rta tolali navlarda	**Chigitning tukdorlik darajasi** %
1	1,5	10,0	5,0-10,5	1,5-7
2	3,0	11,0	6,0-10,5	3,0-7,5
3	11,0	12,0	7,0-11,0	4,0-8,5
4	33,0	13,0	8,0-13,0	4,5-9,0

Hozirda ekish uchun hududlashtirilgan, yangi va istiqbolli paxta navlarining elita, birinchi (R1), ikkinchi (R2) avl odli chigitlari qo’llaniladi, ular nav tozaligi bo’yicha mavjud talablarga mos kelishi kerak [6].Zarur bo’lganda O’zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo’jaligi vazirligining ruxsati bilan R3 va undan keyingi avlodli chigitlardan ekish uchun foydalanish mumkin.Hozirgi kunda chigitlarning

xususiyatlariga qarab ularni tozalash va saralash jarayoni texnika va texnologiyasi ham turlicha. Tolador chigitlarni ajratib olish jarayoni bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ma'lumki texnik chigitlarni laboratoriya qilish jarayonida chigitni namligini,sortini iflosligini,tukdorligini,yogdorligini aniqlashimiz uchun ancha vaqtimiz ketadi.Mahalliy infraqizil analizatorlarni yaratish va ularning matralogik ta'minotini rivojlantirish firma 2016yilda tashkil topgan. Sank-Peturburgda ishlab chiqarilgan ИНФРАКСАН 3150 apparati ishlab chiqarilgan bulib, uni afzalliklari laboratoriya sharoitida smena 1 sutkada chiqaradigan analizlani tezda chiqarib beradi. Bitta chigitni emas balki don maxsulotlarini xam analiz qilib beroladi misol uchun chigit,bug'doy,soya kunjut,va boshqalar. Bu apparat namlik, yog'dorlik, tukdorlikni aniqlab,maxsulot sifatini tez va samarali baxolash uchun ko'p qirrali,ishonchli,aniq va foydalanishda qulay o'lchash aparati deb aytsak xam bo'ladi.Qurilma davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.



1.1 rasm **INFRASKAN** - 3150 qurilmasining chigit va don maxsulotlarining maydalagichi



1.2-rasm **INFRASKAN** -3150 qurilmasining asosiy oynasi

1) Jindan chiqgan chigitni analiz qilsak.

Нав-11,92 Namlikni aniqlash formulasi W= $\frac{50-45.46}{50}$*100-0,5=8,58

Сор-0,35
пус-0,07
Деф-0,58

Namligi-8,3
Yog'dorligi-20,48
Tukdorligi-10,28

bu analizni BXC-M1 aparatida aniqlandi. Bu chigitimiz 1-sort chunki 0.58 chiqdi yuqoridagi1.1 jadvalda ko'rsatilganidek 1.5gacha bolsa 1sortga kiradi.

Yangi -INFRASKAN apparatida analiz qilganimda bu texnik chigitdan namlik-8.3, yog'dorligi-20.48, tukdorligi-10.28 chiqdi.

Etalonda tekshirganimizda chigit tukdorligi-11.00.

2) Linterdan keyingi chigitni analizi

Нав-10,79 Chigit namligini W= $\frac{50-45.42}{50}$*100-0,5=8,46

Сор-0,20
Пус-0,06
Деф- 0,55

Namligi-7.9
Yog'dorligi-21.49
Tukdorligi-6.94

yangi qurilmadagi analizi.

3) Jindan chiqgan chigit

Нав-11,66 $W=\frac{50-45.20}{50}*100-0,5=9.10$

Сор-0,58

Пус-0,07

Деф-0,60

Namligi-8,6 Yog'dorligi-19,04 Tukdorligi-14,05

yangi qurilmadagi analizi.

3-xil chigit analiz qilinganda 0.5 dan 1gacha farq qilindi.ishdan maqsad shuki bu aparatni laboratoriyaga jalb qilinib ishchi kuchini kamaytirish, vaqtdan xam tejash.xozirgi kunda shartnoma asosida bu aparatni olib kelinib chigitlarni tekshirishda foydalanilsa maqsadga muofiq bo'ladi.

Paxta tozalash korxonalarida jinlangan va jinlanmagan chigitlarni laboratoriya sharoitida chigitlarni iflosligini, namligini, tukdorligini va singan chigitlarning miqdori aniqlanadi.

Jinlash va linterlash jarayonlaridan keyin xam chigit ustidan tola-momiq va normal tolalar uzilmagan va atrofida o'ralgan xolda qoladi bu esa linterlash jarayonidan yaxshi linterlanmay qolgan chigitlar hisobiga chigit atrofidagi chigit tukdorligi ortib ketadi bu esa sifati pasayishiga olib keladi.

Chigitning to'liq tukliligi deb, chigit ustida qolgan momiq va tolalar massasining chigitning boshlang'ich massasiga prosent xisobidagi nisbatiga aytiladi.Chigitning to'la-tukliligini aniqlash uchun o'rtacha namunadan xar biri 30 gr og'irlikda kichik namuna olib,ularni quritish shkafi ichida kislotasining bugg'i bilan 130 S da 30 min davomida kuydiriladi shu tariqa chigit tukdorligi aniqlanadi.Chigit atrofidagi momiq va kalta tolalarning jinlash va linterlashda to'liq yechib olish va chigit hamda tolani sifatiga ta'sirini kamaytirish lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.M.Muradov., S.T.Rejabboyev., S.Xonto'rayev., M.Babeva Chigitni saralashda chiqindilarni teshiklardan chiqishini amaliy taqiq etuvchi dasturi taminot EXM dasturi bo'yicha DGU 2021 0836 raqamli

2. O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligiga foydali modelga patent topshirilgan. FAP 20210023

3. M.A.Tojiboyev., M.Inamova., S.T.Rejabboyev Paxtani chigit sifat ko'rsatkichlarining laborotoriya sharoitida tahlili Namangan muhandislik texnologiya instituti Akademik innovatsiya fondi «Paxta, to'qimachilik va engil sanoati mahsulotlari sifatini taminlashning zamonaviy konsepsiyasi» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2020. №1.B. 197-199. nammti_ilmiy@bk.ru

THE PRAGMATIC APPROACH TO THE ACADEMIC DISCOURSE

Rakhimova Guzal Bagriddinovna
The master's student of Linguistics and Literary Studies Department
Uzbekistan State World Languages University
guzal.rahimova.86@mail.ru

ABSTRACT. This research is based on the analysis of the pragmatic approach to the academic discourse.The study of the academic discourse as the pedagogical discourse needs to research the pragmatic characteristics of the communicative interaction between addresser and addressee.This paper aims to show the speech strategies and speech impact, the pragmatic intentions of the communicative pragmatic situation in academic discourse.

Key words: academic discourse, pragmatic characteristic, pedagogical discourse, addresser, addressee, communication.

The study of the academic discourse as a means of communicative interaction in the pedagogical process puts forward the pragmatic approach and study of the communicative situation between addresser and addressee.

LinguoPragmatics is one of the trends of the communicative linguistics.Its main aims in the linguistics is the studying of the language factors within the sphere of the human activity on the basis with psychological,social and cultural aspects of language functions.

V.Karasik mentions discourse as a text in the situation of real communication and according to the statement the discourse can be viewed from different angles:linguistics,sociolinguistics,pragmatic.The linguistic analysis of discourse deals with its aspects of completeness, correctness, logicality. From the position of the linguopragmatics we research the channels of the discourse if it is spoken or written or a combination of the two and its register, style and genre of communication. The pragmatic approach to the discourse raises the issue of situational interpretation which introduces the notion of a communicative - pragmatic situation. According to the E.S.Aznaurova the communicative -pragmatic situation includes the addresser, the addressee, the subject of communication, communication,time,place,text.

In academic discourse the communicative interaction occurs between teacher as addresser and the students or pupils as addressee and the pragmatic intention of the addresser /teacher - to attract attention, to interest the addressee/students or pupils, to exert a motivational impact, to activize knowledge structure, to stimulate the addressee's creativity. The genre of the academic discourse illustrates the form of scientific dialogue,discussion, debate,seminar,lecture in the educational process. The

analysis of the academic discourse needs to pay attention to the speech acts,frame theory,the theory of politeness,and informativity. “Anvar, If I see you with your mobile phone during the lesson, I will call to your parents” - The analyzing of this teacher’s speech illustrates the fear scenario.The achievement of the goal in this communicative situation is dependent on many factors, including the student's individual psychological characteristics, his current psychological state, his attitude toward the teacher, his family's social status, the intonation pattern and nonverbal means used by the teacher when uttering the statement, and the attitude of other students toward this event and this teacher. In pragmatics we know that the main aim of communication is to achieve understanding. Pragmatics studies the effectiveness of communication. H.R.Grice mentions that the conversion is interpreted according to the one’s aim to say and inform.Teacher’s speech in pedagogical discourse is based on maxims by Grice - quality, quantity, relation, manner. For example teacher’s speech or explanation is organized according to the manner -to avoid ambiguity or obscurity, be brief and orderly in the contribution. The mental condition of the addressee is also important. According to L.S.Vygotsky’s cultural and historical theory, properly organized training is based on the student's immediate zone of development, namely, the outlook, daily experience, and needs, as well as those mental processes that begin to develop in his co-creation with the teacher and then function in his independent activity.

In conclusion we can say that the pragmatic approach to the academic discourse focuses on the factors of the addresser and addressee, the addresser is the teacher who creates the academic discourse which reflects his views, attitudes,evaluation,world outlook. The addressee is the students whose interaction and mental,cultural outlook are important in pragmatic communication in academic discourse.

References.

1. Ashurova D.U.,Galiyeva M.R. Text Linguistics -Coursebook for the master students in specialty Linguistics, Turon-Iqbol, Tashkent 2016.

2. Kecskes I., Obdalova O.A., Minakova L.Yu., Soboleva A.V. Study of the Perception of Situation-Bound Utterances as Culture-Specific Pragmatic Units by Russian Learners of English // System. 2018. Vol. 76, August. P. 219–232. DOI: 10.1016/j.system.2018.06.002.URL: https://www.sciencedirect.com /journal/system/vol/76

3. Obdalova O.A., Minakova L.Yu., Soboleva A.V. Discourse as a unit of communicative and speech-thinking process in communication of representatives of different linguistic cultures // Language and culture. 2017. No. 37. pp. 205-228.

4. Obdalova O.A. Cognitive-discursive system of teaching foreign-language inter-cultural communication to students of natural sciences: dis. ... doctor of Pedagogical Sciences. N. Novgorod, 2017. 426 p

5. Gural S.K. Teaching foreign-language discourse as a super-complex self-developing system: dis. ... doctor of pedagogical sciences. Tomsk, 2009. 589 p.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ZAMONAVIY HIKOYACHILIKDA RAMZ VA TIMSOLLAR Gulnora Avezova	4
2.	“ASHTARXONIYLAR DAVRIDA QISHLOQ XO’JALIGI VA YER EGALIGI SHAKLLARIDAGI ISLOHOTLARNING RIVOJI” Abraykulova Nigora Namazovna	7
3.	O’QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING ROLI Abdurazzaqov O’ktam Abduqayumovich Sunnatullayev Muhammadyusuf Shuxratilla o’g’li	13
4.	КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИК АНТРОПОЦЕНТРИК ЙЎНАЛИШ СИФАТИДА ВА КОНЦЕПТ ВА УНГА ЯҚИН ТУШУНЧАЛАР Усманова Г. А	18
5.	NAVOIY VA OGAHIY IJODIDA SO’ZNING MA’NO JILOLARI Karimova Feruzaxon Sayfuddinovna	21
6.	O’ZLASHTIRMA NUTQ VA O’ZLASHTIRMA SO’ROQ (o’zbek va fransuz tillari misolida) Sayfullayev Baxshillo Nematulloyevich Shomurodova Lola Ixtiyor qizi	27
7.	MAKTAB FIZIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI Xaydarova Lobar Halimovna	34
8.	КУЗГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙ ЯНГИ ЛИНИЯЛАРИНИНГ ДОН СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИ ҲАМДА ҲОСИЛДОРЛИГИ Сиддиқов Равшанбек Иномжонович Рахимов Тожидин Абдунуманович Наджимов Талантбек Эшмурот ўғли Мирзабдуллаев Ғолибжон Нурали ўғли	39
9.	SEMANTIC AND ETYMOLOGICAL FEATURES OF THE LEXICON OF PLANT NAMES IN ENGLISH LITERARY TEXTS OF THE VICTORIAN PERIOD Latipjonova Malikakhon Odiljon qizi	46
10.	QISHLOQ XO’JALIGI YAYLOV YERLARINI MASOFADAN ZONDLASH BO’YICHA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Allashov Zaripboy Jumabaevich	50
11.	SO’NGI YILLARDA QO’QON SHAHAR SOG’LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI UMUMIY KO’RSATKICHLAR VA NATIJALAR Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o’g’li	53
12.	СЎФИЁНА АДОЛАТ Оқбўтаев Ботир Ҳайдарович	57
13.	MAISHIY KIMYO VOSITALARI DISTRIBYUTSIYASIDA OPTIMAL MARKETING STRATEGIYASINI TUZISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR HAMDA SAMARALI DOLZARB MARKETING STRATEGIYALARI Ruzieva Farzona	60
14.	ALGORITHM OF WORK ACTIVITIES OF THE PART OF THE BRAIN THAT CONTROLS THE MUSCLES OF THE LIPS OF A PERSON Z. A. Hakimov	65
15.	BUDJETNI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH: JAHON AMALIYOTI VA MAMLAKATIMIZDA YARATILGAN TIZIM Muslimov Komoliddin G’iyos o’g’li	72

16.	QURILISH TERMINOLOGIYASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI Djumashev Atadjan Ashirbayevich	77
17.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK YONDASHUV Mirdjalalova Lobar Rustamovna	83
18.	ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ УСТАНОВОК С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕМБРАННОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОЧИСТКИ ПИТЬЕВЫХ ВОД Сабирова Д.А Мавланова Ю.И Хамраев Ф.О	89
19.	XITOY TILI TA‘LIMIDA TELEVIZION DRAMALARDAN FOYDALANISH THE TELEVISION DRAMAS FOR LEARNING CHINESE 中国电视剧 在对外汉语教学的应用 Shasaidova Lola Shamaksudovna. 乌兹别克斯坦世界语言大学.博士生.	94
20.	REKLAMA MATNLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI Qahramon Rayimov	98
21.	ANESTEZIYANI AMALGA OSHIRISH USULLARI ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH Atashev A.R. Raximberganov S.M.	102
22.	KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Mo’ydinova Shoxsanam Doniyorbek qizi	107
23.	QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MODDIY RESURSLAR MAZMUNINING NAZARIY YONDASHUVLARI Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich Xusanboev Boburmirzo Isoqjon o’g’li	113
24.	KORXONALARDA ICHKI VA TASHQI MUHIT OMILLARINING QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA’SIRI Ubaydullaev Lutfulloxon Xabibullaevich Nosirov Muzaffar Tolib o’g’li	121
25.	ELEKTROMAGNIT O‘ZGARTGICH PARAMETRLARI Baratov Laziz Suyun o‘g‘li Majidov Xomitxon Orifxon o‘g‘li	127
26.	AVAZ O‘TAR IJODIDA MA’RIFATPARVARLIK Shohista Shermamatova G‘iyosiddin Shodmonov	132
27.	СУБСЕНСОР АЙТИБ ТУРИШ ВА ОНГСИЗЛИК ДАРАЖАСИДАГИ УСТАНОВКАЛАР АНГЛАНГАНЛИКНИ ТЎЛДИРУВЧИ ҲОДИСА СИФАТИДА Қ.А.Абдураҳимов	140
28.	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЛОГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ Абдураимова Нигора Раджабовна	156
29.	РАСЧЕТ ВЫБРОСОВ ЗАГРЯЗНЯЮЩИХ ВЕЩЕСТВ В ПРОЦЕССЕ ДОБЫЧЕ ГЛИНЫ НА ПРОМЫШЛЕННОМ УЧАСТКЕ КУНГУРТАУСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ Алладустов У.Б., Холов Ф.М.	170

30.	UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING AYRIM KONTSEPTUAL MASALALARI Djumayeva Guzal Axtamovna	177
31.	УЛЬТРАЗВУКОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИ СПЛЕНОМЕГАЛИИ ПалвановаУмида Бахрамовна Якубова Азада Батировна Юсупова Шахло Бахромбек кизи	182
32.	ОЦЕНКА НАГРУЖЕННОСТИ КУЗОВА АВТОМОТРИСЫ ПРОИЗВОДСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Рахимов Рустам Вячеславович Хайдаров Ойбек Улуғбекович Султоналиев Достонжон Дилшод угли	188
33.	ИМОМ ИСМОИЛ АЛ-БУҲОРИЙ ҲАДИСЛАРИДА ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ Рашидова Мухлиса Абдулхай қизи	197
34.	РАСХОЖДЕНИЯ В ДАННЫХ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ УЗБЕКИТАНА DISCREPANCIES IN FOREIGN TRADE DATA OF UZBEKISTAN Муминов Жахонгир Muminov Jakhongir	202
35.	AHMAD YASSAVIY IJODI ADABIYOTSHUNOSLAR TALQINIDA Nazarova Gulrux Shokirovna	211
36.	«TUGUMI» ASARIDA QO‘LLANGAN XURSANDCHILIKNI IFODALOVCHI SIFATLAR SEMANTIKASI Haydarova Umida Sotvoldiyeva Husnida	217
37.	THE RELATION OF THE LEGAL WORLD WITH LANGUAGE Nizomova Taxmina Jamoliddin qizi	222
38.	BA’ZI RATSIONAL FUNKSIYALARNI INTEGRALLASHDA OSTRAGRADSKIY USULIDAN FOYDALANISH Po‘latov Baxtiyor Sobirovich Ibrohimov Javohir Bahrom o‘g‘li Mamarashidov Sharofjon, Toyloqova Nigora, Avalboyeva Zilola Sharipova	228
39.	YO‘L MUHANDISLIGI INSHOOTLARIDA MONITORING TIZIMLARINI QO‘LLASH Ganiyev Inomjon Gulomovich	233
40.	AVTOMOBIL YO’LLARI QOPLAMASI MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR Habibullayev Shahboz Ali o’g’li Salimova Barno Djamalovna	240
41.	JAMIYAT QONUNLARI VA UNING TURLI IJTIMOIY-TARIXIY DAVRLARDA NAMOYON BO’LISHI Kimsanboyeva Zuhra Saminjon qizi	244
42.	FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR, ULARNING TASNIFI VA TILLARDAGI ROLI Sadikova Saodat Minovarovna	248
43.	MAKSIMUMLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN YARIM O’QDA BOSHLANG’ICH MASALA Xolmanova Klara Yangiboy qizi Amankulova Istamgul Toshtemir qizi, Baratova Sevinch Doniyor qizi Xakimov Behzodbek Ikrom o’g’li, Tilolov Shahzod Akbar o’g’li	259
44.	UNDALMALARNING O’RNI VA OHANGI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR Xatamova Munisa Mamadulla qizi	266

45.	INTEGRATION OF STEAM TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH Kurbanova Husniya Shuhrat qizi	270
46.	TRANSPORT TARMOG‘I KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISH Rahmatullayev Kamronbek Baxtiyor o‘g‘li	275
47.	NAMLIGI YUQORI BO‘LGAN GRUNTLAR MAVJUD JOYLARDAGI AVTOMOBIL YO‘LLARINI LOYIHALASHDA MUHANDIS-GEOLOGIK QIDIRUV ISHLARINING O‘ZIGA XOSLIGI Ravshanov Jo‘rabek Ravshan o‘g‘li	280
48.	LINGUISTS AND MEDICAL TERMINOLOGY: AN ESSENTIAL COLLABORATION Rajab Ostonovich Bobokalonov	284
49.	WOMEN EMPLOYMENT AND SOCIALIZING IN DIGITAL ECOMONY Abdullayeva Zamira	288
50.	OILA KONSEPTINING SEMANTIK-FRAMIK STRUKTURASI Xalilova Zarnigor Халилова Зарнигор Xalilova Zarnigor	293
51.	XODIMLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH O’ZBEKTELECOM” AK MISOLDA Xakimdjanova Dildora Kamilevna	298
52.	ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТ ХУДУДЛАРИДА ПИРОПЛАЗМИДОЗЛАРНИ ТАРҚАТУВЧИ КАНАЛАР ФАУНАСИ Баратов Ж., Камолов Ф. Тухтамишов Н., Менгишев Ю., Ахмедов С.	303
53.	SINF RAHBARINING BO‘SH O‘ZLASHTIRIUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN SINF TARBIYAVIY ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI Xolyigitova Nasiba Tolibjonova Diyora Sanjar qizi	306
54.	FACTORS THAT RECEIVED MARRIAGE AND THEIR IMPACT ON THE POWER OF MARRIAGE Muratova Sh.N.	311
55.	АХБОРОТ ҚАБУЛ ҚИЛИШДА ИМКОНИЯТЛАР, ҚУЛАЙЛИКЛАР, ТАЪСИРЛАР ВА МАҚСАДГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК ҲОЛАТИ Ш.Б.Турсунова	318
56.	EFFECTIVE USE OF FUTURE TEACHERS' INNOVATIVE PROCESS-BASED EDUCATIONAL METHODS IN PRACTICE Mamatkulova M.V. A. SH. Hudoyberdiyeva	323
57.	DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ACTIVITY OF FUTURE STUDENTS IN TEACHING CHEMISTRY ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONS Yusupova N. V. Muhammadjonova N.R	330
58.	O‘RTA UMUMTA’LIMDA ONA TILI HAMDA ZOOLOGIYA TA’LIMI MAQSADLARI HAMOHANGLIGI Jo‘rayeva Charos Bahodirovna	337
59.	ЖИН МАШИНАСИ ИШЧИ КАМЕРАСИДАГИ КОНСТРУКТИВ ЭЛЕМЕНТЛАРНИНГ ТОЛА СИФАТИГА ТАЪСИРИ Шарипов Хайрулло Нуъмонжонович Рустамова Фотимабону Хуршеджон қизи Қурбонов Адхамжон Тўланбой ўғли	342

	Адашбаев Даврон Абдумажит ўғли	
60.	ТОЛА АЖРАТИШ ЖАРАЁНИДА ХОМ-АШЁ ВАЛИГИ ЗИЧЛИГИ ВА ТЕЗЛИГИ ТАҲЛИЛИ Шарипов Хайрулло Нуъмонжонович, Рустамова Фотимабону Хуршеджон қизи Қурбонов Адхамжон Тўланбой ўғли, Адашбаев Даврон Абдумажит ўғли	347
61.	PAXTA CHIGITINI LABORATORIYA SHAROITIDA ANALIZLAR TAXLILI Isaev Shaxboz Shavkatjonovich Inamova Maftuna Dedamirza qizi Muxsinov Ibroxim Ismoiljon o‘g‘li	353
62.	THE PRAGMATIC APPROACH TO THE ACADEMIC DISCOURSE Rakhimova Guzal Bagriddinovna	358

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to’g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o’g’li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o’g’li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o’g’li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil. 366 bet.
© Talqin va tadqiqotlar,
© Mualliflar jamoasi.